ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim sifatini ta'minlashda ilmiy-metodik jurnallarning o'rni
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
Z. Yulchiyeva	6	Texnologik va axborot taraqqiyoti davrida muhandislik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar o'rni va ahamiyati
S. Xodjibekov, B. Ismoilxadjaev	10	Kimyo darslarida glitserin hosilalarini olish usullarini qiyosiy o'rganishning o'ziga xos jihatlari
A. Kenjaboyev	14	Zamonaviy o'qituvchi deontologiyasi va kompetentligi
X. Qodirbayeva	20	Hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish asosida o'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish mazmuni
P. Abduqodirova D.Maxmudova	27	Bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash
F. Mavlonov	33	Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy pedagogik asoslari
A. Qutbeddinov Sh. Toshpulatova Y. Mavlonova	38	Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining mantiqiy savodxonligini rivojlantirishda PISA dasturidan foydalanish
I. Hoshimov	45	O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarixiy va madaniy meroslardan foydalanish
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
U. Axmedova D.Maxmudova	48	Informatika darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari
M. Barakayev K.Turgunova	52	OTM larda matematika modulini o'qitishning amaliy yo'nalishi
G.Mavlonova	56	Mahalliy soya navlarining fiziologik va morfologik belgilarini o'rganish
R.Ashurbayeva	60	Ona tilini ta'limning adabiyot fani bilan boastaligi va integrativ usullarning ahamiyati
Sh. Mirzayeva	66	Fizika darslarida pedagogik innovatsion metodlardan foydalanish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llash
A. Ulliyeva	70	Ona tili fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni o'rta ta'lim maktablarida tashkil etish
M. Ahadov	73	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Science (tabiiy fanlar)ini o'qitish istiqbollari
R. Ziyayev T. Eshboboyev	77	D. I. Mendeleyevning zamonaviy elementlar davriy jadvalini ifodalanishi va tuzilishi
S. Sabirov	82	Badiy adabiyotlarga ilyustratsiyalar ishlashning an'analari (tarbiya klasteri asosida)
M. Iminova	87	O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va o'quv faoiyatini rivojlantirishda loyiha metodining orni
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
D.Kenjaboyeva	91	Innovatsion yondashuv asosida xorijiy til o'qituvchilarida deontologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi

L.Suvonova	96	STEAM darslarini tashkil etish etishda ‘‘5E o‘quv modeli’’dan foydalanish
D.Mahkamov	99	Tyutr xodimi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari
O. Xaydarova	103	Bolajak o’qituvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv
KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH		
A.Mamadaliyev	106	Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining qiziqishlarini aniqlash va kasbga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish
MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH		
Q.Azizova	110	Malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integrativ-pedagogik faoliyatini rivojlantirish
F. Xoshimova	114	Masofaviy malaka oshirish muhitida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish
MAKTABGACHA TA’LIM		
Sh.Nurullayeva G.Ibragimova	119	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlili
ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK		
Sh. Mamajonov	123	Ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish
MUTOLAA MADANIYATI		
D.Kamoljonova	126	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik mmadaniyatini shakllantirishning tamoyillari
ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR		
S.Ro‘zmetova	130	Kabiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyani qo‘llashga doir zamonaviy qarashlar
QIYOSIY PEDAGOGIKA		
U. Bovanova	133	Bioshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munsabatini shakllatirishdagi xorijiy tajriba
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
М. Бадалова	138	Перспективы развития внешкольного образования в Республике Узбекистан (например детских школ ‘‘Баркамол авлод’’)

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA ILMIY-METODIK JURNALLARNING O'RNI

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri mazkur sohani va olimlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Axborot va texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda.

Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini yaratish, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Shu bilan birga, ilmiy-texnik salohiyatning hozirgi kundagi ahvoli, kadrlar bilan ta'minlanganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnik, tajriba va laboratoriya bazalarining rivojlanish darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan ortda qolmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini moliyalashtirish borasida ham muammolar mavjud. Shu sababli ilmiy faoliyat nufuzi biroz pasayib, iqtidorli yoshlarning boshqa sohalarga ketib qolish holatlari kuzatilmoqda. Olimlar, akademiklarning o'rtacha yoshi 50-60 dan oshiqni tashkil etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi akademik fanning xalqaro miqyosda nufuzini oshirish, dunyo ilm-fani bilan hamkorligini mustahkamlash ham bugungi kun talabiga aylandi.

Bugungi kunda davlat ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish, olimlarga keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni amalga oshirishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida olimlar, jumladan, yoshlar uchun ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari, texnoparklar tashkil etish, ilmiy izlanishlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning real muammolariga yo'naltirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlash, akademiklar bilan xorijiy mamlakatlardagi akademiyalar, ilm-fan markazlari o'rtasida hamkorliklarni kuchaytirish kabi masalalarni amalga oshirish asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Bunday vazifalarnini hal etish esa bo'lajak mutaxassislarni, ilmiy va ilmiy- pedagogik

xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga bog‘liq bo‘lib, bular bevosita ijodiy jarayon va unga asoslangan ijodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, bunday vazifalarni hal qilishning samarali yo‘llaridan biri ham bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy faoliyat bilan bemalol shug‘ullana oladigan qilib, ya’ni ilmiy tadqiqot asoslari bilan shug‘ullana olish ko‘nikma va malakalariga ega qilib tayyorlashga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab ijodiy faoliyat inson aqliy faoliyatining ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy ongli – harakatlari majmuasidan iborat bo‘lishligi bizga ma’lum. Bundan ko‘zlangan maqsad hodisa va jarayonlar to‘g‘risida yangi bilimga ega bo‘lish, uni takomillashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo yechimi bo‘yicha yangi usul, uslubiyat, texnika, texnologiya kabilarni yaratishdan iboratdir.

Demak, zamonaviy mutaxassis, ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tizimli asosida faoliyat yurita oladigan bo‘lsak, ijodiy faoliyat bilimlarning algoritmik tuzilmasidan iborat ekanligi kelib chiqadi. Buni ilm-fan va texnika-texnologiyalarning rivojlanishida yangi bilimlar va ularni o‘zlashtirishda shakllangan bilimlar tizimini ma’lum qonuniyat asosida asoslashda hamda ulardan bilish faoliyatini takomillashtirishda foydalanishlarda sezish mumkin bo‘ladi. Bu qayd etilganlar mamlakatimiz kelajagiga ko‘p jihatdan ilm- fan sohasidagi innovatsion o‘zgarishlarga va unga mos ilmiy tadqiqot ishlariga, shuningdek, ular asosidagi zamonamizning yangi istiqbolli talablariga javob beradigan ijodiy ishlarning qay tarzda olib borilishiga bog‘liq ekanliklarini ko‘rsatadi.

Har qanday ilmiy-metodik adabiyotni mutolaa qilishda uni yozgan kishiing mehnatini qadrlash lozim. Siz ham yaqin kelajakda shunday asarlar yozasiz, bo‘lajak magistrantlar siz yozgan asarlarni o‘qib, bilimini oshiradi va sizning mehnatingizni munosib qadrlaydi. Boshqalar yaratgan ilmiy asarlarga yaxshi munosabatda bo‘lish olimlarga xos fazilatlardan biri hisoblanadi.

Yosh tadqiqotchi o‘zi tanlagan mavzu bo‘yicha adabiyotlarni qancha ko‘p o‘rgansa, mavzu yuzasidan bilimi shuncha kengayadi va chuqurlashadi. Bunday asarlarni o‘rganish jarayonida ayni bir til hodisasining turlicha tushuntirilgani, ayni hodisaga turlicha yondashilganiga duch kelish mumkin. Ilmda bunday holatning yuz berishi, hatto bir-biriga zid fikrlarning o‘rtaga tashlanishi tabiiy deb qaraladi; yosh tadqiqotchi ham buni tabiiy hol deb qabul qilishi, hatto o‘zi uchun foydali deb bilishi lozim. Har xil talqinlarning qay darajada asosli, to‘g‘ri ekani haqida mulohaza yuritishga, shu fikrlardan eng maqbulini tanlashga imkoniyat yaratiladi. Ko‘rinadiki, mavzuga xos ilmiy-metodik adabiyotlarni mutolaa qilish bilan faqat bilim boyitilib qolmay, ayni vaqtda fikrlash qobiliyati ham o‘stiriladi.

Mamlakatimizda ilm-fanni, ilmiy-tadqiqot muassasalari va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq mexanizmning barcha bosqichlari to‘la ishlashi uchun imkoniyatlar to‘la yaratilgan. Endilikda ilm-fanni, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish uchun hamma sharoitlar mavjud. Demak, endi jiddiy ishlash, yangiliklar, ilmiy kashfiyotlar yaratish davri keldi. Mamlakatimiz rahbari bu borada olimlarimiz oldiga nafaqat respublikamiz ijtimoiy hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan ilmiy yangiliklarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish vazifasini qo‘ydi, balki Vatanimiz ilm-fanini dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari ilm-fani darajasiga ko‘tarish, ular bilan raqobatga kirisha oladigan miqyosda kashfiyotlar yaratish, ilm-fanimizning xalqaro nufuzini yanada oshirish masalasini ham belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-metodik nashrlar ta’lim sifatini takomillashtirishda muhim vosita ekan, ularning son va sifatini oshirishda befarqlik va sustkashlikka yo‘l qo‘qmaslik lozim.

Zulfizarxon YULCHIYEVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

TEXNOLOGIK VA AXBOROT TARAQQIYOTI DAVRIDA MUHANDISLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada muhandislik madaniyatini rivojlantirishda ilg'or, innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati, muhandislik madaniyatini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida shakllantirishning metodologik asoslari haqida batafsil yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar. Texnologiya, axborot, muhandislik, innovatsiya, metodika, san'at, psixologik xarakter, pedagogik yondashuv,

В статье предпринята попытка подробно осветить роль и значение передовых, инновационных технологий в развитии инженерной культуры, методологические основы формирования инженерной культуры у студентов технических высших учебных заведений.

Ключевые слова. Технологии, информация, инженерия, инновации, методика, искусство, психологический характер, педагогический подход,

The article attempts to highlight in detail the role and importance of advanced, innovative technologies in the development of engineering culture, methodological foundations of the formation of engineering culture among students of technical higher educational institutions.

Key words. Technologies, information, engineering, innovations, methodology, art, psychological character, pedagogical approach,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab -quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati to'g'risida quyidagilarni ta'kidladi: "Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak".

2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: "Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivolantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar yetish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi".[1]

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan texnika sohasida ta'lim olayotgan talabalarga ham muhandislik madaniyatini rivojlantirishda,

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 23-dekabr

sohaning bugungi kundagi ahamiyatini oshirishda innovatsion g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi. Zero, innovatsiya tushunchasining o‘zi (lotincha “novus” - yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan bo‘lsa, texnika sohasida esa texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rgangan firmalar foyda olish uchun ‘‘innovatsion siyosatni’’ butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Xoh texnik, xoh pedagogik sohada bo‘lsin, innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo yetadi. Chunki interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda talaba o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi.

Har qanday sohada o‘qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘z oldiga nimaniki maqsad qilib qo‘ysa, albatta dars jarayonidagina buni to‘liq amalga oshira oladi.

Shuningdek, ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi.

Bemalol aytish mumkinki, bugungi zamonaviy inson dunyosining surati asosan dinamik, statsionar emas, yangi ma’lumotlar ta’siriga ochiq. Uni yaratish uchun yetarlicha moslashuvchan fikrlash shakllanishi kerak, buning uchun asosiy fikrlash turi sifatida strukturani qayta qurish, tushunchalar mazmunini o‘zgartirish va uzluksiz ijodkorlik jarayonlari tabiiydir. Har qanday kompleks kabi rivojlanayotgan tizim, ta’lim tizimi mos ravishda ishlaydigan o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlariga ega umumiy tamoyillar sinergetika. Xususan, har qanday o‘z-o‘zini tashkil qilish tizimi murakkab, chiziqli bo‘lmagan, ochiq va stokastik tizim bo‘lishi kerak, ular ko‘p fikrlarga ega. Bu xususiyatlarning barchasi ta’lim tizimiga, shu jumladan muhandislik ta’limining quyi tizimiga xosdir. Shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi muhim fikrlar (masalan, ta’lim darajasi va universitet bitiruvchilariga bo‘lgan talab) sezilarli darajada kechiktiriladi. Madaniyatning rivojlanishi va biologik evolyutsiya o‘rtasidagi qiziqarli o‘xshashlikni olim D. Danin ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida fan va san’atning o‘zaro ta’siri haqidagi munozarada bergan. Uning aytishicha, tabiatga ergashib, fan va san’at madaniyat olamida evolyutsiyaning ikkita hal qiluvchi mexanizmi – umumiy tur irsiyat va individual immunitet funksiyalarini ajratdi. Ilm-fan butun insoniyat uchun yagonadir, dunyoni obyektiv bilish umumiy ahamiyatga ega. San’at hamma uchun har xil: o‘zini dunyoda yoki o‘zi orqali dunyoni bilish, har bir kishi o‘zining individualligini aks ettiradi. Fan, go‘yo irsiyatning konservatizmiga taqlid qilgandek, barcha uchun majburiy bo‘lgan tajriba va bilimlarni avloddan avlodga o‘tkazadi. San’at, immunitet kabi, odamlarning individual farqlarini ifodalaydi. Bu haqida I.Gyote ixchamroq aytdi: “Ilm – biz, san’at – men”.

Sinchiklab nazar solsak, mamlakatimizda biz hozirda bir qator sohalarda rivojlanishni ‘‘quvib yetish’’ mantig‘ida harakat qilmoqdamiz: samarali dizayn va ishlab chiqarish uchun global standartlar va amaliyotlar, axborot tizimlari, dizayn va muhandislikning bir qator yo‘nalishlari.

“Axborot portlashi” va jamiyatdagi tez o‘zgarishlar, texnosferaning doimiy yangilanishi muhandislik kasbi va muhandislik ta’limiga tobora yuqori talablarni qo‘ymoqda.

Xususan, zamonaviy davrning eng xarakterli xususiyatlaridan biri bu inson faoliyatining barcha jabhalarini – ijtimoiy, tashkiliy, texnik, ta’lim, rekreatsion va boshqalarni loyihalashning yetakchi rolidir. Ya’ni, vaziyatni asta-sekin kuzatib borishdan, inson o‘z kelajagini batafsil prognoz qilishga va uni tezda amalga oshirishga o‘tadi. Bunday amalga oshirish jarayonida, g‘oyalarni amalga oshirishda ushbu jarayonni tashkil etuvchi va eng yangi texnologiyalar asosida muayyan loyihani amalga oshiruvchi muhandislik faoliyatining o‘rni katta. Shu bilan birga, davlat va xalqlarning, shuningdek, shaxslarning o‘rni va farovonligi pirovard natijada yangi texnologiyalarning rivojlanishiga bog‘liq. Dizayn faoliyatidagi markaziy shaxs muhandis ekan, uning asosiy vazifasi ma’lum va yangi ishlab chiqilgan texnologiyalar tomonidan tejamkorlik bilan amalga oshiriladigan yangi tizimlar, qurilmalar, tashkiliy yechimlarni yaratishdir. Muhandislik faoliyatining tizimli tabiati muhandislik tafakkurining uslubini ham oldindan belgilab beradi, u tabiatshunoslik, matematik va gumanitar tafakkurdan formal-mantiqiy va intuitiv operatsiyalarning teng og‘irligi, keng eruditsiya, shu jumladan, nafaqat ma’lum bir fan sohasini, balki bilimlarni ham bilish bilan ajralib turadi. Iqtisod, dizayn, xavfsizlik muammolari va boshqalar. Bugungi kunda dizayn deganda zarur cheklovlarga – ekologik, texnologik, iqtisodiy va hokazolarga javob beradigan, oldindan belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi obyektlarni yaratishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Zamonaviy ma’noda esa “dizayn madaniyati” odamlarning ijodiy faoliyatining deyarli barcha tomonlarini – axloqiy, estetik, psixologik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Loyiha keng ma’noda odamlarning atrof-muhitni o‘zgartirish, nafaqat texnik, balki ijtimoiy, psixologik, estetik maqsadlarga erishishdagi faolligidir. Dizayn madaniyatining markazi yangi ma’lumotlarning funksiyasini belgilaydigan muhandislik faoliyati bo‘lib qoladi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, muhandis fan-texnika taraqqiyoti va dunyoni o‘zgartirishdagi asosiy figuradir.

Texnologik va axborot taraqqiyoti davrida muhandislik kasbining alohida roli yaxshi ma’lum, ammo zamonaviy muhandislik ta’limiga qo‘yiladigan o‘ziga xos talablar to‘liq shakllantirilgan emas. Ushbu talablar muhandislik faoliyatining tizimli tabiati va uni baholash mezonlarining ko‘p qirraliligi bilan belgilanadi: funksional va ergonomik, axloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik va ushbu faoliyatning vositachilik xususiyati.

Jamiyat rivojiga fan va texnika ta’sirining kuchayishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi, sayyoramizdagi odamlar soni, zamonaviy texnika va texnika imkoniyatlari bilan bog‘liq global muammolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Yangi muhandislik tafakkurining asosini shaxs va jamiyatning qadriyat munosabatlari, muhandislik faoliyatining maqsad-muddaosi tashkil etadi. Inson faoliyatining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, axloqiy mezonlar, insonparvarlik mezonlari asosiy mezonga aylanadi. Akademik N.N. Moiseev “ekologik va ma’naviy imperative” atamasini taklif qildi, bu odamlarni ommaviy qirg‘in qilish vositalarini yaratishga, atrof-muhitning buzilishiga olib keladigan har qanday tadqiqot, ishlanma va texnologiyani so‘zsiz ta’qiqlashni anglatadi. Bundan tashqari, yangi muhandislik tafakkuri turli jarayonlarning yaxlitligi, o‘zaro bog‘liqligi, muhandislik va boshqa faoliyatning ekologik,

ijtimoiy, axloqiy oqibatlarini bashorat qilish bilan tavsiflanadi.

Har bir mutaxassis uchun eng muhimi, bu haqiqatni anglashdir. Zamonaviy sharoitlar hayotning boshida barcha keyingi yillarda ishlash uchun yetarli ta'lim olish mumkin emas. Shuning uchun ham kasbiy sohada ham, faoliyatning boshqa sohalarida ham o'rganish qobiliyati, dunyo haqidagi o'z tasavvurini eng so'nggi yutuqlarga muvofiq qayta qurish qobiliyati eng muhim ko'nikmalardan biridir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish eski ta'lim texnologiyalari asosida mumkin emas va yangi texnik va dasturiy ta'minotni hamda ochiq, birinchi navbatda, masofaviy ta'limning yangi usullarini talab qiladi.

Muhandislik faoliyati – maxsus san'at sifatida, ya'ni rasmiylashtirilmagan texnikalar, ko'nikmalar to'plami sifatida, ijod obyektining sintetik ko'rinishi sifatida, noyob va shaxsiy dizayn natijasi sifatida – birinchi navbatda shaxsiy o'zaro ta'sirga asoslangan o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ko'pgina muhandis-o'qituvchilar xizmatni o'rganishni talabalarni muhandislik kontekstiga ta'sir qilish orqali dasturlarini takomillashtirishning bir usuli deb bilishadi, shuningdek, ularga professional va shaxslararo ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu qiymatlar muhandislik va texnologiyalar bo'yicha akkreditatsiya kengashi (ABeT) muhandislik maktablari uchun standartlarni, muhandislik dasturi uchun ABeT "o'z talabalaridan global, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sharoitda muhandislik yechimlarining ta'sirini tushunish uchun zarur bo'lgan keng ma'lumotga ega ekanliklarini namoyish etishni" talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 23-dekabr.

2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2016. –77-b.

3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. – M., Akademiya, 2009-y.

4. ABET, Muhandislik dasturlarini akkreditatsiya qilish mezonlari, Muhandislik akkreditatsiya komissiyasi Muhandislik va texnologiyalar bo'yicha akkreditatsiya kengashi., 2005.

Sadriddin XODJIBEKOV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqotlar universiteti, ‘‘Fizika va kimyo’’ kafedrasi dotsenti
Baxodirxo‘ja ISMOILXADJAEV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqotlar universiteti, ‘‘Ekologiya va suv resurslarini boshqarish’’ kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori

KIMYO DARSLARIDA GLITSERIN HOSILALARINI OLISH USULLARINI QIYOSIY O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada glitserin va uning hosilalari tibbiyot va qishloq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda glitserin hosilalariga, ayniqsa, glitserin hosilalari bo‘lgan 1,2-dialkoksi propan-3-dollar sinteziga qiziqish ortib bormoqda. Qishloq xo‘jalik ekinlarini zarar kunandalardan himoya qiluvchi kimyoviy vositalar asosan organik moddalarning turli sinflariga mansub birikmalardan (fosfor va organoxlor birikmalari, karboksilik kislotalar va fenollar, peretroid va boshqa kimyoviy sinflarning birikmalari) sintezlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Glitserin, qishloq xo‘jaligi, glitserinli hosilalar, kimyoviy moddalar, birikmalar, sintezlangan, organik moddalar, karboksilik kislotalar, kimyoviy sinflar.


В статье рассматривается, что глицерин и его производные имеют большое значение в медицине и сельском хозяйстве. В настоящее время возрастает интерес к производству глицерина, особенно к синтезу 1,2-диалкоккципропан-3-алларов, которые являются производными глицерина. Химические средства, защищающие сельскохозяйственные культуры от вредителей, синтезируют в основном из соединений, принадлежащих к разным классам органических веществ (соединения фосфорных и хлорорганических, карбоновых кислот и фенолов, соединения перетроидных и других химических классов).

Ключевые слова. Глицерин, сельское хозяйство, производным глицерина, химические средства, соединения, синтезируются, органические вещества, карбоновые кислоты, химические классы.


The article considers that glycerin and its derivatives are of great importance in medicine and agriculture. Currently, there is increasing interest in glycerol derivatives, especially in the synthesis of 1,2-dialkoccypropane-3-allars, which are derivatives of glycerol. Chemical agents that protect agricultural crops from pests are synthesized mainly from compounds belonging to different classes of organic substances (compounds of phosphoric and organ -chlorine, carboxylic acids and phenols, compounds of perethroid and other chemical classes).


Key words. Glycerin, agriculture, glycerol derivatives, chemicals, compounds, synthesized, organic substances, carboxylic acids, chemical classes.

Ma’lumki glitserin va uning hosilalari tibiyotda va qishloq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi vaqtlarda ularni yangi sintezlariga kam ahamiyat berilib kelindi. Hozirgi davrda glitserin hosilalariga, ayniqsa, glitserin hosilalaridan hisoblangan 1,2- dialkok-sipropan-3-ollar sinteziga e’tibor, qiziqish ortdi. Shuning uchun 1,2- dialkoksipropan-3-ollarning ikkita yo‘l bilan sintezlanishi o‘rganilib, ya’ni 1,2- dixlorpropan-3-olga alifatik spirtlarni ishqoriy muhitda ta’sir etkazib olish.




Hamda bu mahsulotni yana boshqa yo‘l bilan olish mumkin bo‘lib, ya’ni bevosita allil spirtiga galoid qatori vakillaridan bromni biriktirish orqali amalga oshirish mumkinligi isbotlanib, ammo bunda oraliq mahsulot hosil bo‘lmasdan vaholanki to‘g‘ridan-to‘g‘ri oxirgi kutilgan mahsulot sintezlanadi:






Glitserin hosilasi hisoblangan 1,3-dialkoksipropan-2-olni xuddi shunday sharoitda boshqa usul ya’ni, epoksi guruhini saqlagan epixlorgidrinni reaktiv sifatida qo‘llash mumkinligi aniqlandi.

Buning uchun epixlogidrin bilan alifatik spirt va fenollarning ishqor bilan ta’sirlanishi natijasida quyidagi reaksiya amalga oshishini kuzatish mumkin:





R=C5H11-.
R=C6H13-.

Olingan 1,2- dialkoksipropan-3-ol va 1,3- dialkoksipropan-2-ollarning ba’zi birlarini fizik-kimyoviy tadqiqot usullari infraqizil (IQ) spektri orqali tekshirilganda o‘z isbotini topdi ya’ni: 3400-3500 sm-1 (-ON), 1125 sm-1 (-S-O-S-) funksional guruhlari keng va o‘rta polasaga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan 1,2-dialkoksipropan-3-ol va 1,3-dialkoksi(aroksi, aloksi) propan-2-ollar qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan biologik faol pestitsid preparatlari – gerbitsid, fungitsid, akritsid va defoliant moddalarini sintez qilishda reagent sifatida qo‘llash mumkin.

Gerbitsidlar bilan ekinlarni begona o‘simliklardan himoya qilishda, asosan, kimyoviy birikmalarni eritma holida purkash usuli bilan ishlov beriladi va ayrim hollarda kimyoviy birikmalar granula yoki poroshok holida sepish yo‘li bilan ishlatiladi. Gerbitsidlar urug‘ ekish davrida, ekinlar unib chiqishidan ilgari va ekinlarni vegetatsiya davrida ishlatiladilar.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini va olinadigan mahsulotlarini zamburug‘lar, bakteriyalar va viruslar qo‘zg‘atadigan kasalliklardan himoya qiluvchi kimyoviy birikmalar fungitsid deb ataladi. Ko‘pchilik fungitsidlar bilan o‘simliklarga va yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ishlov berganda, ular fungitsidlik vazifasidan tashqari, o‘simliklarning o‘sishiga, rivojlanishiga va hosildorlikni oshirishga ijobiy ta’sir etishi qayd qilingan.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini, yetishtirilgan mahsulotlarni zararkunandalardan himoya qiluvchi kimyoviy moddalar, asosan, har xil organik moddalar sinfiga kiruvchi birikmalardan sintez qilinadi (fosfor va xlor organik, karbon kislotalar va fenollardan hosil bo‘lgan birikmalar, peretroid va boshqa kimyoviy sinflardan hosil bo‘lgan birikmalar). Anorganik moddalardan asosan oltin gugurt sintez qilingan birikmalar va mineral yog‘lar ishlatiladi.

Defoliantlar asosan, paxtachilikda, paxta terimi oldidan kimyoviy birikmalarni eritmasi bilan ishlov berib g‘o‘za bargini to‘kilishiga ishlatiladi. Defoliantlar bilan g‘o‘zaga ishlov berilgandan so‘ng 10-12 kundan keyin g‘o‘za bargi mumkin qadar ko‘proq to‘kilishi kerak. Defolinatsiya ta’sirida g‘o‘za barglari to‘kilishi natijasida, g‘o‘za ko‘saklari yaxshiroq rivojlanadi va tezroq pishadi, ko‘saklar to‘la ochiladi.

Yana bu birikmalarning afzallik tomoni shundaki, boshqa moddalar bilan oson ta’sirlashib 1,2-dialkoksipropan-3-olning hosilalarini ham olish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi talabalariga aynan 1,3-dialkoksi (aroksi,alkoksi) radikallardagi o‘zgarish ya’ni alifatik uglevodorod masalan (SN3O-) metoksi radikalda butaksi (S4N9O-), izo-butaksi (i-C4H9O-) ba’zi vaqtlarda aralash ya’ni alkoksi, aroksi (S4N9O-,S6N5O-) radikalga o‘zgarganda biologik faolligi qanaqa kamayadimi yoki ko‘payadimi degan savolga javob berishsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amaliyotda qo‘llaniladigan ko‘p pestitsid atsetanidlar asosan yuqorida bayon etgan dastlabki epoksi guruhlarini saqlovchi organik moddalar hosilasi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda epixlorgidrinning pentanol, geksanollar bilan hosilalari ko‘rsatilgan. 1,3-dipentoksipropan-2-ol;1,3-diizopentoksipropan-2-ol;
1,3-digeksooksipropan-2-ollarning xossalari

RO	Mahsulot % da	Qaynashi tº ,ºC	Brutto formulosi
C_5HO_{11}-	72	187-189	$C_{13}H_{28}O_3$
$C_5HO_{11}i$	70	208-210	$C_{13}H_{28}O_3$
$C_6HO_{13}i$	68	212-214	$C_{14}H_{30}O_3$

Demak, yuqorida bayon etilgan usullar bilan glitserin hosilalardan hisoblangan 1,2dialkoksipropan-3-ollar sintez qilinishi mumkinligi ko‘rib chiqildi. Epoksi guruhini saqlaganepixlorgidrin, pestitsid preparatlarini sintez qilishda reaktiv sifatida qo‘llanilishi qulay usul hisblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ларченко, Е.Ю. Биологически активные диметилсилиловые эфиры глицерина и их модифицированные производные / ЕЛО. Ларченко, Т.Г. Хонина // Химия и медицина: сборник материалов IX Всероссийской конференции. - Уфа, 2013. - С.80-81.

2. Larchenko, E.Yu. New hybrid chitosan-silicone-containing glycerohydrogels / E.Yu.Larchenko, E.V. Shadrina, T.G. Khonina, O.N. Chupakhin // Mendeleev Communications. - 2014. – V. 24. – P. 201-202.

3. Гейн, О. Н. Оценка острой токсичности и анальгетической активности этил-6-амино-4-арил-5-циано-2,4-дигидропирано[2,3-c]пиразол-3- карбоксилатов / О. Н. Гейн, Т. М. Замараева, В. Л. Гейн // Химикофармацевтический журнал. – 2019. – Т. 53, № 1. – С. 41-43.

4. Пат. 2653511 РФ. 4-метил-N-2,4-диметилфенил-6-(3-фторфенил)-2- тиоксо-1,2,3,6-тетрагидропиримидин-5-карбоксамид, проявляющий анальгетическое действие / В. Л. Гейн, Т. М. Замараева, Н. А. Бузмакова, Б. Я. Сыропятов, Н. В. Аликина. - № 2015131650; заявл. 02.02.2017; опубл. 10.05.2018, Бюл. 13.

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti,
“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti pedagogika fanlari nomzodi

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI DEONTOLOGIYASI VA KOMPETENTLIGI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kundagi o‘qituvchi deontologiyasi va kompetentligi, ta’lim tizimida pedagogik kompetentlikning zaruriyati, pedagogning kasbiy kompetentligi masalalari va ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Deontologiya, pedagogik odob, xulq, burch, majburiyat, qadriyat, kompetensiya, kompetentlik.

В статье раскрывается сущность вопросов профессиональной компетентности учителя, необходимость педагогической компетентности в системе образования, деонтология и компетентность учителя в современной педагогической деятельности.

Ключевые слова. Деонтология, педагогический этикет, поведение, долг, обязанность, ценность, компетенция, компетентность.

The article reveals the essence of the issues of professional competence of the teacher, the need for pedagogical competence in the education system, deontology and competence of the teacher in today's teaching activities.

Key words. Deontology, pedagogical behavior, duty, responsibility, respect, pedagogical competence, traditions.

Jahonda bo‘layotgan ulkan rivojlanishlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida shaxs ijodkorligining ahamiyati va mavqei sezilarli darajada yuksalishi ko‘pincha yangi innovatsion texnologiyalar va bunyodkor g‘oyalarning yuqori sur’atlar bilan ta’lim-tarbiyaga jarayoniga kirib kelishiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ta’limda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonda belgilangan vazifalar doirasida “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha Milliy Kengash tashkil etish, uning vazifalari orasida – o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sini ko‘tarish, o‘qituvchilarning moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash, samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratish” belgilangan. Shu bilan birgalikda, 2019-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonda belgilangan vazifalar asosida jahon talablariga muvofiq keluvchi, uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim sohasida olib borilayotgan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodi ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga hamda

ijtimoiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ega shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan. Bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatbardosh, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya sohasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar bu borada quyidagi ziddiyatlarning mavjudligini ko‘rsatmoqda:

– kasbiy faoliyatning turli yo‘nalishlarida talabalarning faol ta’lim olish shakllariga bo‘lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatining to‘laqonli qondirish lozimligi, shuningdek, pedagogik maslahat hamda psixologik yordam bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar mazkur yo‘nalishdagi o‘quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish uchun yetarli darajada kasbiy pedagogik malakaga ega emasliklari;

– soha mutaxassislarini kasbiy takomillashtirishda talabalar tomonidan ta’lim tamoyillari, mazmuni, metod va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi hamda bilim ko‘nikmalarining shakllanmaganligi;

– oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘quv rejalari va fanlari bloklararo va predmet doirasida integratsiyalashmaganligi. Shu bilan bir qatorda ta’lim-tarbiya tizimida ba’zi bir salbiy holatlar uchramoqdaki, bu holatlarning asosiy sabablaridan biri o‘qituvchilarning professional madaniyatining pastligi, pedagogik taktikaning yo‘qligi va o‘z kasbiy burchini yetarli darajada bajara olmasligi hamda o‘smirlarning individual xususiyatlarini bilmasligidir. Shu sababli bugungi zamonaviy o‘qituvchi professional kompetentlikka ega shaxs sifatida o‘z kasbiy burchini anglagan holda ta’limda yosh avlod tarbiyasida faol qatnashishi lozim.

Maqsad: Bugungi uzluksiz ta’lim tiziminida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ish uslublarini yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasiga moslashtirish, ta’lim sifatini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish hamda ularning o‘z vazifalarini bajarishda odob, axloq qoidalariga rioya qilish madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

“Deontologiya” so‘zi deontos – “shart”, “burch”, logos, “ta’limot” degan ma’noni anglatadi, ingliz faylasufi J.Bentxam mazkur tushunchani ilmiy asoslagan. Asosan, deontologiya fani rivojlanishi nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) bilan bog‘liq. I.Kant etikasi – bu burch etikasidir. Faylasuf fikriga ko‘ra, inson odob-axloqi noma’lum axloqiy qonunlarda ifodalangan bo‘ylib bu qonunlarni inson bajarishi talab etiladi

Deontologiya – tushunchasi kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq normalari haqida nazariy jihatdan tushuncha beradi. Xususan, meditsina, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob, axloq normalari mavjud. Deontologiya tushunchasi har qanday kasbiy sohaga tegishlidir, jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik va boshqalar. Pedagogik deontologiya fanlari va o‘z faoliyati sohasida o‘qituvchining xulq-atvori qoidalari va normalarini ishlab chiqadi.Tadqiqotchi K.M.Levitan ta’kidlaganidek, “kasbiy normalar ma’lumotlar har doim tarixiy va o‘ziga hos bo‘lib, o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgan"[1]. Real hayot sharoiti va talablariga muvofiq odatlar va tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan. U quyidagi tarixiy misollarni ko‘rib chiqadi o‘z rivojlanishida o‘qituvchining o‘rni haqidagi g‘oyalarni aniqlashtiradi, davlat va shaxs o‘qituvchi va uning kasbiy talablari xatti-harakatlarini o‘rganadi.

[1] Betman J Deontology together with a tube a table of the springs article of Utilitarizm-Oxford:Clarenden Press 1983 p 121.

O‘qituvchining qanday xususiyati va xulq atvorga ega bo‘lishi lozimligi yuzasidan xorijiy olimlar ham o‘z fikr va qarashlarini bildirgan.Jumladan, Aristotel (“Afina siyosati”) kitobida yoshlarni jismoniy tinchlantirish, qullar mehnatini mensimaslik ruhida tarbiyalash uchun o‘qituvchilar kerak edi, deb yozadi.

Kvintilian (“Notiqlik tarbiyasi to‘g‘risida”)gi kitobida “bolalarni sevadigan, tushunadigan oliy ma’lumotli, vazmin, xushmuomalali, axloq namunasiga ega bo‘lgan kishigina o‘qituvchi bo‘la oladi”, deb ta’riflaydi.

Pestalotsi I.G (XVIII-XIX asrlar) “haqiqiy ma’rifatparvarlikni har qanday bolada ko‘rish uchun hoxishlar (hatto jismoniy va ma’naviy jihatdan to‘liq bo‘lmagan) ijobiy ahloqiy formulalarni ularda shakllantira olasiz, ular jamiyatda foydali bo‘lib yetishadi”.

Gersen A.I, Dobrolyubov N.G, Chernishevskiy N.G (XIX asr) rus sotsial demokratlari vakillari, “o‘qituvchining faoliyati, huquqlarini chuqur hurmat qilishi va bolaning qadr-qimmati, unga mustaqillik berishi oqilona rahbarlik qilishi kerakligi”ni uqtirganlar.

Pushkin A.S u o‘z ustozi haqida juda iliq gaplar yozadi: “Tessore A.R Kimstine: “u bizni yaratdi, bizning rejalarimizni amalga oshirdi, u tamal toshini qo‘ydi va kuygan chiroq o‘rniga toza chiroqni qo‘ydi”.

Amerkalik pedagogik olim Aleks Mur “Yaxshi o‘qituvchi qanday bo‘ladi?” degan savolga o‘qituvchining “xorizmatik”lik kompetentligi g‘oyasini olg‘a suradi. “Bu odatda o‘qituvchi o‘zining hayotiy tajribasidan yoki ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda sodir bo‘lishi mumkin – degan fikrni bildiradi. Demak, bu yerda har bir o‘qituvchining ko‘p qirralarini qobiliyatlilik tushunchasi o‘qituvchi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutaffakkirlari ham o‘z asarlarida ham mudarrislik kasbining nozikligini, mas’uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo‘yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bildirganlar. Uyg‘onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamahshariy, Shayx Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo‘lajak murabbiylarga muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o‘tib, o‘z qimmatini yo‘qotmagan mudarrislarni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va zaminning gullab yashnashi faqat ta’lim va tarbiyaga bog‘liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va g‘ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo‘lib kelgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-930) O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni o‘rgatuvchi o‘qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim, chunki “har bir bola o‘zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi, unga buning uchun o‘qituvchi lozim”[2]. Ta’lim va tarbiya berishda “...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko‘ngilli bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va

[2] Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. T.:, “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti,1993-y,12- bet.

u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o‘qituvchi bolalarning fe’l-atvoriga qarab ta’lim-tarbiyaning “qattiq” yoki “yumshoq” usullaridan foydalanishi mumkin” deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qo‘yadi:

Birinchi yo‘l – tarbiyalanuvchilar o‘qish va o‘rganishga ishtiyoqmand bo‘lsalar ta’lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo‘llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so‘zlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o‘quvchiga ko‘nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada, o‘quvchining iqtidori uyg‘onib, g‘ayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

Ikkinchi yo‘l-tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya’ni majburlovchi usullar qo‘llaniladi. Bu asosan gapga ko‘nmovchi ba’zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o‘quvchi nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo‘lib, kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb hunar ahillariga aylantirishdir.

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy XV asrda yashab ijod qilgan. U o‘z asarlarida insonning yuksak axloqiy hislatlarini, go‘zal fazilatlarini e’tirof etadi. ‘‘Iskandar hirod-nomasi” asarida muallimlar to‘g‘risida noyob fikrlarni bildirgan: “muallim aqlli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi”. Shoir muallimning hayotdagi o‘rnini quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o‘ziga ta’lim va tarbiya bergan ustozini, o‘qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e’zozlashi kerak. O‘qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o‘lchab bo‘lmaydi:

Haq yo‘linda kim senga, bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Mustaqillik yillarida o‘qituvchi kasbi odobi axloqi yo‘nalishida ko‘plab ilmiy maqolalar va monografiyalar yaratgan prof. M.Ochilov o‘qituvchi odobi haqida shunday deydi: “O‘qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikri, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar o‘qituvchining dars berish jarayonida tarbiyaviy ishlarida o‘quvchilar ota – onalar va boshqa kishilar bilan muomila munosabatlarida kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta’sir o‘tkazishda ko‘zga tashlanadi, o‘qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy ahloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi, insonparvarlik, rostgo‘ylik poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o‘qituvchi odobiga pedagogning faoliyati bilan tahlil qilinadi”.

Ma’lumki, barcha davrlarda ham o‘qitish mazmuni, ta’lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o‘zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro‘y berayotgan ijtimoiy islohotlar barchasi ma’lum darajada ta’lim mazmunida o‘z aksini topadi. O‘zbekiston Respublikasida 2020-yilda yangi tahrirda “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilinishi uzluksiz ta’lim tizimida yangi bir qator vazifalarni amalga oshirishga zamin yaratildi.

Mamlakat kelajagi barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimga insonlarga bog‘liq. Shu bois, oxirgi to‘rt yilda ta’lim sifatini yaxshilash o‘qituvchilar mavqeni yuk-saltirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz yangi davrga qadam qo‘ymoqda. “O‘zbekiston 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”ning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi aynan ta’lim sohasida inson kapitalini rivojlantirishga qaratil-

gan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu hayot-mamot masalasi ekanini ta’kidladi: “Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Bunga barcha e’tiborimiz va resurslarimizni safarbar qilamiz. Qiyin yo‘lni tanlayapmiz lekin shu yo‘l muammolarni yechadi” dedi. Endilikda “O‘zbekiston 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” asosida belgilangan vazifalar doirasida xalq ta’limining tizimli rivoji uchun byudjetdan 300 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi, yangi qurilish talablaridan kelib chiqib yangi maktablar qurilishiga e’tibor qaratiladi, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimli isloh qilinadi, darsliklarning yangi avlodi shakillantiriladi, maktab o‘quv yuklamalari qayta ko‘rib chiqiladi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport va san’at bilan shug‘ullantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchilarning deontologiyasi ularning kompetentlikligi bilan “Kompetensiya – bir kishining vazifalari huquqlari doirasi” – deydi S.I.Ojegov o‘zining “Словарь русского языка” lug‘atida. “Kompetentlik” esa shaxsiy amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etishi mahoratidir”.

Zamonaviy o’qituvchining kompetentligi komponentlari:

(1-rasm)

Bilimdonlik, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunakativlik, yuksak ma’naviyatlilik, nazoratni o‘z vaqtida o‘rnatishi, o‘z hissiyotini jilovlay olish, g‘oyaviy siyosiy bilim.	Tashabbuskorlik, yuqori imij, aktyorlik, notiqlik, mahorati, qaror qabul qilishga variativlik, qonun doirasida ishlash, yetakchilik qobiliyati, sadoqatlilik.	Kasbiy refleksiya mehnatga ijodiy munosabat,bir so‘zlilik, yangilanishlarni tez qabul qilish, natijani oldindan ko‘rish ma’suliyatlilik, qat’iyatlilik.

G‘oyaviy siyosiy bilim mukammal bilim, qobiliyat, kreativ tafakkur tashqi kommilik, halollik, adolatlilik, tashabbuskorlik, kommunikativlik, insonparvarlik, yangliklarni tez qabul qilish, mehnatga ijodiy yondashuv, kasbiy refleksiya, yuqori imij, tanqidiy fikrlash, pedagogik deontologiya aktyorlik mahorati va boshqalar. professor A.Musurtonova fikriga ko‘ra “mazkur kompetentlik komponentlari zamonaviy o‘qituvchining yutug‘ini kafolatlaydigan mezonlar hisoblanadi”.

Pedagogik komptentlikning muhim tarkibiy asoslari:

(2-rasm)

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish)	Ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish
Shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish o‘z-o‘zini namoyon qilish	Individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mehnat bozorida yuzaga keladigan raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy deontologik kompetentlik sifatlarini tarkib toptirishni asosiy vazifa vazifa sifatida belgilashi lozim;

1. O‘qituvchi yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon

eta olishi zarur;

2. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va kasbiy bilimlarini ta'minlash zarur;

3. Pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda komunikativ) shaxsiy, texnologik va ekstmal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi;

4. Yoshlarimizning taqdiri Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ta'lim tarbiya uchun mas'ul bo'lgan, o'z burchi va vazifalariga mas'uliyatlilik bilan yondashadigan pedagoglarga bog'liqdir;

5. Bugungi ta'lim – tarbiya samaradorligi o'qituvchi pedagogning deontologik kasbiy kompetentligiga bog'liq, shu sababli o'qituvchi o'zini kompetensiyaviy yo'nalishini refleksiya qilib borishi lozim;

6. O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilim saviyasini refleksiya qilgan holda dual ta'lim tizimiga etibor berishi maqsadga muvofiqdir;

7. O'qituvchi va o'quvchi talabalarning deontologik tayyorgarligi ta'lim tarbiya jarayoni sifatini oshiradi;

8. Professor – o'qituvchilar o'z shogirdlariga deontologik talablarni uzluksiz singdirib borishlari maqsadga muvofiqdir;

9. Pedagog qalbidagi mehrni shogirdlariga ko'rsata olishi hamda o'z kasbiy burch va mas'uliyatni anglagan holda pedagogik mahoratini oshirib borishi bugungi jamiyatning asosiy talabi hisoblanadi bu esa barkamol avlodni tarbiyasini yanada yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-27-sentyabrdagi O'RK-637-son qonuni qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 24.09.2020. 03/637/1313 son.

2. Mirziyoyev Sh.M.maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar 2022.28 yanvar videoselektr yig'ilishi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 28 yanvar 2022-y.

3. Bentham J. Deontology// Bentham J. Deontology together with a table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p 124.

4. El'konin B.D Ponyatie kompetentnosti pozitsiya razvivayuщego obucheniya M. 2002

5. Ojegov S.I. Slovar russkogo yazika russkiy yazik. C.1999 248.

Xurliman QDIRBAEVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD)

HAMKORLIKDAGI FAOLIYATNI TASHKIL ETISH ASOSIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimining barcha tizimlarida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish orqali ijtimoiy intellektni rivojlantirish mumkinligi haqida pedagog va psixolog olimlarning nazariy qarashlari bayon etilgan. Hamkorlik pedagogika yordamida o‘quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha pedagog va psixolog olimlarning qarashlari keltirilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq tashkil etish bola shaxsida ijtimoiy intellektning rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxslararo munosabatlar, hamkorlik, ijtimoiylashuv, interfaol, shaxs va faoliyat.

В этой статье излагаются теоретические взгляды ученых-педагогов и психологов на то, что социальный интеллект можно развивать, организовывая совместную деятельность во всех системах непрерывного образования. Сотрудничество представлены взгляды ученых-педагогов и психологов на развитие социального интеллекта у учащихся с помощью педагогики. Также было заявлено, что целенаправленная организация совместной деятельности учащихся с педагогической точки зрения оказывает положительное влияние на развитие социального интеллекта в личности ребенка.

Ключевые слова. Межличностные отношения, сотрудничество, социализация, интерактив, личность и деятельность.

This article presents the theoretical views of scientists, educators and psychologists that social intelligence can be developed by organizing joint activities in all systems of continuing education. The article presents the views of scientists, teachers and psychologists on the development of social intelligence in students with the help of pedagogy. It was also stated that the purposeful organization of joint activities of students from a pedagogical point of view has a positive impact on the development of social intelligence in the child's personality.

Key words. Interpersonal relationships, collaboration, socialization, interactive, personality and activity.

Xorijiy ta’lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o‘qitish (“cooperativ learning”) an’anaviy ta’limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro mas’uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o‘zaro birgalikdagi harakatiga individual mas’uliyati va yo‘nalganligini ta’minlaydi.

O.L.Balashov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari xorijlik tadqiqotchilar etnik mansubligi, ijtimoiy tabaqasi, dini, yoshi; guruhning barcha a’zolarini faollashtirish (tenglik tamoyili), bir nechta guruhlarning bir paytdagi o‘zaro harakatini tashkil etish (S.Kagan) asosida hamkorlikdagi guruhlarni shakllantirish masalasini hal etishga urinishgan. Ana shu tarzda xorijda o‘quv hamkorligi o‘quvchining ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyatida ularda maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro hara-

kat va o‘zaro mas’ullik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan aloqadorlikda talqin qilingan. Biroq o‘quvchining individualligini rivojlantirishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida o‘quv hamkorligining imkoniyatlari to‘liq asoslanmagan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (N.Dejnikova, D.Jonson va R.Jonson, R.Slavin, D.Mesh va E.D.Xolubek va boshqalar) shuni ko‘rsatdiki, hamkorlik guruhiy va jamoaviy ish shakllarini tashkil etishda subyektlarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatda qo‘yilgan maqsadga samarali erishishini ta’minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida hamkorlar o‘zaro yordam, faol hamkorlik tamoyillari asosida o‘quv-bilish faoliyatida o‘zaro birgalikda harakatlanishadi. Shuning uchun hamkorlik o‘zaro javobgarlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, o‘zaro hurmat, o‘zaro samimiylikni talab etadi. Faol hamkorlik natijasida o‘quvchilarda ta’lim-tarbiya jarayonida ongli va faol ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-maishiy vazifalarni hal etish malakalari tarkib topadi.

Hamkorlik pedagogikasi – an’anaviy o‘qitishdan farq qilib, bola bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga qaratiladi. “Men” o‘rniga “Biz”, ya’ni hamkorlikda – “subyekt” – “subyekt” munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili o‘quvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O‘quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so‘ngra uni bajarish uchun bolada o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o‘z xohish-irodasini yagona maqsadga – ta’lim olishga yo‘naltiradi.

N.Dilovaning fikricha, hamkorlikka asoslangan pedagogika o‘qituvchi hamda o‘quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo‘lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo‘ladi. Yangi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyati ta’minlanadi. Bu maqsad – o‘quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo‘shimcha ijodiy natijani qo‘lga kiritishga o‘rgatishdan iborat. Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham, hamkorlik pedagogikasi ta’lim jarayonida qo‘llash uchun o‘quv materiallariga ishlov berishda yangi ta’lim metodlaridan foydalanadi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajribasinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar shular jumlasidandir.

“Hamkorlik” tushunchasi zamonaviy insonparvarlikka yo‘naltirilgan pedagogikaning yetakchi tushunchasini o‘zida ifoda etadi. Hamkorlik – eng umumiy ma’noda kishilarning mehnatdagi o‘zaro harakati, ya’ni ularning birgalikdagi faoliyatidir.

Hamkorlik o‘zida birgalikdagi faoliyatning asosiy belgilarini aks ettiradi. Bularga maqsadning birligi, ishtirokchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashi, yaxlit jarayonni alohida o‘zaro aloqador qismlarga taqsimlanishi, ularning ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanishi, individual faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqaralishi, yagona yakuniy natijaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi.

O‘zaro birgalikdagi harakat o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishi va namoyon etishini faollashtirishning asosiy usullaridan biridir. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida o‘quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlari yanada, ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bir-birini to‘ldirib borish orqali ular rivojlanishning sifat jihatdan yangi darajasiga erishadi.

V.V.Davidov maktabdagi o‘zaro munosabatlarning barcha shakllari umumiy xarakter kasb etadi va nafaqat “bola-katta kishi”, balki “bola-bola” munosabatlari orqali boshqariladi. Shuning uchun uyg‘un xulq-avtor me’yorining samaradorligi yaxlitlikda sinfnigina emas, bir paytning o‘zida guruhiy emotsional qo‘llab-quvvatlashda aks etuvchi kichik guruhlarda ishlashni talab etadi.

O‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq tashkil etish bola shaxsini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Shaxs va faoliyat sub'ekti sifatida insonning maktab davridagi rivoji quyidagi jihatlarni hisobga olishni talab etadi:

1) intellektni rivojlantirish;

2) emotsional sohani rivojlantirish;

3) stresslarga barqarorlikni tarkib toptirish;

4) o‘z-o‘ziga ishonchni qaror toptirish;

6) olamga ijobiy munosabat va boshqalarni qabul qilishni rivojlantirish;

7) o‘z-o‘zini takomillashtirish va rivojlantirishga motivatsiya hosil qilish.

Mazkur holatda o‘quv motivatsiyasini rag‘batlash o‘z-o‘zini rivojlantirishning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

I.A.Zimnyaya tomonidan tavsif etilgan “hamkorlik” tushunchasi orqali bolalar va kattalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati, o‘zaro bir-birini tushunish orqali jipslashish, bir-biriga ma’naviy yaqinlik, faoliyatni amalga oshishi va natijalarining birgalikdagi tahlil etilishi tushuniladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘quvchilarning malaka talablariga qo‘yiladigan yangi talablarda ta’lim-tarbiya natijalari aniq belgilab berilgan. Ana shunday talablardan biri metapredmetli natijalar bo‘lib, o‘qish va hamkorlikda o‘rganish ko‘nikmalarini shakllanishini taqozo etadi. Shuningdek, yangi malaka talablarida rejalashtiriladigan natijalar haqida ham fikr yuritilgan. Aniq aytganda, mazkur natijalar kommunikativ universal o‘quv harakatlari bilan bog‘liqlikda ifoda etilgan. Kommunikativ o‘quv harakatlari asosida o‘quvchilar turli fikrlarni hisobga olishni, hamkorlikda xilma-xil nuqtai nazarlarni o‘zaro muvofiqlashtirish; qiziqishlarning mos kelishi vaziyatida birgalikdagi faoliyatda umumiy yechimlarga kelishga erishish ko‘zda tutiladi.

V.Petrovaning “Darsda pedagogik hamkorlik o‘qitishni faollashtirish va o‘quvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida mavzusidagi dissertatsiyasida hamkorlik nazariyasi nuqtai nazaridan yondashganda o‘quv jarayonida tarkibsizlik mavjud bo‘lmasligi, shunga ko‘ra, bo‘shliq hamkorlikning asosiy predmeti hisoblanishi hamda bo‘shliq, tasodifiylik, tashkillashtirishning buzilishi faqat buzuvchi emas, balki muayyan vaziyatlarda o‘zida birlashtiruvchilik, konstruksiyalovchilik imkoniyatlarini ham mujassamlashtirishi haqidagi g‘oyalarni keltiradi.

Xorijlik olimlarning tadqiqotlarida “hamkorlik” va “raqobat” o‘quvchilarning faoliyati maqsadi sifatida e’tirof etilgan. D.B.Millerning qayd etishicha, hamkorlik vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo‘lib, guruhlarga taqsimlangan o‘quvchilarning hammasiga vazifalar bo‘lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a’zosi yaxlit tarzda qo‘yilgan maqsadgi individual erishishi talab etiladi.

Pedagogika va yosh davrlari psixologiyasiga doir adabiyotlarda hamkorlikdagi faoliyat individlarning o‘zaro birgalikdagi harakati faolligining tashkiliy tizimi sifatida talqin qilinadi. Uning asosiy farqli jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– faoliyatga doir harakatlar, axborotlar va natijalarni almashinuvini talab etuvchi

ishtirokchilar o‘rtasida bevosita ishbop aloqalarni o‘rnatish imkoniyatini yaratuvchi bir makon va vaqtda ularning ishtirok etishi;


– hamkorlikdagi faoliyatda yagona maqsadning mavjudligi, ishtirokchilarning yaxlit natija haqidagi tasavvurni har birining anglab yetishi;

– pedagog yoki hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilarning mazkur jarayonga rahbarlik qilishi, ular o‘rtasida rahbarlik funksiyalarining taqsimlanishi;

– ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida funksiyalarning taqsimlanishi, faoliyat maqsadi, mazmuni, vositalarning o‘ziga xosligi va natijaga erishish shartlarining o‘zaro bog‘liqligi.

Hamkorlikdagi faoliyat tuzilmasini rasm ko‘rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasmga qarang).

Faoliyat nazariyasi bilan bog‘liqlikda hamkorlikdagi faoliyat qator tarkibiy asoslarni o‘z ichiga qamrab oladi: umumiy maqsad, vazifalarning o‘ziga xosligi, ishtirokchilarning motivlari, rejalashtirish, qarorlar qabul qilish, hamkorlikdagi harakat, natija va uni baholash.



1-rasm. O‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tuzilmasi

Hamkorlikdagi faoliyat tuzilmasining markaziy komponenti uning maqsadi hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyatning umumiy maqsadi sifatida odatda faoliyatning guruhiy subyektlari intiladigan ideal tarzda taqdim etilgan umumiy natija qaraladi. Hamkorlikdagi faoliyatning psixologik tuzilmasining yana bir muhim komponenti ishtirokchilarni birgalikda harakatga undovchi umumiy motivlar sanaladi. Hamkorlikdagi faoliyatning joriy vazifalarini bajarishda o‘zaro birgalikdagi harakat va samarali faoliyatning natijasi yuzaga keladi. Hamkorlikdagi faoliyatning umumiy tuzilmasiga shuningdek, yakunida ishtirokchilar erishadigan pedagogik natija ham kiradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, pedagogik natija hamkorlikdagi faoliyat jarayonida o‘quvchilar tomoni-

dan qo‘lga qiritilgan natija bilan bir xil bo‘lmaydi. Hamkorlikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisining refleksiyasi erishilgan natijani baholash vaziyatida muhim o‘rin tutadi.

O‘quv materiallarini strukturalashtirishga doir maxsus pedagogik tadqiqotlarda o‘quvchining biror-bir faoliyatni amalga oshirish jarayoni va uning natijasiga boshqa kishilar ijobiy (fasilitatsiya) yoki salbiy (ingibitsiya) ta’sir ko‘rsatishi bir necha marta qayd etilgan. Asosiysi, bu nafaqat bir fan, balki tom ma’noda pedagogik natijaga tegishlidir. Shuning uchun boshqa kishilar ishtirokida amalga oshiriladigan individual faoliyatni ham hamkorlikdagi faoliyat sifatida qarash mumkin. Pedagogika va psixologiyaga doir tadqiqotlarda mazkur mexanizm maxsus atamalar bilan qo‘llaniladi: “ijtimoiy fasilitatsiya” va “ijtimoiy ingibitsiya”. Shaxs ijtimoiy xulq-atvorining mazkur o‘ziga xosligi individning harakatlariga boshqa kishilarning ham aloqasi borligi haqidagi psixologik-pedagogik ta’sirning mavjudligidan dalolat beradi.

Odatda, ta’limda fasilitatsiya/ingibitsiya mexanizmlar faoliyatini o‘rganish va tavsiflashda mutaxassislar kishilarning faollik darajasi va hamkorlik jarayonidagi real ishtirok etishidan qat’iy nazar, o‘quv-tarbiya jarayonida muayyan oqibatalarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlab o‘tishadi. Zamonaviy fandagi ijtimoiy fasilitatsiya/ingibitsiya obyektiv hodisasi individual va ijtimoiy psixologiyaning turdosh sohalari hisoblanadi. Har qanday holatda ham pedagogika va ta’lim amaliyoti uchun mazkur hodisalar katta ahamiyatga ega hamda tadqiqotchi va amaliyotchilarga katta qiziqish uyg‘otadi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, ijtimoiy fasilitatsiya/ingibitsiya hodisalari allaqachon fanga ma’lum bo‘lsada, ta’lim amaliyotida mutaxassislar tomonidan yaqin orada qo‘llanila boshlandi. Respublikamizda mazkur hodisalarni pedagogik mohiyatini talqin etishni dastlab R.G.Safarova, so‘ngra B.X.Xodjaev tadqiq etgan bo‘lsa, L.X.Bektursinova maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rgangan.

Olimlar Ch.Bond va L.Tituslar pedagogika nazariyasi va ta’lim amaliyoti nuqtai nazaridan ijtimoiy fasilitatsiya/ingibitsiyaning samarasi yuqori ekanligini to‘liq bayon etishgan. “Meta-analiz” metodi asosida nazariy tadqiqotlarga tayanib, empirik tadqiqotlarni o‘tkazgan ko‘plab mualliflarning fikricha, boshqa kishilarning faoliyat jarayonida ishtirok etishi haqidagi quyidagi xulosalarga kelishgan:

“...shaxsning fiziologik qo‘zg‘alish darajasini oshiradi (bu faqat murakkab vazifalarni bajarish jarayonida yuzga kelsa ham);

oddiy vazifalarni bajarish tezligini oshiradi va murakkab topshiriqlarni bajarish tezligini pasaytiradi;

murakkab harakatning aniqligini kamaytiradi va oddiy harakatning aniqligini bir oz oshiradi”.

Hamkorlikdagi yoki jamoaviy faoliyat mexanizmlarining tarbiyaviy ta’sirini tushunish uchun uning turli variantlari – tashkiliy shakllarini tasniflash zarur. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish shakllarini tasniflash alohida metodik topshiriqlarni samarali strukturalashtirish hamda o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini bosqichma-bosqich ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, tasniflash taklif etilayotgan vazifa bo‘yicha tashkiliy-metodik yechimlarni strukturalashtirish orqali hamkorlikda hal etiladigan ijodiy vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishni hisobga olgan holda ta’limiy faoliyatni tashkil etish imkoini beradi.

Hozirgi vaqtda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning uchta asosiy shakli ajratib ko‘rsatiladi. Odatda, ular mashhur psixolog va pedagogik L.I.Umanskiy tomonidan taklif etilgan atamalar bilan nomlanadi: “birgalikda-individual”, “birgalikda-ketma-ket”, “birgalikda-o‘zaro harakatlanuvchi”. Tabiiy ravishda mazkur nomlanishlar shartli bo‘lib,

biroq shuni qayd etish kerakki, ular hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning har bir shaklining o‘ziga xosliklarini o‘zida aniq aks ettiradi.

Hamkorlikdagi faoliyatning birgalikda-individual shakli eng oddiy ko‘rinishga ega. Uni tashkil etish mexanizmining mohiyati shundaki, umumiy, jamoaviy natijaning bir qismi sifatida ishtirokchilarning har biri o‘zining ijodiy ishini taqdim etadi.

Odatda, hamkorlikdagi faoliyatni o‘rganadigan mutaxassislar umumiy g‘oyaning mavjud emasligiga hamma vaqt ham e’tibor qaratishmaydi. G‘oya mavjud bo‘lib, ishni boshlashdan avval kelishib olingan bo‘lsa, o‘quvchilar turli darajaga muvofiq uni hisobga olish imkoniyaga ega bo‘lishadi, biroq u pedagogning rejasida o‘z aksini topgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, avvalida hech qanday reja yoki umumiy g‘oya mavjud bo‘lmasligi mumkin, yakuniy bosqichda har bir ishtirokchi tomonidan olingan natija umumlashgan tarzda yaxlit ko‘rinishda taqdim etilishi mumkin.


Pedagogik munosabatlarda faoliyatni tashkil etishning birgalikda-individual shaklini amalga oshirishning uch varianti ham muhim hisoblanadi. Birinchisida o‘zining ishini umumiy g‘oya va boshqalarning faoliyati bilan uyg‘unlashtirishni hisobga olish talab etiladi, ikkinchisida individual faoliyat nihoyasida yangi umumlashgan yaxlitlikni hosil qilish orqali ishda integrallashgan element kiritiladi. Kreativlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan uchinchi variant improvizatsiya elementlarini o‘zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlikdagi faoliyatning navbatdagi shakli shartli ravishda “birgalikda-ketma-ket” deb nomlanadi. Uni obrazli qilib aytganda, sport estafetasi yoki ishlab chiqarish jarayoniga qiyos qilish mumkin. Faoliyatni tashkil etishning mazkur shaklining nomlanishi va keltirilgan misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur holatda bir ishtirokchining natijasi, keyingisining faoliyat predmetiga aylanadi va shu tariqa uzoq davom etishi mumkin (ishtirokchilar soni bilan bog‘liqlikda). Pedagoglar ko‘pincha bu ishlab chiqarish jarayoni bilan mazkur modelni uyg‘unlashtirib bo‘lmasligidan tashvishga tushishadi. Chunki u aniq algoritmga asoslanganligi uchun ijodiy imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini bermaydi. Biroq ta’lim amaliyoti va tadqiqotimiz natijalari o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning mazkur shaklidan butunlay voz kechish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy intellektni rivojlantirish, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash hamda jamoaviy ijodiy faoliyatini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda faoliyatni tashkil etishning mazkur shakli yaxshi samaradorlikka egadir.

Ko‘pchilik mutaxassislarning ta’kidlashicha, tashkil etish va amalga oshirish nuqtai nazaridan eng murakkabi hamkorlikdagi faoliyatning birgalikda-o‘zaro harakatlanuvchi shaklidir. Uni amalga oshirish jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro harakatini jamoaviy ishning barcha – faoliyatni loyihalash va tuzatish kiritishdan, ishni yakunlash, refleksiya va natijalarni tahlil qilishgacha bo‘lgan bosqichlarda muvofiqlashtirib borish talab etiladi. Shuning uchun hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning birgalikda-o‘zaro harakatlanuvchi shakli nafaqat fanning o‘ziga xosliklari, balki birinchi navbatda, ishtirokchilar soniga ko‘ra, variativ tarzda amalga oshiriladi. O‘zaro birgalikdagi harakatning nisbatan oddiy varianti – juftliklarda ishlash bo‘lsa, murakkab ko‘rinishini katta guruhlarda ishni tashkil etishdir.

2-rasmda ko‘rsatilganidek, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning xilma-xil shakllarida ishtirokchilarning o‘zaro harakatini tavsiflovchi jarayonlar o‘quvchilarning birgalikdagi samarali faoliyatini xilma-xil shakllarda tashkil etishni aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning asosiy shakllarini

o‘zaro tutashgan qismlari ularni ajratishning shartli tavsiyaga egaligini ko‘rsatadi. Mazkur chizmaning maqsadi – hamkorlikdagi faoliyat sharoitida o‘quvchilarning tengdoshlari bilan amaliy ishlarini tashkil etishda mo‘ljalni olish imkonini beradi. O‘zaro birgalikdagi harakatni tashkil etishning mazkur shakllari universal tavsifga ega bo‘lib, faoliyatning turi va ko‘rinishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas. Ular o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning o‘yin, o‘quv-biluv, tasviriy, musiqiy, sport, teatrlashtirilgan faoliyat mazmuniga muvofiq amalga oshiriladi.



2-Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning turli shakllarida o‘zaro birgalikdagi harakat mazmuni

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikdagi samarali faoliyat imkoniyatlaridan foydalanish o‘quvchilarning ijobiy ijtimoiylashuvini tashkil etishga juda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hamkorlikdagi faoliyat mas'uliyatlilik, javobgarlik, daxldorlik, hamdardlik kabi ijtimoiy-yo‘naltirilgan sifatlarni tarbiyalash imkonini beradi, hamkorlikda, komandada ishlash, kommunikabellik, liderlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балашов О.Л. Развитие сотрудинчество школьников учебно-познавательной деятельности в условиях классного сетевого сообщества: дисс. …канд. пед. наук. – Курск, 2017. – С.185.

2. Дежникова Н.С., Первин И.Б. Товарищеская взаимопомощь школьников. – М.: Педагогика, 1991. – С.112.

3. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J. M. Spector, M. D. Merrill, J. van Merrienboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – P. 1017-1044.

4. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 2008. – P. 532-538.

Patmaxon ABDUQODIROVA,
Andijon davlat universiteti,
Pedagogika instituti, “Informatika va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Dilfuza MAXMUDOVA,
Chirchiq davlat universiteti pedagogika fanlari doktori (DcS).

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ALGORITMIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish, algoritmlarni o‘rgatish faoliyatini joriy etish va ushbu faoliyatni qo‘llash jarayonini o‘rganish yoritilgan. Algoritm tushunchasi, algoritmik kompetensiyalar va algoritmik fikrlash tushunchalari hamda uning shakllanishiga oid misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Algoritm, rekurrent algoritm, algoritmik kompetensiya, algoritmik fikrlash, dasturlash, faktorial, Fibonachchi sonlari.

Данная статья направлена на изучение процесса формирования алгоритмических компетенций у будущих учителей, внедрение алгоритмической педагогической деятельности и применение этой деятельности.

В статье представлено понятие алгоритма, алгоритмических компетенций и алгоритмического мышления, а также примеры его формирования.

Ключевые слова. Алгоритм, рекуррентный алгоритм, алгоритмическая компетентность, алгоритмическое мышление, программирование, факториал, числа Фибоначчи.

This article aims to study the process of developing algorithmic competences in future teachers, introducing algorithm teaching activities and applying these activities.

The article presents the concept of algorithm, algorithmic competences and algorithmic thinking, and examples of its formation.

Key words. Algorithm, recurrent algorithm, algorithmic competence, algorithmic thinking, programming, factorial, Fibonacci numbers.

Dunyoda bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning kollaborativ va intensiv usullaridan foydalanish xizmatlari keng tarqalib, innovatsion metodlarni qo‘llash asosida kompyuter savodxonligi, informatikani o‘qitish samaradorligini to‘la qoplashga yo‘naltirilmoqda. O‘zbekistonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish asosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va korporativ xizmatlarda ishtirok etishini ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, “oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir”. Binobarin, talabalarda algoritmik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim jarayonining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o‘zlashtirilishiga erishish va shu bilan birga, o‘zlashtirilgan axborotlarni qo‘llay olishga o‘rgatish ekanligini hisobga olgan holda ta’lim oluvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi (algoritmik kompetensiya, algoritmik madaniyat, algoritmik fikrlash) ni shakllantirish jarayonini uzluksiz va uzviy tashkil etish zarur.

Hozirgi vaqtda ta’lim darajalari integratsiyasini yaxshilash va zarur fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir qator konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, STEM doirasidagi treninglar nazariy bilimlarni shakllantiribgina qolmay, balki talabalarda murakkab texnik va axborot obyektlari bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, shuningdek tanqidiy va ijodiy qobiliyatlarni, hisoblash tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Y.B.Kafai va Q.Burke o‘zlarining dasturlash ta’limi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida, bugungi kunda muhim texnologik savodxonlik mahorati sifatida qabul qilingan dasturlash, tanqidiy fikrlash, algoritmik fikrlash, analitik fikrlash, muammolarni hal qilish, ko‘p o‘lchovli fikrlash va savol berish kabi ko‘nikmalar rivojlanganligini bildiradi. Yana, shaxslar ijodiy va aks ettiruvchi fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi, ularga motivatsiya va informatika faniga bo‘lgan munosabat ijobiy ta’sir qilgani aytiladi. Bularning bachasi dasturlash ta’limining ijobiy xissasidir. Shuni hisobga olib maktablarda dasturlashni o‘rgatish yondashuvi tez tarqala boshladi.

Dasturlash ta’limining birinchi va eng muhim bosqichida dasturlash mantig‘ini o‘rgatish turadi. Har qanday dasturlash tilini o‘qitishdan oldin dasturlash mantig‘i hal qilinadi. Algoritmlar dasturlash mantig‘ining asosini tashkil qiladi. Algoritm – bu cheklangan ishni tasvirlash uchun ishlatiladigan aniq usul. Ular aniq belgilanishi, bajarilishi mumkin bo‘lgan ketma-ket bosqichlardan iborat tuzilmalardir.

Algoritmni labirintga o‘xshatsak bo‘ladi, chunki biz natijaga erishish uchun kerakli yo‘ldan borishimiz lozim, aks holda to‘g‘ri natija ololmaymiz.

Algoritmlar yordamida nafaqat dasturlarni oson yozish mumkin, balki hayotimiz davomida uchraydigan muammoli masalalarni tez va aniq hal qila olamiz.

Algoritmlardan amaliyotda foydalanishga ayrim misollarni keltiramiz:

• Odam DNK si tarkibidagi 100 ming gen identifikatsiyasi, DNK-ni tashkil etuvchi 3 milliard asosiy juftlikni saralash va tahlili masalasi;

• Internetda ma’lumotlar olish masalasi: katta hajmdagi ma’lumotlarni olish, jo‘natish, qidiruv va optimal marshrut tanlash;

• Elektron tijorat masalalarida (kredit karta nomerlari, parollar, bank hisob-kitob raqamlari himoyasi, raqamli imzo va boshqalar);

Algoritmlarni ishlab chiqishda masalani yechimi uchun zarur bo‘gan vaqt va xotira hajmi muhim ko‘rsatgichlar hisoblanib algoritmlarni yaratishda ulardan samarali foydalanishni hisobga olish zarur. Aynan bir masalani yechish uchun turli algoritmlar tuzilishi mumkin. Ular bir-biridan samardorlik darajasi bilan farqlanadilar.

Algoritm tushunchasining turli ta’riflari bir qator talablarga javob berishi kerak:

– algoritm chekli sondagi elementar bajariluvchi ko‘rsatmalardan iborat bo‘lishi;

– algoritm chekli sondagi qadamlardan iborat bo‘lishi;

– algoritm barcha boshlang‘ich berilganlar uchun umumiy bo‘lishi;

– algoritm to‘g‘ri yechimga olib kelishi kerak.

Har qanday algoritm ma’lum ko‘rsatmalarga binoan bajariladi va bu ko‘rsatmalarga buyruq deyiladi. Yuqoridagi fikrga ko‘ra, algoritm asosan masalani yechimini topish uchun tuziladi. Bitta masalani yechishning bir necha algoritmi mavjud bo‘lishi mumkin.

Ular orasida eng samaralisini, bajarilishi uchun eng kam amallar, mashina vaqti, xotira va hokazolarni talab qiluvchi algoritmni tanlash lozim. Samarali algoritmlar mavjud bo‘lish shartlari va ularni qurish (ishlab chiqish) ni o‘rganish algoritmlar nazariyasi asosini tashkil etad.

Auditoriya mashg‘ulotlari jarayonida talabalarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirishga doir keys metod, loyihaviy ta’lim, mahorat darslari, refleksiv treninglar, binar mashg‘ulotlar, portfolio, ijodiy topshiriqlar kabi innovatsion-interaktiv texnologiyalarga asoslangan variativ axborot-metodik ta’minot ishlab chiqilishi, amaliyotga joriy etilishi lozim. Masalan quyidagi misollarni qarab chiqamiz.

1-Misol. N! ni hisoblovchi algoritm tuzing.

yechish.

Baron Myunxauzen haqidagi ertaklarni esga olaylik. U kishi kunlardan bir kun o‘rmonda asal yemoqchi bo‘lib, katta bir daraxt kovagidagi asalari uyasiga kiradi. Azboroi asaldan ko‘p yeganidan qorni shishib ketib, daraxt kovagi teshigidan chiqa olmay, kovakka tiqilib qoladi. Aqlli va uddaburon Myunxauzen bu holda o‘zini yo‘qotib qo‘ymay, yugurib uyiga boradi va arrani olib kelib, daraxtni arralaydi va o‘zini daraxt kovagi iskanjasidan qutqaradi.

Boshqa bir epizodda baron Myunxauzen loviya ekadi. Loviya juda tez o‘sib, oyga yetib boradi. Myunxauzen loviya poyasiga tirmashib, oyga chiqadi. Oyni ma’lum bir muddat aylanganidan keyin orqaga qaytib, yana loviya poyasiga osilib, tusha boshlaydi. Taxminan yer bilan oyning o‘rtasiga kelganda, qarasa loviyaning pastki qismi qurib qolibdi. Shunda baron Myunxauzen hech ikkilanib o‘tirmay, o‘zidan yuqorida turgan loviyani kesib, o‘zidan pastda turgan qismiga ulaydi va omon-eson yerga tushib oladi. Bir qaraganda kulgili va ishonib bo‘lmaydigan bu voqyealar bizga rekursiya tushunchasi ma’nosini ochib berishga yordam qiladi.

Rekursiyani quyidagicha izohlash mumkin. Yechilmagan masalani yechish uchun shu masalaning o‘ziga murojaat qilinadi. Boshqacha aytganda, qo‘yilgan masalani bir xil boshlang‘ich ma’lumotlar uchun yechish maqsadida shu masalaning o‘ziga faqat boshqa boshlang‘ich ma’lumotlar uchun murojaat qilinadi. Agar keyingi holatdagi masalaning yechimi topilsa, dastlabki masalaning ham yechimini topish mumkin bo‘ladi.

Agar dastur o‘zini-o‘zi protsedura yoki funksiya sifatida foydalanadigan bo‘lsa, bunday dasturlarni rekursiv dastur deyiladi.

Rekursiv dasturlar ikki turga bo‘linadi:

a) To‘g‘ri rekursiya. Bunda masala o‘ziga o‘zi murojaat qiladi.

b) Yondosh rekursiya. Bunda 1-masala 2-masalaga, 2-masala esa 1-masalaga murojaat qiladi.

Rekursiv dastur yozish uchun quyidagi ikki holat aniqlangan bo‘lishi kerak:

1) rekkurent munosabat
2) shu munosabat uchun boshlang‘ich holat aniqlangan bo‘lishi shart.

Rekurrent munosabat deganda biror jarayonning N va N-1 qadamlarini bog‘lovchi munosabatlar tushuniladi. Masalan, N! = N(N-1)! formulani rekkurent munosabat deb qarash mumkin. Bu munosabat uchun boshlang‘ich holat bo‘lib, 1!=1 xizmat qiladi. Bu ma’lumotlarni hisobga olsak, faktarialni hisoblash masalasi uchun rekurrent munosabatlar quyidagicha bo‘ladi:

$$N! = \begin{cases} N \cdot (N-1)!, & N > 1 \\ 1, & \text{agar } N = 1 \end{cases}$$

Ko‘rinib turibdiki, N! ni hisoblash uchun avval (N-1)! ni hisoblab topish kerak. Lekin, (N-1)! ning ham qiymati biz uchun noma’lum. Ammo biz bilamizki, (N-1)!= (N-1) (N-2)!. Demak, natija (N-2)! ga bog‘liq bo‘lmoqda. Shuning uchun uni topishga harakat qilinadi. (N-2)! esa (N-2)(N-3)! ga teng va hokazo.

Shunday qilib, N!= N*(N-1)*(N-2)*...*2*1 ga teng ekan.

Ko‘rinib turibdiki, N! ni hisoblash algoritmi o‘zining ichiga o‘zi “cho‘kib” bormoqda. Bu jarayon boshlang‘ich holat sodir bo‘lguncha, ya’ni 1! gacha davom etadi. Shundan keyin “cho‘kish” jarayoni to‘xtaydi, 1! 1 ekanligi haqida ko‘rsatma olgan EHM endi yuqoriga qarab “suzib” chiqish bosqichini bajaradi. Ya’ni, 2!=1*2=2; 3!=1*2*3=6 va hokazo.

Bu holat to N! hisoblanmaguncha davom etaveradi. Shu jarayon dasturini yozish uchun quyidagicha mulohaza yuritiladi.

Agar N! ni hisoblash uchun funksiya yaratilsa, bu funksiya qiymatini topish uchun shu funksiyaning o‘ziga, faqat N-1 bo‘lgan hol uchun murojaat qilinadi, ya’ni funksiya o‘zini o‘ziga yordamchi funksiya sifatida foydalanadi.


2-misol. Fibonachchi soni bo‘lgan n butun soni berilgan (n > 1). n soni Fibonachchi ketma – ketligining nechanchi xadi ekanini chiqaruvchi algoritm tuzing.

Yechish. Hisoblash jarayonida ba’zi bir algoritmlarning o‘ziga qayta murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. O‘ziga-o‘zi murojaat qiladigan algoritmlarga rekurrent algoritmlar yoki rekursiya deb aytib o‘tdik. Bunday algoritmga misol sifatida Fibonachchi sonlarini keltirish mumkin.

Avvalgi ikki elementi 1 ga teng bo‘lib, 3-elementidan boshlab “har bir element o‘zidan oldingi 2 element yig‘indisiga teng” qonuniyati asosida tuzilgan ketma-ketlikka Fibonachchi ketma-ketligi, bu sonlarga esa, Fibonachchi sonlari deyiladi.


Fibonachchi ketma-ketligi tabiatda juda ham ko‘p uchraydi. Masalan, daraxtning shoxlari o‘sishida, o‘simliklar yaproqlari joylashishida, hattoki asalarilarning ko‘payish jarayonida ham.

Ulardan hisoblash usullarida keng foydalaniladi, hisoblashni osonlashtirish maqsadida uning algoritmini tuzishimiz mumkin.




Shuningdek Excel dasturida ham Fibonachchi sonlar ketma-ketligini osonlik bilan hosil qilsak bo‘ladi.


1. 0 va 1 Fibonachchi ketma-ketligidagi dastlabki ikki sonlar.



2. Ketma-ketlikdagi keyingi har bir son o‘zidan oldingi ikkita sonni qo‘shish orqali topiladi.



3. A3 katakning pastki o‘ng burchagiga bosing va uni pastga sudrab torting.



Natija. Excel da Fibonachchi sonlar ketma-ketligi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning bunday bilimlarni o‘zlashtirishi, malaka hosil qilishi va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, fanga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish va algoritmik madaniyatini shakllantirishda mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu masalalarni hal qilishda esa raqamlar bilan ishlash usullarini o‘zlashtirish, algoritmik fikrlash, ayniqsa, fikrdagi hisob-kitoblar matematika qonunlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga konsentratsiyalash qobiliyatini oshiradi, xotirani mustahkamlaydi va bir vaqtning o‘zida bir nechta g‘oyalarni xotirada ushlab turish malakasini rivojlantiradi. Bunday hisoblash usullarini o‘rganadigan kishi, u bir nechta fikrlash tuzilmalari bilan bir vaqtning o‘zida ishlashni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://prezident.uz/uz/lists/view/2228

2. Kafai, Y. B. ve Burke, Q. (2013). Computer programming goes back to school. The Phi Delta Kappan, 95(1), 61-65.

3. Arabacıoğlu, T., Bülbül, H. İ. ve Filiz, A. (2007, Şubat). Bilgisayar programlama öğretiminde yeni bir yaklaşım. IX. Akademik Bilişim Konferansı, Kütahya, Türkiye.

4. Özkan, Y. (2003). Programlama dilleri: C ile programlama. İstanbul: Alfa Yayınları.

5. M.O‘. Ashurov, Sh.A. Sattarova, Sh.U. Usmonqulov. Algoritmlar. – T.: ‘‘Fan va texnologiya’’, 2018, 244-bet.

6. https://kitobxon.com/ru/kitob/baron_myunxauzen_sarguzashtlari.

Furqat MAVLONOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda pedagogik amaliy-nazariyalar mexanizmi hamda tadqiqotlardan foydalanish yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, harbiy xizmatchi, islohot, kasbiy madaniyat, siyosat, kasbiy ong, pedagog.

В статье освещен механизм педагогических практик и теорий, а также использование исследований в развитии профессиональной культуры военнослужащих.

Ключевые слова. Компетентность, военнослужащий, реформа, профессиональная культура, политика, профессиональное сознание, педагог.

The article highlights the mechanism of pedagogical practices and theories, as well as the use of research in the development of professional culture of military personnel.

Key words. Competence, soldier, reform, professional culture, politics, professional consciousness, teacher.

Jahonda terrorizm xavfi ortib borayotgan, Markaziy Osiyoda murakkab harbiy-siyosiy vaziyat saqlanib turgan hozirgi sharoit Vatan himoyachilaridan doimo o‘z ustida ishlashni, kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishni, xushyor va sergak bo‘lishni, uyushqoqlik, ko‘makdoshlik, askariy do‘stlikni, harbiy intizom va huquq-tartibotni yanada mustahkamlashni, har qanday tajovuzga munosib zarba berishga tayyor turishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy bo‘linmalar, qismlar jangovar shayligi sifat ko‘rsatkichlarining oshishida harbiy jamoaning ta’siri ortib bormoqda.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini isloh qilish va takomillashtirish xususida davlatimiz siyosatida ham bir qancha harakatlar amalga oshirilmoqda. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

– harbiy xizmatchilarning ma’naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an’analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan yagona tizimni yaratish;

– harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas’uliyat tuyg‘usini chuqur singdirish;

– harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy

pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas’uliyat, fidoyilik tuyg‘ularini oshirish;

– milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish asosida harbiy xizmatchilarda “O‘zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi!” degan hayotiy e’tiqodni qaror toptirish;

– dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an’analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash.[1]

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, ichki tartib qoidalarini belgilab berishda ichki xizmat nizomi katta ahamiyatga ega. Mazkur nizomda o‘zbek xalqiga xos axloqiy me’yorlarga alohida ahamiyat qaratilgan. Harbiy xizmatchi har doim yuksak madaniyat, kamtarlik va vazminlikning namunasi bo‘lib xizmat qilishi, askariy or-nomusni muqaddas saqlashi, o‘z qadr-qimmatini himoya etishi va o‘zgalar qadr-qimmatini hurmat qilishi lozim. Ular o‘zlarining xulqiga qarab, bo‘linma, harbiy qism, butun Qurolli Kuchlarning or-nomusi to‘g‘risida xulosa chiqarishlarini yodda tutishlari lozim. Harbiy xizmatchi professionalligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: axloqiy-axloqiy mukammallik, harbiy xizmatchi mentaliteti, harbiy-kasbiy kompetentsiya, psixologik-pedagogik tayyorgarlik.

Ma’naviy-axloqiy mukammallik insoniyat madaniyatining eng yaxshi namunalari va tajribasini umuminsoniy, milliy-etnik, harbiy va shaxsiy-gumanistik qadriyatlar darajasida o‘zlashtirish uchun axloqiy va qadriyat konsepsiyasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida harbiy jamoalarning o‘zgacha o‘rni bor. Harbiy jamoalarda oldindan saqlanib kelinayotgan huquqiy, axloqiy va intizomiy an’analarning to‘g‘ri shakllanishi, umuminsoniylik tamoyillariga rioya qilinishi, qolaversa, askariy do‘stlik, birodarlik va ahillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchi mentaliteti faol o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodiy shakllantirishga bo‘lgan mustaqil intilishda, harbiy mehnatning boshqa subyektlari bilan muloqotda o‘zini faol boyitishda va shu asosda o‘z faoliyat uslubini maqom rahbari, tan olingan rahbar, vakolatli professional sifatida rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

Harbiy xizmatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bugungi kunda harbiy xizmatchining harbiy xizmatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish qobiliyati sifatida shakllangan kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lishi zarur.

Kopeikin M. A. “Harbiy-kasbiy kompetensiyaning mohiyati harbiy xizmatchilar o‘rtasida harbiy mehnat talablariga javob beradigan fazilatlar majmuasini shakllantirishda namoyon bo‘ladi”- deb yozadi.

“Harbiy-kasbiy kompetentsiya – kelajakdagi ofitserlarning ajralmas sifati, bu kasbiy ahamiyatga ega fazilatlar to‘plamini, xizmat va jangovar faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va vazifalarni bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalardan foydalangan holda hal qilish qobiliyati va tayyorligini anglatadi. O‘quv jarayonida shakllanadigan va faoliyatda rivojlanayotgan asosiy kompetensiyalar tizimi tomonidan shakllangan”, - deb yozadi Tuxvatullin B. T. (2013).

Harbiy mutaxassislar sifatida harbiy xizmatchilarning malakasi o‘quv jarayonida shakllanadigan va faoliyatda rivojlanadigan asosiy, asosiy (umumiy) va maxsus (kasbiy)

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.08.2018 yildagi PQ-3898-son

kompetentsiyalar tizimi tomonidan shakllantiriladi[2].

A. K. Markova kasbiy kompetentsiyaning to‘rt turini[3] aniqlaydi:

– maxsus;
– ijtimoiy;
– shaxsiy;
– individual.

Kasbiy kompetentsiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida A. K. Markova mustaqil ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini nomlaydi.

Efremov harbiy xizmatchining kasbiy mahoratini shakllantirishning ikki bosqichini ko‘radi: o‘qitish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish.

Birinchi bosqichda harbiy xizmatchining oldindan ma’lum bo‘lgan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan mutaxassislik yoki kasbni egallashi uchun sharoitlar tayyorlanadi. Bu yerda asosiy ish komandir, o‘qituvchi, metodist, o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, ular talabalar uchun zarur motivatsiyani yaratishi va o‘quv-uslubiy vositalarni (vazifalar, vaziyatlar va savollar tizimlari, o‘quv to‘plamlari, kompyuter simulyatorlari va boshqalar) tayyorlashi kerak.

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish jarayonining ikkinchi bosqich bu butun sharoit va omillarning ta’sirini hisobga olgan holda samarali kuchlar, vositalar va o‘qitish usullaridan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnikasini amalga oshirishdan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasining o‘zi.

Bo‘lajak harbiy xizmatchilarning kasbiy ongini samarali shakllantirish uchun ushbu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik sharoitlar majmuasini ishlab batafsil tavsifini quyida ko‘rib chiqamiz.

Bunday taqdimot uchun harbiy xizmatchining harbiy-kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich shakllantirish kerak, ular bunday taksonomiyani tashkil qiladi, bu harbiy xizmatchining madaniyatida mualliflik huquqiga tayyorligi bo‘yicha kasbiy tajribasini rivojlantirishga olib keladi. Uning haqiqiy tajribasi an’anaviy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, kasbiy ongning o‘zi o‘qituvchilarning tegishli tarkibiy va mazmunli ishi bilan shakllanadi.

Kasbiy ongining tuzilishi harbiy xizmatchi shaxsiyatining quyidagi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi: kognitiv-operatsion; motivatsion-qiymat; hissiy-ixtiyoriy; intellektual; faoliyat; refleksiv.

Fikrimizcha, shakllanishning yetarli emasligi yoki ushbu shaxsiy xususiyatlarning yetishmasligi, asosan, shaxsning salbiy omillarga moyilligi bilan bog‘liq va kasbiy o‘sishning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, ixtiyoriy jarayonlar va xususiyatlar harbiy xizmatchining psixologik yetukligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ularning o‘ziga xosligi harbiy xizmatchining har qanday qiyinchilik va hayot xavfiga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatining asosiy sifatidan kelib chiqadi.

Bo‘lajak harbiy xizmatchining kasbiy ongini rivojlantiradigan vazifalar asosida harbiy kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlash va tuzish. Ushbu pedagogik shart deganda biz ma’lum bir mazmunli materiallar, o‘quv-uslubiy majmualar, o‘quv qo‘llanmalar,

[2] Военная педагогика / Под ред. О.Ю. Ефремова / учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2008. 640 с.
[3] Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Международный гуманитарный фонд “Знание”, 1996. С.312.

Masalalarni tanlashda o‘qituvchi tanlangan muammoni hal qilishning amaliy natijasini oldindan ko‘rishi kerak, bu esa o‘quvchiga mavzuni va umuman fanni o‘zlashtirishi

uchun yordam beradi. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilari uchun matematikani o‘qitishning kasbiy yo‘nalishini amalga oshirish yo‘nalishlaridan biri bu aniq mutaxassisliklar uchun amaliy muammolarni ishlab chiqish va hal qilishdir.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlashning nazariy asoslarini chuqurlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga urg‘u berish, nazariy kursni matematika qoidalarini mutaxassislarning kelajakdagi amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, bilim, ijodiy fikrlash qobiliyati, tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati va hayot davomida ta’limni davom ettirish qobiliyatini, bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti yo‘lida ilgari surilayotgan muammolarni hal qila olishi, mamlakatimiz va jahon fan va texnikasi yutuqlariga ega bo‘lishi, ularni o‘z mamlakati sharoitida qo‘llay olishi, shu orqali o‘z hissasini qo‘shishi zarur.

Oliy o‘quv yurtlarida matematikani o‘rganish nazariy material mazmunini yaxshilash; amaliy mashg‘ulotlarda hal qilinadigan vazifalar shartlariga o‘zgartirishlar kiritish; ilmiy-tadqiqot matematika fanlari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar metodikasini o‘zgartirish, bu umumiy texnik va kasbiy vazifalar ulushini oshirishni o‘z ichiga oladi. Oliy matematika mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat sof ilmiy, balki amaliy masalalarga ham yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barakaev M. va b. Zamonaviylashuv sharoitida matematika fanini o‘qitish muammolari.//Современные проблемы математики и информатикиб материалы Республикансой научно-практической конференции 22-2мая 2019 года, II часть, г. Фергана. 15-18//

2. Fixtengols G.M. Differensial va integral hisob kursi. 1-tom. T.,-1951.

3. Кудрявиев Л. Д., Кутев А. Д., Чехлов В. И., Шабунин М. И., Сборник задач по математическому анализу. Часть 1. Москва 1984.

Gulnoza MAVLONOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, ‘‘Biologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MAHALLIY SOYA NAVLARINING FIZIOLOGIK VA MORFOLOGIK BELGILARINI O‘RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent viloyatining Zangiota tumani tuproq iqlimiga moslashgan soya navlarini tanlash, ularning fiziologik hamda morfologik xususiyatlarini qimmatli xo‘jalik belgilari bilan bog‘liqligi dala tadqiqotlarida batafsil o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar. Soya, asosiy, ekin, xo‘jalik, dukkak, fotosintez, genetik, ekologik, nav, tadqiqot, shonalash fazasi.

В данной статье в полевых исследованиях обоснован подбор сортов сои, адаптированных к почвенному климату Зангиатинского района Ташкентской области, связь их физиологических и морфологических признаков с ценными хозяйственными признаками.

Ключевые слова. Соя, основная, посевная, сельскохозяйственная, бобовая, фотосинтетическая, генетическая, экологическая, сортовая, исследовательская, фаза опыления.

In this article, field research substantiates the selection of soybean varieties adapted to the soil climate of the Zangiata district of the Tashkent region, the relationship of their physiological and morphological characteristics with valuable economic characteristics.

Key words. Soy, basic, sowing, agricultural, legume, photosynthetic, genetic, ecological, varietal, research, pollination phase.

Ma’lumki, keyingi paytlarda tuproq tarkibidagi chirindi (gumus) miqdori kamayib bormoqda. Hosildorlikni oshirish uchun fermerlar juda katta mehnat qilishadi, paxta ekilgan dalalarga bir gektariga 700-800 kilogramm, bug‘doy maydonlariga ham 400-500 kilogramm, ba’zan 800 kilogrammgacha mineral o‘g‘it beriladi.

Tuproqqa azotli o‘g‘itlarni kamroq berib, yuqori hosil olishga erishish zarur. Buning uchun keng maydonlarda soya yetishtirish tajribasini qo‘llash talab etiladi. Chunki soya tuproqda 120-150 kilogramm ekologik toza azot to‘playdi, tuproq strukturasi va mikroflorasi yaxshilaydi. Soya ekilgan maydonlarga kelasi yil boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilganda hosildorlik o‘rtacha 35-40 foizgacha oshishiga erishiladi.

O‘simliklarning hosildorligi uning biologik xususiyatlariga, vegetatsiya davomida yetarli me’yorda ozuqa elementlari va suv bilan ta’minlanishiga, tuproq unumdorligiga va agrotexnik tadbirlarga bog‘liqdir.

O‘simliklarning turlari va navlari o‘zaro irsiy xususiyatlari, vegetatsiyasining davomiyligi, morfofiziologik xususiyatlari va chidamliligi bo‘yicha farqlanadi.

Toshkent viloyatidagi sug‘oriladigan yerlarda respublikamizdagi keng maydonlarga eng ko‘p ekilayotgan navlar tanlab olinib, asosiy ekin sifatida mahalliy soya navlarining to‘rt xil navi ekildi.

Soya juda qadimgi ekin turi bo‘lib hisoblanadi. Soyaning shakl va turlarining xilmaxilligini olimlar o‘rganishib ular asosan, 3 ta markazda shakllangan deb hisoblaganlar. Ular: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Sharqiy Afrika. Aksariyat olimlarning

fikriga ko‘ra, soyaning vatani Osiyoning janubiy-sharqiy rayonlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida soya qadimdan oziq-ovqat ekini sifatida ekib kelingan (Kuzin, 1976, Yormatova, 1989, 2004).

Tadqiqotlarimiz 2021-yilda Toshkent viloyatining Zangiota tumaniga olib borildi. Tadqiqot manbai sifatida mahalliy soya navlarida morfologik belgilaridan hosildorlik belgisi, hamda fiziologik belgisi o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida, mahalliy navlardan Genetik-1, Sochilmas, Orzu, Baraka navlari asosiy ekin sifatida ekib o‘rganildi. Soya o‘simligi dukkaklarining shakllanishida ham navlarining biologik xususiyatlari, sug‘orish va oziqlantirish tartiblari juda katta ahamiyatga ega. H. Atabayevaning ilmiy tadqiqot natijalarini ko‘rsatishicha soya o‘simligida gullash boshlanishidan 10-15kun o‘tgach, poyaning pastki yaruslarida dukkaklar hosil bo‘la boshlaydi va gullash hamda dukkaklarning shakllanishi poyaning pastki qismidan yuqori qismiga qarab navbat bilan vujudga keladi. Vujudga kelgan to‘liq dukkaklar ham sekin asta sarg‘ayib pishish fazasini o‘taydi. Korsakov, Bulax (1978) va Leshenkolarning (1987) ta’kidlashlaricha, soya o‘simligining dukkaklar soni tashqi muhit ta’siriga moyil emasdek. Genetik tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, bu belgini fenotipik namoyon bo‘lishida genotipni o’rni 45%, u ham navni genotipik holatiga qarab, o‘zgarib turadi. Oziqlanish maydonining oshishi, o‘simlikda dukkak sonlarini oshishiga olib keladi. Ekish muddatini kechikishi yoki takroriy ekin sifatida ekish o‘simlikda dukkaklar sonini qisqa kun hisobiga kamaytiradi.

Kuzatishlarimizda soyaning mahalliy navlarining shonalash va dukkak hosil qilish fazalarida morfologik belgilardan o‘simlik bo‘yi, bitta o‘simlikdagi barg soni va bo‘g‘inlar soni belgilari o‘rganildi. Tajriba uchun har bir navdan 10 tadan o‘simlik o‘rganildi va o‘rtachasi hisoblandi.

Soyaning shonalash fazasida (29.05.2021) olib borgan tadqiqotlarimizda o‘simlik bo‘yi belgisi bo‘yicha Genetik-1 navi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, asosiy poyabalandligi 18,3 smni tashkil etdi. O‘rganilayotgan navlardan Sochilmas va Baraka navlari belgi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘ldilar(mosravishda 17,2 smva 15,4 sm).

Mahalliy soya navlarining shonalash fazasida morfologik belgilar ko‘rsatkichlari

№	Navlar	O‘simlikbo‘yi (sm)	Bo‘g‘in soni (dona)	Bargsoni (dona)
1	Sochilmas	17,2±1,2	6,9±0,l	7,l±0,5
2	Genetik-1	18,3±0,5	7,7±0,3	7,0±0,2
3	Orzu	13,5±0,l	5,8±0,9	6,4±0,l
4	Baraka	15,4±0,l	6,2±0,3	7,8±0,l

Shonalash fazasida Toshkent viloyatida ekilgan soya navlarida belgi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich esa Orzu navida qayd etilib, asosiy poya balandligi 13,5 smni tashkil qildi.

Morfologik belgilardan bo‘g‘inlar soni belgisi soyaning yalpi shonalash fazasida o‘rganilganda, belgi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga tezpishar Genetik-1 navi (7,7 ta) ega bo‘ldi. Orzu navi esa bu belgi bo‘yicha ham eng past ko‘rsatkichni (5,8 ta) qayd etdi. Baraka va Sochilmas navlari ko‘rsatkichlari o‘zaro bir biriga yaqin ko‘rsatkichni qayd etdi (mosravishda 6,9 ta va 6,2 ta).

Shonalash fazasida o‘rganilayotgan soya o‘simliklaridagi burglar soni ham o‘rganildi.

Barglar o‘simlik uchun muhim organ hisoblanib, fotosintez jarayonlarining asosiy qismi barglarda kechadi. Barg qanchalik ko‘p va yuzasi qanchalik katta bo‘lsa o‘simlikda fotosintez jarayoni shuncha jadal kechadi. Fotosintez jarayonining jadal kechishi natijasida, o‘simlik tez o‘sadi va generativ organlar ko‘proq rivojlanadi. Tajribalarimizda o‘rganilayotgan navlardan Baraka navida shonalash fazasida barglar soni boshqa navlarga nisbatan ko‘p bo‘lishi (7,8 ta) aniqlandi, nisbatan kambarglar esa Orzu navida (6,4 ta) kuzatildi.

Mahalliy soya navlarida morfologik ko‘rsatkichlar dukkak hosil qilish fazasida ham o‘rganish davom ettirildi (23.07.2021.). Toshkent viloyati sharoitida ekilgan o‘rganilayotgan mahalliy soya navlarida asosiy poyabalandligi belgisi bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkich Baraka navida qayd etilgan bo‘lsa (118,5sm), nisbatan past ko‘rsatkich determinant nav Genetik-1 navida (95,8 sm) aniqlandi.

Tajribamizda soya navlari o‘simliklari barglaridagi umumiy suv miqdori soya o‘simligining yalpi dukkaklar davrida o‘sish nuqtasidan hisoblanganda 3 bargida tajribalar olib borildi. Olingan natijalarga ko‘ra, barglardagi umumiy suv miqdori belgisi bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkich Baraka navida qayd qilinib, belgi ko‘rsatkichi 79,4% ni tashkil etdi. Bu esa bu navning havo harorati qanchalik yuqori bo‘lmasin o‘zida suv kamroq bug‘latishini ko‘rsatadi hamda qurg‘oqchil mintaqalarda ham yetishtira olish imkonini berishini anglatadi. Barglardagi umumiy suv miqdori belgisi bo‘yicha nisbatan past ko‘rsatkich esa Genetik-1 navida aniqlanib, belgi ko‘rsatkichi 71,9% ni tashkil qilishi kuzatildi. Orzu va Sochilmas navlari esa belgi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘lib (mos ravishda 74,8% va 76,3%), havo harorati yuqori bo‘lgan sharoitda suv tejab sarflashini ko‘rsatadi

Mahalliy soya navlarida yalpi dukkaklash davrida umumiy suv miqdori. %

№	Navlar	χ	δ	V
1	Sochilmas	74,8	1,8	2,4
2	Orzu	76,3	4,2	5,5
3	Baraka	79,4	2,2	2,8
4	Genetik-1	71,9	8,6	12,0

Izlanishlarimizda qimmatli xo‘jalik belgilaridan bitta o‘simlikdagi dukkaklar soni belgisi o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra bitta o‘simlikdagi eng ko‘p dukkaklar soni Baraka navida qayd etilib, mos ravishda 309,0 tani tashkil etdi.

Mahalliy soya navlarida bitta o‘simlikdagi dukkaklar soni

№	Navlar	O.F	V%
1	Baraka	309,0	16,3
2	Sochilmas	114,5	14,2
3	Genetik-1	80,3	11,3
4	Orzu	176,0	18,3

Orzu navida belgi ko‘rsatkichi bo‘yicha dukkaklar soni 176,0 tani tashkil qilib, o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Sochilmas navida dukkaklar soni 114,5 tani tashkil qildi. Eng

kam dukkaklar soni esa tezpishar nav Genetik-1 navida aniqlanib, belgi ko‘rsatkichi 80,3 tani tashkil qildi

Shunday qilib,Toshkent viloyati sharoitida mahalliy soya navlarining morfologik belgilardan bo‘g‘inlar soni belgisi, soyaning yalpi shonalash fazasida o‘rganilganda, morfologik belgilardan soya o‘simligining dastlabki rivojlanish bosqichida Genetik-1 navida yuqori ko‘rsatkich qayd qildi.

Morfologik belgilari asosida shuni xulosa qilishi mumkinki, Genetik-1 navi tezpisharnav bo‘lib, Toshkent viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida tavsiya etish mumkin. Sababi morfologik belgilar boshlang‘ich fazalarda jadal revojlanib keying fazalarida, asosan, generativ organlarining rivojlanishi jadal kechishi mumkin.

Barglardagi suv balansi fiziologik belgisi Genetik-1 navida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Baraka navini esa morfologik belgilar kuchli rivojlanganligi va o‘simlikning asosiy poyasi baland va barglar soni ko‘pligi sababli fotosintez yaxshi kechishi natijasida yuqori hosil olinishi mumkinligini hamda poya va barglaridan chorva mollariga ozuqa sifatida foydalanish mumkinligini tavsiya qilamiz.

Qimmatli xo‘jalik belgilardan bitta o‘simlikdagi dukkaklar soni bo‘yicha Baraka navi yuqori ko‘rsatkichlarni qayd qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil, №28 (6723). PQ-4947-son. – B. 1-2-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ – 2832-son “2017-2021-yillarda Respublikada soya ekishni ko‘paytirish va soya dukkaklik ekinlarini o‘stirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Abdullayev A.Q., Ataboyeva H.N., Ibragimov F.Yu., Sattarov M.A., Saitkanova R.U., Sadiqova N.L, Tangirova G.N. O‘zbekistonda soya yetishtirish bo‘yicha tavsiya-noma. – T., 2013. 7-8-b.

4. Абдуллаев Х.А., Каримов Х.Х. Индексифотосинтеза в селекси ихлопчатника. // Дониш, – Душанбе, 2001. – С. 54-60.

Ruqiya ASHURBAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti, ‘‘O‘zbek tili va adabiyot, rus tili, pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi asisstenti

ONA TILI TA’LIMINING ADABIYOT FANI BILAN VOBASTALIGI VA INTEGRATIV USULLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta’limida adabiyot fanining o‘rni va bu fanlar mushtarakligida samarali dars jarayonini tashkil qilishning ahamiyati, o‘zbek xalqining boy, hayotiy tajribalari aks etgan maqollar vositasida mulohazalar yuritilgan va amaliy ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Ona tili, maqollar, adabiyot, usul, integratsiya, topshiriq, so‘z, til, rasm, xulosa, ko‘nikma, fanlararo aloqadorlik

В статье обсуждается роль литературы в обучении родному языку и важность организации эффективного учебного процесса в контексте этих дисциплин.

Ключевые слова. Язык, пословицы, литература, метод, интеграция, задание, соз, язык, изображение, резюме, навык, междисциплинарная связь.

The article discusses the role of literature in teaching the native language and the importance of organizing an effective educational process in the context of these disciplines.

Key words. Language, proverbs, literature, method, integration, task, cos, language, image, resume, skill, interdisciplinary communication.

So‘z qiymati betakror. Bu betakrorlikda olam mohiyati, hayot falsafasi, boqiylikning boqiyligi mujassamki, ona tili va adabiyot fanlari vobastaligida bunday bebaho ne`mat o‘z qiymatini ifodalay oladi. Insoniyatning, tiriklikning yagona maqsadi bu komilikka erishishdir. Bu sharafli vazifa ona tili – adabiyot zanjiridagina mukammallik kasb eta oladi. Oy va quyosh uzviyligi hayotning davomiyligi belgilab berganidek, bu fanlar mushtarakligi inson yetukligini belgilab beruvchi kuch sanaladi. Bejizga: “Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir,”- deb o‘zbek farzandi Abdulhamid Cho‘lpon kuyunmagan. Shu o‘rinda o‘zbek adabiy tilining asoschisi Navoiy qalamidan yaralgan ushbu jumlalarni ham keltirmoqni o‘rinli deb topdik: “Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo’lib chiqsa-tilning ofatidir.” Tilda nutqning o‘rinli aks etishida ona tili va adabiyot muhim rol o‘ynar ekan, bu fanlarni integrativ tamoyil asosida tashkil etish lozimligi, dolzarbligi rad etib bo‘lmas haqiqat.

Milliy an’ana va urf-odatlarga tayangan holda, ajdodlarimizning asrlar osha hayot ummonida, ilm-u ma’rifatida toblangan, tajribalari o‘z aksini topgan maqollar asosida milliylik zaminidan uzilmagan holda jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, intellekti yuqori mutaxassislarni yetishtirib berish uchinchi Renessans sari qadam tashlayotgan yurtimiz – O‘zbekistonning oliy maqsaddlaridan biridir. Shu nuqtayi nazar asosida yaratilgan, amaldagi 5-sinf ona tili darsligi bilan 5-sinf adabiyot darsligiga ko‘z yugurtirdik.

Ona tili darsligida birgina maqol so‘zi taxminan 64 marta qo‘llanilganiyoq adabiyot fani asosida ona tilining nazariy ma’lumotlari o‘z aksini topganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, mashqlarda quyidagi jumlalarni uchratamiz:

359-mashq. Adabiyot darslarida maqol janri haqida o‘qiganlaringizni esga oling va aytib bering.

34-mashq. Odamiylik, yaxshilik haqidagi maqol yoki hikmatli so‘zlardan 3ta yozing. Lablarimiz ishtirokida hosil bo‘lgan tovushlarning talaffuziga diqqat qiling, tagiga chizing.

Namuna:

Odamiy ersang, demagil odamiy,

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. (Alisher Navoiy)

55-mashq. Vaqt qadri haqidagi maqollarni ko‘chiring va sharhlang.

1. Vaqting ketdi – naqding ketdi. 2. Vaqt qush kabidir, uchib ketsa, tutolmaysan.

3. Ertangi ishga bugun reja tuz. 4. Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

Berilgan mashqlarning barchasida adabiyot fani bilan sug‘orilgan fikr va tushunchalar ekanligi va bu topshiriqlar ona tilidagi og‘zaki va yozma savodxonlikni rivojlantirishga qaratilganligini payqash mumkin. Insoniyatning eng buyuk qudratli quroli nutq madaniyatining shakllanishida asosiy poydevor ikki fanning integrativ yondashuvi yetakchiligi isbotlangan.

Ona tili darsligida maqol haqida quyidagicha ta’rif berilgan bo‘lsa:

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lishi kerak. Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalaydi. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati hisoblanadi. Bejiz “Ilm o‘lchovi – aql, zehn o‘lchovi – naql”, deyilmaydi. Maqollar, asosan, bir, ikki misrali bo‘ladi. Ularda antonimlardan keng foydalaniladi. (17-bet)

Adabiyot darsligida maqollar haqida quyidagicha izoh berilgan:

Maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, gapga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqiga har doim hamroh bo‘ladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o‘shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar. Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do‘stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo[1].

Ikkala fanda berilgan topshiriq va mashqlar, fikrlar mazmun-mohiyati bir-biriga yaqin va bir-birini to‘ldiradi. Ona tili ta’limi jarayonida maqollar mavzusini o‘tishda quyidagi integrativ tizim asosida tashkil qilinsa maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

A) Maqollar haqida ma’lumot berish.

1. Maqollar haqida umumiy ma’lumot:

– “Maqol” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “so‘z” degan ma’nonisini bildiradi, uni “otalar so‘zi” ham deydilar.

– Shoir Gulxaniy butun bir asarini ‘‘Zarbulmasal’’ deb nomlagan. Unda Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan bo‘lib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol keltiriladi.

– Zamonlar o‘tishi bilan ko‘p so‘zlar eskiradi. O‘rniga yangisi keladi. Vaqti kelib o‘sha yangisi ham o‘zgaradi, o‘rniga boshqasi keladi. Masalan, “qo‘l”ni bir vaqtlar “al” deyishgan. Hozir buni yoshlar emas, kattalar ham tushunmaydilar. Til va adabiyot fani bilan shug‘ullanuvchilargina biladilar. “Dunyo”ni “ochun”, “kitob”ni “bitik” der edilar. Ko‘ryapsizki, hamma narsa o‘zgarishda ekan. Maqollar ham o‘zgaradi, lekin juda sekin o‘zgaradi. So‘zlari o‘zgarganda ham maqsadi, mazmun-mohiyati o‘zgarmaydi.


– Maqol she’riy shaklda ham bo‘lishi mumkin. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lishi kerak.

– Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalaydi. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati hisoblanadi. Bejiz “Ilm o‘lchovi – aql, zehn o‘lchovi – naql”, deyilmaydi. Maqollar, asosan, bir, ikki misrali bo‘ladi. Ularda antonimlardan keng foydalaniladi.

2. Maqollarning mavzusiga ko‘ra tasnifi:

Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do‘stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo.

1-rasm



B) Maqollar mavzusini mustahkamlash:

1. Rasmlar asosida maqolni topish.

Bunda ta’lim oluvchining xalq maqollarni bilish darajasi “rebus” metodi orqali tekshiriladi. Rasmlar va sonlarda yashiringan so‘zlarni topishi qiziqarliligi bilan birga topilgan maqol o‘quvchi xotirasida mustahkam o‘rin egallaydi. Ona tili darsligida quyidagicha topshiriq berilgan:

362-mashq. Rasmdagi maqolni o‘qing.

2-rasm




2. Alifbodagi harflarning joylashish o‘rniga qarab maqolni topish:

Alifbo (arab A.sining boshlang‘ich ikki harfi – alif va bo nomidan olingan) bu – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma’lum an’anaviy tartib berilgan yozuv belgilari. O‘zbek alifbosidagi harflar o‘rning o‘quvchilar nechog‘lik yodda saqlaganliklarini qiziqiqarli raqamlar orqali topish kabi topshirig‘i beriladi. Bunda o‘qituvchi raqamlarni

quyida ko‘rsatilgandek yozadi. O‘quvchilar esa alifboda nechanchi raqamda o‘rin olgan harfni qo‘yib, o‘zbek xalq maqolini topadilar va maqolda aytilgan fikr haqida o‘z fikrlarini bildiradilar.

3-rasm



3. Maqollarni “Sherigingni top” metodidan foydalangan holda topish

Xalq maqollaridan, topishmoqlar yoki hikmatli so‘zlardan darsning ta’limiy maqsadiga muvofiq saralab olinganlarining har biri ikki bo‘lakka bo‘linib, yarmi birinchi kartochkaga, davomi esa ikkinchisiga yoziladi va bu o‘yinidan foydalanib, ota-bobolarimiz tomonidan qo‘llanilgan maqollar ikkinchi yarmi topish asnosida to‘liq gap shakliga keltiriladi.

4-rasm

“Sherigingni top”



4. Rasm chizish orqali

Chizish – bu san’at turlaridan biri bo‘lib, dars jarayonida qo‘llash ijobiy natijalarini beradi. Chunki, chizish o‘quvchilarida quyida sanab o‘tilgan ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- Motorikani ajoyib tarzda rivojlantiradi. Bunda bilak, qo‘l va barmoqlarning o‘ziga xos harakatlarini o‘z ichiga oladi.
- Ko‘rish qobiliyati asosida tahlil qilish tizimini rivojlantiradi.
- Diqqatni jamlashda yordam beradi.
- O‘ziga ishonchni oshiradi.

- Muammoga kreativ yechim topishga undaydi.
- Xotirani mustahkamlaydi.

Shuning uchun chizish orqali ona tili va adabiyot fanlaridagi tushunchalarni izohlash samarali hisoblanadi. Bunda maqol doskada yoziladi, o‘quvchilar esa bu maqolni qanday tushinishlarini chizish orqali ko‘rsatib beradilar. Yoki doskada bosqich-ma- bosqich chizilgan rasm namunasi ko‘rgazma sifatida qo‘yiladi.O‘quvchilar rasmni chizib bo‘lganlaridan so‘ng bu ikki rasmning bir-biriga bog`liqligi va su rasmlar asosida qanday xalq maqolini bilsihlari so‘raladi. Fikrlar so‘nggida o‘qituvchi rasmga aloqasi bo‘lgan maqolni ko‘rsatadi.

5-rasm



5. Harakatlar asosida.

Shifokorlarning ta’kidlashicha, oxirgi paytlar inson organizmi harakatsizlikdan ko‘proq zarar ko‘rmoqda. Doimiy o‘tirishga moslashmagan inson tanasidagi kasalliklar soni ko‘paymoqda. Dars jarayonida “pantomima’’ o‘yini orqali ishtirok etish o‘quvchilarda qon aylanish tizimini yaxshilaydi, tasavvur olamini kengaytiradi, ruhiy kayfiyatini ko‘taradi. Pantomima asosida (So‘zsiz, imo–ishoralar asosida bajariladigan interkativ o‘yin) maqollarning ma’nosi butun gavda a’zolari asosida ko‘rsatib beriladi. Bunda o‘quvchilarning nechog`lik topqirligi, dunyoqarashi va hozirjavobligi muhim rol o‘ynaydi. Shuni ham inobatga olish kerakki, ta’lim beruvchi bevosita harakatlar asosida tasvirlashi oson bo‘lgan va o‘quvchining yoshini ham inobatga olib, maqollarni tanlashi kerak. Masalan, “Sanamay sakkiz dema”, “Aytilgan so‘z, otilgan o‘q”, “Bilimi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni”, “Yaxshi so‘z bilna ilon inidan chiqadi”, “Oltin olma duo ol, Duo oltin emasmi?” va hokazo.

6. Hikoyalardan xulosa chiqarish asosida.

Hikoya — badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Adabiyotning ushbu janri orqali maqollarning mazmun-mohiyati osongina o‘zlashtirladi, o‘quvchilarda ezgu fazilatlar, muloqot qobiliyatlari, nutqiy savodxonlik, xotirada rang-barang so‘zlarni saqlash va tahlil qilish kabi ko‘nikmalari shakllanadi va rivolanadi. Ona tilida so‘z boyligi oshadi. Amaldagi darslikda, quyidagicha o‘rinli topshiriq berilgan:

Topshiriq. Hikoyani o‘qing va unga maqol bilan ifodalangan sarlavha tanlang.

Bir o‘g‘il otasi bilan ketayotib, yiqilib tushdi va og‘riqdan “Oh” deb yubordi. Tog‘ ortidan xuddi shunday ovoz eshitildi. Bola hayron bo‘lib:

– Sen kimsan? – deb baqirdi.

– Sen kimsan? – deb so‘radi ovoz.

– Sen qo‘rqoqsan! – dedi bola.

– Sen qo‘rqoqsan! – dedi ovoz.

Bolaning hayronligini ko‘rib otasi: “Sen ajoyibsan!” – deb baqirdi. Ovoz endi mana shu ajoyib so‘zni qaytardi. “ Bolam, – dedi ota, – bu – aks sado. Aslida, bu hayot

degani, hayot berganingni qaytaradi ”.

358-mashq. Yuqorida keltirilgan hikoyadan xulosa chiqaring. Berilgan o‘zbek xalq maqollari orasidan hikoyaga moslarini ajratib ko‘chiring.

1. Birovga kesak otsang, u senga tosh otadi. 2. Suvga solsang, suv ko‘tarmas misqol temirni, Oltin bilan olib bo‘lmas qolgan ko‘ngilni. 3. Boboning tol ekkani o‘ziga nom ekkani. 4. Musht ursang, shapaloq kut. 5. Guruchning kurmagi, yomonning to‘qmog‘i bor. 6. Daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobon (cho‘l) dan topasan. 7. Elga qilma xiyonat, turolmassan salomat.

Integrativ (o‘zaro aloqadorlik) tamoyili asosida yaralgan olam, shu tamoyil asosida bilimlarni ta’lim oluvchiga yetkazilishini talab qiladi. Har bir fanni aloqadorlik zaminidan uzgan holda, ta’lim oluvchiga alohida shaklda yetkazish, bilim o‘zlashtirilishida qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Rang-barang tuzilgan olam qonuniyatlarining jilosini saqlagan holda taqdim etish ta’lim sifatining garovidir. Ona tili va adabiyot darslarini integrativ tamoyil asosida tashkil qilish yuzasidan, birgina xalq maqollari borasida fikr yuritdik. Vaholanki, bu ikki fanning deyarli har bir mavzusi bir-biriga to‘qnash keladigan va bir-birini to‘ldiradigan, shuningdek bu fanlar atrofida yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, matematika, rasm, jismoniy tarbiya fanlarining ham o‘rni borligini ko‘ramiz. O‘quvchilarni birdan ortiq faoliyat sohasida ishlashga undash orqali kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishidagi kamchilik va kuchli tomonlari tekshiriladi. Fanlararo aloqadorlik ta’lim oluvchi tasavvur olamini boyitishi, bu tasavvurlar jamiyat ravnaqi uchun yangi, kreativ g‘oyalar berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. va b., ADABIYOT umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati uyi TOSHKENT – 2020.

2. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. ONA TILI umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik To‘la yangilangan 5-nashr O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2020.

Shahnoza MIRZAYEVA,
Buxoro shahar 31-umumta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi

FIZIKA DARSLARIDA PEDAGOGIK INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH VA AMALIYOTDA QO‘LLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada dars jarayonlarida innovatsion pedtexnologiya hamda metodlardan samarali foydalanish, fizika darslarida AKT vositalarining takomillashuvi va o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion ta’limning muhim usullari haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. AKT, online testlar, tarqatma kartochkalar, interfaol, innovatsiya.

В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных педагогических технологий и методов в обучении, совершенствования средств ИКТ на уроках физики, а также важные методы инновационного обучения в работе со школьниками.

Ключевые слова. ИКТ, онлайн-тесты, карточки, интерактив, инновации.

This article discusses the issues of effective use of innovative pedagogical technologies and methods in teaching, improvement of ICT tools in physics lessons, as well as important methods of innovative teaching in working with schoolchildren.

Key words. ICT, online tests, flashcards, interactive, innovations.

Hozirgi kunda talim tizimini takomillashtirish, yangi ped texnologiyalar asosida, noan’anaviy, AKT da multimedialarni qo‘llab darslar tashkil etish–ta’limni sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish yo‘lida qilinayotgan harakatlardir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalq ta’limi xodimlari uchun chiqarayotgan farmon va qarorlari o‘qituvchilarga yanada ko‘tarinki ruh, shijoat, o‘z kasbiga fidoiylik baxsh etmoqda. Dars jarayonida samaradorlikka erishish har bir pedagogni birinchi galdagi vazifasidir. O‘quvchilarga mavzuni oson tushunishlari uchun har xil vositalardan foydalaniladi. Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi–mukammal bilimning asosi bo‘ladi, bu tajribada sinalgan aksiomadir. O‘qituvchining bilim saviyasi yetarli bo‘lgandagina u har tomonlama o‘quvchini intellektual salohiyatli qilib tarbiyalay oladi va bu borada o‘quvchi bilan o‘qituvchi do‘st bo‘lishi, bir birini tushuna olishi kerak. Darslar kabinet sistemasida bo‘lishi vaqtni tejaydi va diqqatni jamlaydi kompyuter bilan sinf xonasining jihozlanganligi ayniqsa, fizika darslarida multimedia slayd va boshqa dasturlardan samarali foydalanish o‘quvchilarda mavzularni to‘laqonli tushunishga yordam beradi, chunki fizika tasavvurlar fanidir. Dars maqsadiga erishishida sinf o‘quvchilari soni ularning barchasini qamrab olish va rag‘batlantirish o‘z samarasini beradi. Bugungi kunda Fizika o‘qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta’limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni amaliyotda qo‘llashdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga fizika fanidan zarur bilimlarni beribgina qolmay, balki ularni bu fanga yanada chuqurroq qiziqishlarini uyg‘ota olishi kerakki, natijada, bu sohada yetuk mutaxassislar va malakali kadrlar yetishib chiqsin. Darsni yangi innovatsion ped texnologiyalar orqali:

– Interfaol metodlardan foydalanish;

– Ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash;

– AKTdan foydalanish;

orqali tashkil etish o‘quvchini darsga qiziqishini oshirish bilan birga xotirada chuqur joylashishiga ham xizmat qiladi. An’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq zamonaviy innovatsion pedtexnologiyalardan o‘rinli foydalanish, qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarga erishilishini ta’minlaydi

1-metodik tavsiya: AKT dan foydalanish.

O‘qituvchi Fizika darslarida axborot texnologiyalarining faoliyat darajalarini quyidagicha qo‘llashi mumkin. Multimediali darslarda chizma va fotosuratlardan foydalanish, interfaol modellarni ko‘rsatish va o‘quvchilarga savollar berish, laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tishda interfaol modellar va modellashtiruvchi muhitlar yuzasidan o‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish.

2-metodik tavsiya; Onlayn testlar.

Har chorakda o‘quvchilar bilimini Online testlarda tekshirish. Masalan, quiz test shaklida, buning sharti: ya’ni har bir o‘tilgan mavzuning asosiy mazmunini qamrab olsin. Bu o‘quvchida test yechish ko‘nikmasini shakllantirib boradi, o‘quvchi sinovlarda sayqallanadi.

3- metodik tavsiya: tarqatma kartochkalardan foydalanish.

Agar tarqatmalardan to‘g‘ri foydalanilsa maqsadga erishish samaradorligi oshadi.

– Tayyorlagan tarqatmangiz noodatiy bo‘lsin.

– Tarqatmalarni shunday tayyorlangk, uni bitta dars yoki mavzu uchun bo‘lmay uni boshqa fanlarda ham foydalanish imkoni bo‘lsin ya’ni fanlararo integtegratsiya asosida.

– Tayyor yoki kompyuterda tayyorlangan tarqatmalardan voz kecking, iloji boricha ularni o‘zingiz qo‘lda tayyorlang yoki o‘quvchilarni ham jalb qiling. Axir o‘qituvchi bitta emas bir nechta sinfda dars beradi.

– Tarqatmalardan maqsadli foydalaning. Bir darsda 15tagacha. Tarqatma bilan ishlagan o‘quvchiga keyingi darsda bermay boshqasiga bering, bu uni qadrini yanada oshiradi.

– Tarqatmadagi topshiriq yoki savolga javob bergan o‘quvchini rag‘batsiz qoldirmang.

– Tarqatmada yozayotgan savolingiz sodda, oson bo‘lmay o‘quvchini o‘ylantirsin.

– Nima deb o‘ylaysiz, tarqatmani darsning qaysi bosqichida foydalangan ma’qul? Bir gal tashkiliy qismda, keyingi gal yangi mavzuni tushuntirishdan avval, so‘ngra mustahkamlash jarayonida, uyga vazifani so‘rashda tarqatmalardan foydalangan ma’qul. Albatta berilayotgan savollar ham shu bosqichlarni e’tiborga olgan holda tuzilishi kerak. Bunday usul o‘quvchini bir xillikdan qochishiga sabab bo‘ladi. Chunki jarayon sizni mehnatingizni ko‘rsatyapti, bola ham mehnatdan qochmaslikni sizdan o‘rganadi.

– Tarqatmalarni yorqin ranglarda tayyorlagan yanada samarali. Bolalar yorqin ranglarni yoqtiradi. O‘quvchi savolga javob bermagan holda, siz rangidan kelib chiqib savol bering. Siz bu harakatingiz bilan o‘quvchini xushyorlikka undayapsiz.


Agar siz tarqatma materiallari tayyorlashda yuqoridagilarni inobatga olsangiz, bu sizga foydadan holi bo‘lmaydi. Ayniqsa, fizik olimlarni rag‘bat kartochkasi sifatida berilsa, o‘quvchilar olimlarning kimligini, qaysi qonun ixtiro qilganligini bilishadi.

4-metodik tavsiya: formula va qoidalar bilan ishlash.

Bu usulda o‘quvchilarga qoida yoki formula yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Formulalardan ayrim fizik kattaliklarni joyi o‘zgartirib qo‘yiladi. O‘quvchilar esa ana shu xatoliklarni topib, formula, qoida tagida berilgan jadvalga to‘g‘irlab yozadi.

Bu usulda, asosan har bir o‘qituvchi dars rejasi asosida turli o‘yinlardan foydalanishini o‘zi rejalashtirishi kerak. Bu borada “Qo‘shningni top”, ‘‘Juftini top” kabi didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

5-metodik tavsiya. Fizika darslarida takrorlash mavzusini o‘tishda interfaol o‘yinlardan foydalanish.



G‘olib chiqqan o‘quvchiga rag‘bat kartochkasi beriladi. Eng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan o‘quvchiga sovg‘a yoki bir martalik pul mukofoti beriladi

5-metodik tavsiya “Davra suhbati” metodi

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. Masalan, Fizik olimlarning nomlari yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlab olgan konvertni ochib fizik olim haqida gapirib beriladi. Ma’lumot aytmagan o‘quvchilarga ball berilmaydi. Bu metod o‘quvchilarga Fizik olimlarning hayoti ular yaratgan qonunlar haqida izlashga ko‘proq ma’lumot izlashga undaydi.

6-metodik tavsiya: “Fizika fanidan ixtirolar tanlovlarni o‘tkazish’’.

Bu usul orqali bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham fanga qiziqadi, texnika bilan ishlashni o‘rganadi.

7 – metodik tavsiya:“AQLIY HUJUM” usuli.

Bu usul qoidasi: Hech qanday birga baholash va tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi!Taklif etilayotgan g‘oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki, ajoyib va g‘aroyib bo‘lsa ham – hamma narsa mumkin.

– Tanqid qilma-hamma aytilgan g‘oyalar qimmatli teng kuchlidir.
– O‘rtaga chiquvchini bo‘lma!
– Turtki berishdan o‘zingni ushla!

– Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko‘p g‘oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g‘oyalarni paydo bo‘lishi uchun ko‘p imkoniyatdir.

Darsda foydalanganda erishiladigan yutuqlar:

– o‘quvchilar fikrini qo‘rqmasdan bayon qilib biladi;
– o‘quvchilarning nutq madaniyati o‘sadi;
– fizika faniga bo‘lgan muhabbati oshadi;

8-metodik tavsiya: noan’anaviy darslar.

Darslarni noan’anaviy shaklda tashkil etish. Qachonki o‘quvchi darsda faol bo‘lsa, o‘zi qatnashgan jarayon hech qachon esidan chiqmaydi. Masalan, “Elektr ustidan sud” kabi sahnalashtirilgan darslarni tashkil etish. Bu dars xuddi sahna ko‘rinishidek tashkil etiladi. Har bir o‘quvchining o‘zi alohida rol asosida darsni tashkil etadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshgan va oshirilayotgan ishlarning bosh maqsadi bu ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Zamonaviy ta’lim usullaridan, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o‘tish ta’lim samaradorligini oshirishning garovi bo‘lib qolmoqda.

Haqiqatdan ham agar bilimli, mahoratli o‘qituvchi o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qiziqishlarini va ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, darsini yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib tashkil qilsa, bu ta’lim samaradorligini oshiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalarda ta’limning turli aspektlarini optimal ravishda amalga oshirish borasida, yangidan-yangi dars turlari yaratilmoqda va o‘zining yaxshi natijalarini bermoqda. Shunday darslardan biri “Kashfiyot” darsidir. Ayniqsa tabiiy fanlar fizika, kimyo va biologiya darslarida “Kashfiyot’’ darsidan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Chunki bunday darsning asosiy mazmuni, unda o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘rganilishi kerak bo‘lgan qonunlar, hodisalarni o‘zi kashf etadi va natijada fanga bo‘lgan qiziqish va mehri yanada oshib, kuzatuvchanlik, tajribakorlik, faktlarni solishtirish, ilmiy xulosa chiqarish, umumlashtrilgan va olingan natijalarni amalga tatbiq eta bilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Metodik qo‘llanma Interfaol metodlar mohiyati va qo‘llanilishi.
2. Toshkent TDTU nashriyoti. 2013.
3. Fizika o‘qitish uslubi asoslari. O‘zbekiston. 2005.
4. Fizika darslarida innovatsion metodlarni qo‘llash U. Farmonov. 2021.

Asalxon ULLIYEVA,
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi XTVga qarashli
27-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda ona tili fanini o‘qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish yoritib berilgan. Shuningdek, dars mashg‘ulotlarini olib borishda zamonaviy texnika vositalari yangicha o‘quv-metodik ishlanmalardan foydalanish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Orfografiya, qo‘shimcha bilim, malaka, ko‘nikmalar, to‘garak mashg’ulotlari, sinfdan tashqari ishlar, so‘zning shakl va ma’no munosabati, sodda gap turlari ko‘rik tanlovlar, olimpiadalar.

В статье будет освещена организация внеклассной работы по использованию родного языка в преподавании предмета "Родной язык" в общеобразовательных школах, предоставление учащимся дополнительных знаний, умений и навыков. Также анализировалось использование современных технических средств и новых учебно-методических разработок при проведении учебных занятий.

Ключевые слова. Орфография, дополнительные знания, квалификация, умения, кружковые занятия, внеклассная работа, отношения формы и значения слова, Виды простых предложений смотры конкурсы, олимпиады.

The article will highlight the organization of extracurricular activities on the use of the native language in teaching the subject "Native language" in secondary schools, providing students with additional knowledge, skills and abilities. The use of modern technical means and new educational and methodological developments during training sessions was also analyzed.

Key words. Spelling, additional knowledge, qualifications, skills, circle classes, extracurricular activities, relations of the form and meaning of the word, Types of simple sentences, reviews, contests, Olympiads.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 2021-yilning 16-17-fevral kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya yakunlari bo‘yicha qabul qilingan Rezolyutsiya mazmun-mohiyatida ham yoshlarni ma’naviy barkamol shaxslar qilib voyaga yetkazishga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, bu maqsadlar adabiyot o‘qituvchilari zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Kitob mutolaasi, oilaviy kitobxonlikni rivojlantirishda o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorligi, yangi adabiy-badiiy nashrlar, o‘quv dasturlarining

uzviylashganligi, darsliklar mazmunining yildan yilga yaxshilanib, kamchiliklar bartaraf etilayotganligi va bu islohotlarning ta'lim jarayoniga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri haqidagi ilg'or ish tajribalar 2022-yil an'anaviy Avgust kengashlarida muhokama etilishi zarur.

Shu bilan birga ona tili fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlami doimiy va mavsumiy tadbirlarga ajratish mumkin. Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlarga kiradi. To'garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiydir. Ona tili to'garagining a'zolari soni 12-15 o'quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadl. Agar maktabda parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi ham mumkin. To'garak har xil nomlar bilan nomlanadi. Masalan, "Ona tilim - Jonu dilim", "Til - dil kaliti", "O'zbek tili davlat till" v.h. Mashg'ulot 15 kunda bir marta o'tkazilgani ma'qul.

Quyida to'garak mashg'ulotlaridan birini namuna sifatida keltiramiz:

5-sinflar uchun birinchi mashg'ulot.

To'garakka nom qo'yish. O'quvchilarnii to'garakning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. "To'garak bizga nima beradi?" mavzusida suhbat

O'quvchilardan til odobi, so'zlash madaniyati xususida bilgan maqollarni so'rash va mazmunini sharhlash.

Topshiriqlar:

– til odobi va so'zlash madaniyati xususidagi xalq maqollarini yig'ish va ularning ma'nolarini aniqlash.

– to'y-tomoshalarni ifodalovchi so'zlar lug'atini tuzish va ularning ma'nolarini sharhlash.

– to'garak mashg'uloti dars mashg'ulotini takrorlamaydi, balki uni to'ldiradi va takomillashtiradi.

Ona tili xonasi zamonaviy texnika vositalari, mashhur tilshunos olimlarning portretlari, donolarning til haqida aytgan hikmatli so'zlari, DTS talablari, tahlil namunalari, o'quvchilaming diktant, bayon va insho yozishlari uchun esdalik kabilar bilan jihozlangan bo'lishi, o'quv-metodik majmuani o'zida mujassamlashtirishi lozim.

Ona till xonasida ish qog'ozlaridan namunalar bo'lsa, o'quvchilar uchun ancha foydali bo'ladi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish kabilar kiradi. Savol-lavob kechasida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1-1,5 oy oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatdan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, "Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozuvlari qanday bo'lgan?", "Lotin alifbosiga o'tish bizga nima beradi?" va hokazolar.

Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zolari savollar yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar. Uchrashuvlar ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona till darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos-olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, bular orasida maktabning sobiq talabalari bo'lsa, ularni taklif etish juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1-1,5 oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir

guruh mustaqil tayyorgarlik ko‘radi. Mushoira ona tilining muayyan bir bo‘limi yoki bir necha kichik mavzularni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Orfografiya”, “So‘zning shakl va ma’no munosabati”, “Sodda gap turlari” kabi.

Ko‘rik-tanlovlar ham sinfdan tashqari ishlaring muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan tadbir bo‘lib, uni tashkil etishda o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, agar boshlang‘ich sinflarda “Kimning xati chiroyli?” kabi mavzular tanlansa, 5-6- sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insho bo‘yicha tanlov o‘tkazish mumkin. Konferensiyalar ancha murakkab tadbirlardan biri bo‘lib, u asosan 8 - 9 va undan keyingi bosqichlarda o‘tkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan o‘quvchilarga ma’lum qilinadi: bu bosh mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri bo‘yicha kimlar tayyorgarlik ko‘rishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu bo‘yicha 3-4 nafar o‘quvchi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, ulardan biri asosiy ma’ruzachi, qolganlari qo‘shimcha maruzachilar sifatida ishtirok etadilar. Olimpiadalar ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo‘lib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir. Bu tadbirga kuch sinashishni ixtiyor etgan barcha o‘quvchilar ishtirok etishlari mumkin. Olimpiada g‘oliblari maktab ma’muriyatining buyrug’i bilan rag‘batlantiriladi. Ona tili olimpiadalari yilda bir marta o‘tkaziladigan tadbirdir. Bu tadbiring birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman(shahar)da, uchinchi bosqich viloyatda va to‘rtinchi bosqichi Respublikada o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini to‘ldiradigan tadbirlardir. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda to‘garak a’zolari faol ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.

2. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. Science and Education, 1(4), 84-89.

3. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions, 271-273.

4. Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. Literature and History, (1), 89-91.

5. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 250-257.

6. Shaykhislamov, N. (2020). Main Directions and Interactive Methods of Student Speech Growth in Uzbek Language Classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(7), 115-120.

Ma’murjon AHADOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA SCIENCE (TABIIY FANLAR) FANLARINI O‘QITISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida SCIENCE (tabiiy fanlar) fanlarini joriy qilinishi va ushbu fanni o‘qitish samaradorligi haqida ma’lumotlar, taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, SCIENCE (tabiiy fanlar) fanlar tarkibiga kiruvchi kimyo fanining 5-6-sinflarda geografiya, biologiya va fizika fanlari bilan bog‘liqlikda o‘qitilishi o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilishlariga yechim topa olishlari, mustaqil fanni o‘rganishlariga turtki bo‘lishi, hamda kimyo fanining qiziqarli sir-asrorlaridan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar. SCIENCE, ilimy taqdiqotchilik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, kimyo oshxonasi, tibbiyot kimyosi, integratsiya.

В статье представлены информация, предложения и рекомендации по введению предметов НАУКИ (естественно-научные) в общеобразовательных школах и эффективности преподавания этого предмета. Также, Химия, входящая в состав НАУКИ (естественных наук), преподается в 5-6 классах в связи с географией, биологией и физикой, чтобы учащиеся могли находить решения проблемных ситуаций, мотивировать их на изучение самостоятельных наук, примеров даются интересные загадки химии.

Ключевые слова. НАУКА, научное исследование, любознательность, творчество, химическая кухня, медицинская химия, интеграция.

The article provides information, suggestions and recommendations about the introduction of SCIENCE (natural sciences) subjects in general secondary schools and the effectiveness of teaching this subject. Also; Chemistry, which is a part of SCIENCE (natural sciences), is taught in the 5th-6th grades in connection with geography, biology, and physical sciences to enable students to find solutions to problem situations, to motivate them to learn independent science, and examples of interesting mysteries of chemistry are given.

Key words. SCIENCE, scientific research, inquisitiveness, creativity, chemical kitchen, medical chemistry, integration.

Bugungi kunda kimyo, biologiya, fizika, geografiya fanlariga bo‘lgan tabbiy fanlar sohasiga e‘tibor juda kuchaydi. Biz pedagoglarning asosiy vazifamizdan biri o‘quvchida mustaqil shug‘ullanish malakasini hosil qilishidir. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda biz, o‘quvchining barcha psixik jarayonlari idrok ong, diqqat, xotira, sezgi, aql, tasavvur, tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun izlashga, qidirishga, fikrini rivojlantirishga yo‘naltiridigan bilim berishimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori bilan tasdiqlangan, “2020-2025-yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishida usluksiz ta’lim sifati hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur”ning 6-bandida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik, geografiya, fizika fanlari o‘rniga

tabiiy fan (sciene) yagona fan sifatida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish” vazifasi belgilangan.

Science fanlar ayni vaqtda o‘qitib kelinayotgan 1-2-sinfda “Atrofimizdagi olam”, 3-4-sinflarda “Tabiatshunoslik”, yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya’ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o‘zida birlashtiradi.

Yangi fan o‘quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o‘qishga rag‘batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini anglaydi va uni o‘rganishga o‘zida kuch qiziqish topa oladi.

Kimyo ta’limi moddalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari hamda ular sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq fanlarni o‘rganish bilan tavsiflanadi.

Bolalar Science fani ta’limi dasturi doirasida probirkalarda turli kimyoviy moddalarni aralashtiradilar, kimyoviy moddalar va elementlarni, ularning ta’siri va xususiyatlarini, davriy jadvalni o‘rganadilar. Kimyo mavjud barqarorlik muammolarini to‘liq tushunishga yordam berish uchun tegishli kontekstda o‘qitilishi kerak. Bu manbada ta’kidlanishicha, kimyo maktabda juda muhim fan hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarni muammolarni tushunishga o‘rgatadi. Bolalarni atrofdagi dunyo qiziqtirar ekan, kimyo o‘qituvchilari o‘z navbatida o‘quvchilarni yanada o‘qitishda qiziqish uyg‘otishi mumkin. Kimyo fani amaliy fan bo‘lib, dars vaqtining ko‘p qismi ishlash yoki tajribalarni bajarishga sarflanadi.

Tabiiy (Science) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o‘quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

PISA sinovlariga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e’tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o‘xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo‘ladigan o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

– u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o‘tkazib kelinayotgan dastur;

– ta’lim sohasidagi yirik, keng ko‘lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;

– tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo‘lgan) o‘quvchilar ishtirok etadilar;

– o‘quvchilarning “mustaqil hayotga tayyorlik” darajasi, ya’ni ularning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

– o‘quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o‘qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo‘nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko‘nikmalari baholanadi;

– tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ma’lumot olish imkonini beradigan axborot to‘planadi.

Science fani o‘quvchilarda muammoli-ijodiy vazifalardan foydalanish nafaqat kimyoviy fanlarning individual sifatlarini shakllantirishdagi rolini aniqlashga imkon beradi, balki nafaqat kimyo, balki biologiya, geografiya, fizika, adabiyot, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Science fani orqali o‘quvchilar o‘zlarida quyidagi savollarning birortasi haqida hech

o‘ylab ko‘rganliklari haqida xulosa chiqaradilar:

– Men nimadan yaratilganman?
– O‘lgan o‘simliklar, hayvonlar va ularning chiqindilari qayerga g‘oyib bo‘ladi?
– Nima uchun muzlatilgan suv suyuq suvdan farq qiladi?
– Kimyoviy reaksiyada nima sodir bo‘ladi?
– Elektr nima?
– Quyosh atrofida sayyoralar qanday shakllangan?

Science fani sizga yangi ko‘nikmalar va texnikalarni mashq qilishga, muvaffaqiyatingizni tekshirishga va ko‘proq bilish uchun o‘zingizni sinab ko‘rishga undaydi. Shunigdek siz turli fanlar o‘rtasida aloqa o‘rnatasiz va ular matematika, ingliz tili va boshqa fanlar bilan qanday bog‘lanadi bu haqida bilib olasiz.

Science fanlari orqali o‘quvchilarga quyidagi o‘qitish va kichik tadqiqotlarni o‘zlari mustaqil bajara olishlari uchun tavsiyalardan namunalar keltirib o‘tamiz:



1. Barchamiz iste’mol qiladigan bodringni hammamiz bilamiz. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun bodiring hosili egri, sarg‘aygan bo‘lib o‘sadi? Bu hol odatda iyun-avgust oylarida bodring palaklari oxirlashganda sodir bo‘ladi. Buning sabablar haqida qiziqib ko‘rganmisiz?

(Agar o‘simliklar azot yetishmasa, bodring qalampir kabi egri o‘sadi. Bu odatda yozning oxirida, tuproqdagi o‘simliklarning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan elementlar miqdori kamayganda sodir bo‘ladi).

Topshiriq: mineral azotli o‘g‘itlar deb nomlanadigan tuzlarning formulalarini yozing.


Ijodiy vazifa: ‘‘Azotning o‘simlik hayotidagi biologik roli’’ haqida kichik tadqiqot o‘tkazing. Buning uchun yoz kunlarida konditsioner ishlatganimizda undan oqadigan suv tomchilarini yig‘ing va xona gullariga bering va ulardagi o‘zgarishni kuzating. Bunday suv azotga to‘yingan suv bo‘lib o‘simliklar uchun hayot baxsh etuvchi suv hisoblanadi.

2. Rasm darslarida siz turli xil rangdagi qalamlardan foydalanasiz. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz qalam nima sababdan qog‘ozga iz qoldiradi. Qalam o‘rniga qadimda nimadan foydalanilganligini bilasizmi?

Grafit va ko‘mir qalamlaridan farqli o‘laroq, rangli qalamlarning yadrolari mum yoki moyga asoslangan bo‘lib, turli nisbatlarda pigmentlar, qo‘shimchalar va bog‘lovchi moddalarni o‘z ichiga oladi. Suvda eruvchan (akvarel) qalamlar va pastel qalamlar, shuningdek, mexanik qalamlar uchun rangli yadrolar ham ishlab chiqariladi.

Topshiriq:qora qalam bilan rangli qalam bilan rasmlarni bo‘yang qanday farqni sezasiz. Xulosangizni chiqaring va sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing?

Ijodiy vazifa: rangli qalamni oz miqroda oling va suvga soling, suv yuzasida yog‘ donachalarini ko‘rasizmi. Bundan bilish mumkinki ,qora qalam bilan rangli qalam o‘rtasida moysimon moddalar qo‘shilishi va ranglarni uzoq vaqt qog‘ozda qolishini ta’minlashini ko‘rishimiz va guvohi bo‘lishimiz mumkin.



3. Qaynab turgan suvga osh tuzi qo‘shganimizda u qaynashdan bir muddatda to‘xtaydi va yana bir ozdan so‘ng qaynashda davom etadi. Buning sababini o‘ylab ko‘rganmisiz?

Topshiriq: Suvning fizik va kimyoviy xossalarini

o‘rganing? Nima uchun suv 3 xil holatda bo‘la olishining sabablarini ko‘rsating?

Ijodiy vazifa: Qaynab turgan suvga osh tuzi solib tajribani sinab ko‘ring? Bu tajribani shakar bilan bajarib farqini daftaringizga yozing? Sovuq suvda tuz va shakar tez eriydimi yoki issiq suvdami? Bu savolga ham javob toping va xulosangizni yozing?



Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlaymizki, yangi o‘quv yilidan boshlab joriy etiladigan Science fani 5-6 sinf o‘quvchilarida dunyoni to‘liqligicha tushunish va o‘rganishga yordam beradi. Science fani(Tabiiy fanlar) darslarida integratsiyadan foydalangan holda o‘qish jarayonini tashkillashtirilsa, o‘quvchilarning fanga qiziqish bilan yondashadilar. Science fani joriy qilinishi fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yishda, o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishlari, kichik tadqiqotlarni olib borishlari fanlarini chuqur o‘rganishlariga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belyakov G.P. Iqtisodiyotdagi integratsion jarayonlar: muammolar, izlashlar, yechimlar. Monografiya / G.P.Belyakov - M.: MAI nashriyoti; 2003. – 243 b.

2. Sorokin, I.O. ‘‘Integratsiya’’ tushunchasining nazariy asoslari va uni amalga oshirish tamoyillari / I. O. Sorokina // Rossiyada va chet ellarda menejment. - 2008. – № 2. 3-6 betlar.

3. Ixtiyarova G., Bekchanov D., Ahadov M. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T. Universitet nashryot. 108-109-b.

Rixsivoy ZIYAYEV,
Toshkent davlat agrar universiteti, ‘‘Fizika va kimyo’’ kafedrasi professori,
To‘raqul ESHBOBOYEV,
Toshkent davlat agrar universiteti, ‘‘Fizika va kimyo’’ kafedrasi assistenti

D. I. MENDELEYEVNING ZAMONAVIY ELEMENTLAR DAVRIY JADVALINI IFODALANISHI VA TUZILISHI

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda chet el kimyo adabiyotlarida D. I. Mendeleyevning zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvalning yoyiq shakli qo‘llanilmoqda. Maqolada O‘zbekistonda endigina qo‘llanila boshlangan zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvalning 18 gruppani o‘z ichiga olgan shaklini tuzilishi va ifodalanishi berilgan.

Kalit so‘zlar. Kichik davr, katta davr, oila, s-elementlar, p-elementlar, d-elementlar, f-elementlar, g-elementlar, lantanoidlar, aktinoidlar, superaktinoidlar.

В настоящее время в зарубежной химической литературе используется современная форма периодической таблицы химических элементов Д. И. Менделеева. В статье описывается структура и представление современной формы периодической таблицы, включающей 18 групп, которая только начинает использоваться в Узбекистане.

Ключевые слова. Малый период, большой период, семейство, s-элементы, p-элементы, d-элементы, f-элементы, g-элементы, лантаноиды, актиноиды, суперактиноиды.

At present, the modern form of the periodic table of chemical elements of D. I. Mendeleev is used in the foreign chemical literature. The article describes the structure and presentation of the modern form of the periodic table, including 18 groups, which is just beginning to be used in Uzbekistan

Key words. Small period, long period, family, s-elements, p-elements, d-elements, f-elements, g-elements, lanthanides, actinides, superactinides.

Buyuk rus kimyogari Dmitriy Ivanovich Mendeleyev (1834-1907) 1869-yil 1-marta o‘zining elementlar davriy qonuni va bu qonun asosida tuzgan davriy jadvalni rus va chet el kimyogarlariga alohida yozib e’lon qiladi va 5 kundan keyin 6-mart 1869-yilda bu davriy qonun va jadval kashf etilganligi haqida rus kimyogarlar jamiyati majlisida D. I. Mendeleyev nomidan Nikolay Aleksandrovich Menshutkin (1842-1907) axborot beradi.

D. I. Mendeleyev o‘sha vaqtda aniq bo‘lgan 64 ta kimyoviy elementlarni atom massalari ortib borish tartibda joylashtirib, elementlarning atom massalarini ortib borishi bilan ularning xossalari davriy ravishda o‘zgarish qonuniyatini ya’ni o‘zining davriy qonunini yaratdi va qonunning grafik shakli elementlar davriy jadvalini tuzdi.

Davriy qonunning ochilishi kimyo fanida katta kashfiyot bo‘lib, ko‘pgina elementlarning atom massasidagi noaniqliklarni bartaraf etishda va hali ochilmagan yangi elementlarning mavjudligini oldindan aytib berish imkoniyatini yaratdi.

D.I. Mendeleyev davriy jadvalni tuzish vaqtida ko‘p kataklar, masalan, 21, 31 va 32 bo‘sh edi. Mendeleyev bu kataklarga joylashtirish kerak bo‘lgan hali noma’lum elementlarni “ekabor”, “ekasilitsiy” va “ekaaluminiy” deb nomlab, ularning asosiy xossalarini oldindan aytib beradi va atom massalari, valentliklarini aniqladi. Xattoki, u bu

noma’lum elementlarning olinish usullarini ham ko‘rsatib beradi. Ma’lumki, keyinchalik D.I. Mendeleyevning bu ilmiy bashorati to‘la isbotlandi. Uning hayotlik vaqtidayoq bashorat qilingan bu 3 ta elementlar kashf etildi:

– 1875-yilda fransuz kimyogari Lekok de Buabodran(1838-1912) z = 31 tartib raqamli “galliy”ni;

– 1879-yilda shved kimyogari L. Nilson (1840-1899) z = 21tartib raqamli “skandiy”ni;

– 1886-yilda nemis olimi K. Vinkler (1838-1904) z = 32 tartib raqamli “ekasilitsiy”ni kashf etib, uni o‘z vatani sharafiga germaniy deb nom beradi.

D. I. Mendeleyevning davriy qonuni hozirgi zamon kimyo faniga asos soldi va uni yagona, butun bir fanga aylantirdi. Davriy qonunni kashf etilishi tabiatda yangi elementlar borligini va ularning birikmalarini oldindan aytishga, hamda xossalarini bayon qilishga imkoniyat yaratdi. Bunga misol tariqasida Mendeleyevning o‘zi kashf etmagan elementlarning mavjudligini oldindan aytib, ulardan yuqorida keltirilgan uchtasini (Ga, Sc Ge) xossalarini aniq bayon qilganini aytish mumkin. Davriy jadval ba’zi elementlarning (masalan, Be berilliy) valentligi va atom massasini aniqlashda katta rol o‘ynadi.

Hozirgi vaqda kimyoviy elementlar davriy jadvalida 126 ta elementlar berilgan bo‘lib, uning ko‘p turli shakllari mavjud. 1989-yilda IYuPAK yangi 18 gruppadan iborat elementlar davriy jadvalning uzun shaklini qo‘llashni taklif etadi.

Lekin, hozirgacha Rossiya, shu jumladan, O‘zbekiston kimyo o‘quv adabiyotlarida davriy sistemaning qisqa (8 gruppalik) shaklidan foydalanib kelmoqda. Zamonaviy chet el kimyo adabiyotlarida davriy jadvalning yangi 18 gruppani o‘z ichiga olgan shakli qo‘llanilmoqda. Maqola ilovasida keltirilgan davriy jadval takomillashgan va ko‘p ma’lumotlar bilan boyitilgan. Jadvalning har bir elementga ajratilgan o‘rni (katagi)da: elementning tartib raqami, ya’ni element atomining yadro zaryadi; kimyoviy belgisi; elementning nomi; nisbiy atom massasi; nisbiy elektromanfiyligi; oksidlanish darajalari; elektron formulasi keltirilgan. Ayni elementning davriy jadvalda joylashgan o‘rni (tartib raqami)ga qarab, uning atom yadrosining tuzilishi, elementning qaysi “oila”ga mansubligi va kimyoviy xossalari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Maqola ilovada keltirilgan zamonaviy davriy jadvalning yoyiq shaklida, jadvalning qisqa shaklida har bir gruppa asosiy(A) va qo‘shimcha (B) gruppachalari bo‘linib, ular alohida vertikal qatorda berilgan. Ularning tashqi elektron qavatida elektronlar soni bir bo‘lsada, xossalari keskin farq qiladi.

Masalan, Ia gruppada eng aktiv ishqoriy metallar: Li, Na, K, Rb, Cs va Fr (s -elementlar) joylashgan bo‘lsa, 1b Cu, Ag , Au (d-elementlar)) joylashgan. So‘nggi vertikal qator 0 bo‘lib, bu qatorda inert gazlar joylashgan. Har ikkala davriy jadvalda, har biri 14 ta elementlardan tashkil topgan:

Lantanoidlar yoki “siyrak yer elementlar” (Z = 58 dan Z = 71gacha) va

Aktinoidlar (Z = 90 dan Z = 103 gacha) jadvalning past qismida alohida gorizontal qatorlarda keltirilgan.

Keltirilgan zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvali takomillashtirilgan bo‘lib, ko‘p ma’lumotlar bilan boyitilgan. Masalan, har bir element uchun ajratilgan katakda:

- elementning tartib raqami, ya’ni yadro zaryadi;
- kimyoviy simvoli (belgisi);
- elementning nomi;
- nisbiy atom massasi;
- oksidlanish darajalari;
- nisbiy elektromanfiyligi;

● elektron formulasi (konfigratsiyasi)

Shunday qilib, bu zamonaviy jadval har bir element to‘g‘risida ko‘pgina ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kichik qomusiy dastur bo‘lib, kimyo sinfi xonasida va o‘quvchilarning o‘quv stolida bo‘lishi zarur bo‘lgan va ularning kimyo fanini chuqur o‘rganishlari uchun muhim va foydali o‘quv material hisoblanadi.

Davrlarda elementlarning joylashuvi. Birinchi davrda faqat ikki element: vodorod va geliy joylashgan. Ikkinchi va uchinchi davrlarda esa 8 tadan elementlar joylashgan bo‘lib, bu uch davrlar kichik davr deyiladi. IV, V, VI va VII davrlar katta davrlar deb atalib, IV va V davrlarning har birida 18 tadan elementlar mavjud. VI davr 32 ta elementlardan, shu jumladan, lantanoidlardan iborat. VII davr ham 32 elementdan, shu jumladan, 14ta elementlardan iborat aktinoidlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Jadvalda keltirilgan 8-davr hali ochilmagan bo‘lib, undan o‘rin olgan 8ta elementlar ham kashf etilmagan, ya’ni to‘liq sintez qilinganligi e’lon qilinmagan. Bu elementlarning jadvalda berilgan nomlari shartli bo‘lib, hozirgi kunda ularning sintez qilish bo‘yicha bir qator ekspremеntlar olib borilgan, olib borilmoqda va kelgusida rejalashtirilgan.

Davrlarda elementlarning atomlarida elektronlarni energetik qavatlar (pog‘ona va pog‘onachalar)da joylanish tartibi quyidagicha:

a. I - davr: K energetik qavat (n = 1); 1s2;
b. II - davr: L energetik qavat (n = 2); 2s22p6;
c. III - davr: M energetik qavat (n = 3); 3s23p6 ;
d. IV va V-davrdan boshlab, 3d va 4d pog‘onachalar elektron bilan to‘la boshlaydi;
e. VI-davrda 4s, 4p va 4d orbital (pog‘onacha)lar to‘lish bilan birga 4f pog‘onacha (lantanoidlarda) elektron bilan to‘lib boradi;
f. VII-davrda aktinoidlar joylashgan bo‘lib, ularda 5f pog‘onacha elektronlar bilan to‘lib boradi.

Element atomlarida elektronlarning qaysi pog‘onachada joylanishiga qarab, barcha hozirgacha ma’lum elementlar:

s – elementlar;
p – elementlar;
d – elementlar va
f – elementlarga bo‘linadi.

Davriy jadvalda bu elementlar turli ranglarda ifodalangan. Masalan, s □ elementlar qizil, p – elementlar to‘q sariq, d – elementlar ko‘k va f – elementlar esa yashil rangda aks ettirilgan.

Jadvalning 8-davr 121-elementi 121Ubu kashf etilsa, elektron modeliga ko‘ra birinchi g – element bo‘ladi.

Elementlarning vertikal qatorlarda joylanishi. Davriy jadvalning har bir vertikal qatorida bir kimyoviy gruppaga yoki “oila” ga mansub elementlar joylashgan. Ilovada keltirilgan davriy jadval 18 vertikal kolonka (qator)dan iborat bo‘lib, quyida kimyoviy elementlarning asosiy “oila” lari (gruppalari) keltirilgan:

– Ia: ishqoriy metallar – Li, Na, K, Rb, Cs, Fr; ns1
– IIa: ishqoriy yer metallar – Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra; ns2
– IIIa: yer metallar – B, Al, Ga, In, Tl; ns2 np1
– IVa: karbonidlar – C, Si, Ge, Sn, Pb; ns2 np2
– Va: azotidlar – N, P, As, Sb, Bi; ns2 np3
– VIa: xalkogenlar – O, S, Se, Te, Po; ns2 np4
– VIIa: galogenlar – F, Cl, Br, I, At; ns2 np5

– VIII: uch qatordan iborat (“triadalar”) – Fe, Co, Ni; Ru, Rh, Pd va Os, Ir, Pt

– XVIII(0): inert gazlar – He, Ne, Ar, Kr, Xe, Rn; ns2 np6

Ia va IIa gruppa elementlari s– elementlar hisoblanadi.

IIIa, IVa, Va, VIa va VII a gruppalar elementlarining atomlarida 3p, 4p, 5p, 6p va 7p energetik pog‘onachalar elektronlar bilan to‘lib boradi. Shu sababli, ular p-elementlar hisoblanadi.

Ib, IIb, IIIb, IVa, Vb, VIb, VIIb vertikal qatorlarda “oraliq metallar” joylashgan bo‘lib, turli oksidlanish darajalariga ega bo‘ladi va ularda d-pog‘onachalar elektronlar bilan to‘lib boradi. Shu sababli, ular d – elementlar deyiladi. Quyida bu gruppalar elementlari (d-elementlari) va ularnig elektron formulasi keltirilgan:

Ib: mis gruppachasi – Cu, Ag, Au; (n – 1)d10 ns2

IIb: rux gruppachasi – Zn, Cd, Hg; (n – 1)d10 ns2

IIIb: skandiy gruppachasi – Sc va Y; (n – 1)d1 ns2

IVb: titan gruppachasi – Ti, Zr, Hf; (n – 1)d2 ns2

Vb: vanadiy gruppachasi – V, Nb, Ta; (n – 1)d3 ns2

VIb: xrom gruppachasi – Cr, Mo, W; (n – 1)d4 ns2

VIIb: marganes gruppachasi – Mn, Tc, Re; (n – 1)d5 ns2

VIII – qator o‘ziga xos aloxida o‘xshash uchlik element (triada)lar- dan iborat. Bular: Fe, Co, Ni; Ru, Rh, Pd va Os, Ir, Pt lardir.

Lantanoid va aktinoidlar jadvalda alohida qatorlarda berilgan. Ularning har biri 14 elementlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi sun’iy va radioaktiv elementlar hisoblanadi. Lantanoidlarda 4f pog‘onacha, aktinoidlarda esa 5f pog‘onacha elektronlar bilan to‘lib boradi. Shuning uchun ularni f–elementlar deb ataladi.

1. Davriy jadvalning gorizontal qatori davr deb atalib, unda elementlar chapdan o‘ngga tomon tartib raqamlari yoki yadro zaryadlari (Z) ortib borish tartibda alohida kataklarga joylashtirilgan. Jadval 8 ta davrdan tashkil topgan.

2. Jadvalning bir vertikal qatorida joylashgan elementlar alohida gruppa yoki “oila”ni tashkil etib, har bir gruppa (oila) elementlarining tashqi energetik qavatida elektronlarning soni bir xil va xossalari esa o‘xshash bo‘ladi. Davriy jadval 18 vertikal kolonka (qator) dan iborat. Kimyoviy elementlarning asosiy gruppalari:

– Ia: ishqoriy metallar – Li, Na, K, Rb, Cs, Fr; ns1

– IIa: ishqoriy er metallar – Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra; ns2

– IIIa: er metallar – B, Al, Ga, In, Tl; ns2 np1

– IVa: karbonidlar – C, Si, Ge, Sn, Pb; ns2 np2

– Va: azotidlar – N, P, As, Sb, Bi; ns2 np3

– VIa: xalkogenlar – O, S, Se, Te, Po; ns2 np4

– VIIa: galogenlar – F, Cl, Br, I, At; ns2 np5

– (0): inert gazlar – He, Ne, Ar, Kr, Xe, Rn; ns2 np6

3. Element atomlarida elektronlarning qaysi pog‘onachada joylashishiga qarab, barcha hozirgacha ma’lum elementlar: s - , p - , d - , va f – elementlarga bo‘linadi. Davriy jadvalda bu elementlar turli ranglarda ifodalangan. Masalan, s – elementlar qizil, p – elementlar to‘q sariq, d – elementlar ko‘k va f – elementlar esa yashil rangda aks ettirilgan.

5. Davriy jadvalda # lantanoid (58-71), ¤ aktinoid (90-103) va ¤¤ super-aktinoid (121-126) lar jadvalning past qismida alohida gorizontal qatorlarda keltirilgan. Lantanoid va aktinoidlarning har biri 14 elementlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi sun’iy va radioaktiv elementlar hisoblanadi. Lantanoidlarda 4f pog‘onacha, aktinoidlarda esa 5f pog‘onacha elektronlar bilan to‘lib boradi. Shuning uchun ular f – elementlardir. ¤¤Superaktinoid (121-126) lar esa hali kashf etilmagan.

6. Jadvalda keltirilgan 8-davr hali ochilmagan bo‘lib, unda o‘rin olgan elementlar ham kashf etilmagan, ularning shartli muvaqqat nomlari va kimyoviy belgilari, hamda taxminiy elektron formulalari berilgan.

7. 119-element sintez qilinib olinsa, davriy jadvalning 8-davrining 1-elementi bo‘ladi; 121-element 121Ubu kashf etilsa elektron modeliga ko‘ra birinchi g-element hisoblanadi;

8. Davriy jadvalda 126 elementlar keltirilgan bo‘lib, ulardan: 8tasi hozircha kashf etilmagan, 28 ta element sintez qilib olingan sun’iy elementlar hisoblanadi.

9. Jadvaldagi 2ta element: Hg va Br suyuq; 11 ta elementlar: H, N, O, F, Cl, He, Ne, Ar, Kr, Xe va Rn gazsimon; qolganlari esa qattiq holatda olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muftahov A. “Umumiy kimyo” 11-sinf uchun darslik. –T.: O‘qituvchi-2014.

2. Ziyaev R., Panjiev O. “Zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvali” O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qo‘llanma. –T.: Voris-nashriyot – 2021.

3. Antony M. S. “Tableau Périodique des Eléments” Strasbourg –2016.

Sarvar SOBIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BADIIY ADABIYOTLARGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASHNING AN’ANALARI
(Tarbiya klasteri asosida)

Annotatsiya

Maqolada badiiy adabiyotda illyustratsiyalar bilan ishlashning zamonaviy yondoshuvlari, ta’lim klasterining ahamiyati, rassomning illyustratsiya ishlashdagi vazifalari, illyustratsiya ishlashda rassomning adabiy asar syujetini ochib berishi, bolalar kitobiga ishlangan illyustratsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari va obrazni ifodalashdagi ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan, Shuningdek, bolalar kitoblariga illyustratsiya ishlashda bolalarning yosh xususiyatlari, kitob mazmunini idrok qilishda illyustratsiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim klasteri, vizual, hissiy idrok, estetik sezgirlik, zamonaviy kitob, illyustratsiya, dizayn, syujet, illyustrator, adabiy uslub, grafik elementlar, grafik rassom, kompyuter grafikasi, vektor grafikasi, o‘yma.

В статье описаны современные подходы к работе с иллюстрацией в художественной литературе, значение образовательного кластера, задачи художника в работе иллюстратора, способность художника раскрыть сюжет литературного произведения в работе иллюстратора, особенности иллюстрации к детским книгам и их значение в выражении образа, а также детских книг. Выделены возрастные особенности детей при работе с иллюстрациями, значение иллюстраций в понимании содержания книги.

Ключевые слова. Образовательный кластер, зрительное, эмоциональное восприятие, эстетическая чувствительность, современная книга, иллюстрация, дизайн, сюжет, иллюстратор, литературный стиль, графические элементы, художник-график, компьютерная графика, векторная графика, гравюра.

The article discusses the modern traditions of working with illustrations in fiction, the importance of the educational cluster, the role of artists in illustration, the complementarity of the writer and the artist in the work of illustration, the specifics of children's illustrations and the importance of image. goes In addition, the role of illustrations in understanding the content of the book, the age difference in children when working with illustrations in children's books.

Key words. Educational cluster, visual, emotional perception, aesthetic sensitivity, modern book, illustration, design, plot, illustrator, literary style, graphic elements, graphic artist, computer graphics, vector graphics, engraving.

Badiiy adabiyotning matnini vizual ochib berish juda murakkab jarayon bo‘lib, rassomlardan muayyan vazifalarni bajarishni talab qiladi. Kitob illyustratsiyasi tasviriy san’atning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida hissiy idrokini shakllantirishga alohida ta’sir ko‘rsatadi, estetik sezgirlikni rivojlantiradi, badiiy tasvirlar orqali adabiy asar mazmunini ochib beradi, ayniqsa, tezkor idrokni rivojlantiradi. Illyustratsiyalar, shuningdek, ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishga, taqdim etilgan materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bolalar kitoblari va badiiy adabiyotlarga ishlangan illyustratsiyalar o‘ziga xos didaktik funksiya bajaradi. Jumladan, o‘quvchi yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllan-

tirish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Kitob grafikasiga oid materiallar orqali o‘quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik, xislatlarini rivojlantirish, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish hozirgi globallashuv davrida juda muhim ahamiyatga ega. Zero, adabiy asarlar, ularga ishlangan illyustratsilarda shunday insoniy xislatlar tarannum etilgan.

Illyustratsiya – kuchli ta’sir vositasidir. U badiiy asarni ham boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu illyustratorning mahoratidan balki, bayon qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o‘zlashtirgani va uning dunyoqarashiga bog‘liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o‘qib qay darajada tushunganligi ham hal qiladi. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va harakatlariga individual munosabati aks etadi. Yaxshi kitob kattalar uchun naqadar foydaligini bilsak, kichik yoshdagi bolalarni voyaga yetishida beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu masalada illyustrator ya’ni grafik rassom kichkintoylar didi dunyoqarashini tarbiyalovchi birinchi tarbiyachisi hisoblanadi. Yorqin rang-barang quvnoq chizgilar tasviri bir umrga yosh bolaning xotirasida qoladi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblarni bezash uchun rassomdan tasvirlanayotgan predmetga, yosh bolaning fikri va ko‘zi bilan qaragan holda yondoshish talab etiladi. Bunday yondoshish orqali muvaffaqiyat qozoniladi. Kitob rassomi va o‘quvchi o‘rtasida badiiy bog‘lanish bo‘ladi. Odatda bolalar o‘zlariga yoqqan rasmlardan nusxa ko‘chirishga urinadilar, bu bilan ular o‘zlarining qobiliyatini ko‘rsatmoqchi bo‘lishga intiladilar. Hali ularning tajribasi, fikrlashi mustaqil tarzda illyustratsiyalar (bezaklar) chizishga yetarli emas. Illyustratsiyadagi ranglar bolalar tasavvuriga ta’sir etishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo‘lib xizmat qiladi, bu uning badiiy qiymati, hissiy ta’sir darajasi, undan o‘quvchining estetik tarbiyasi jarayonida foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Rasm bolalarning bilimlarini oshirish, axloqiy qadriyatlar, estetik g’oyalarni rivojlantirish va badiiy asarlarni idrokini chuqurlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobni illyustratsiyasiga qarab tanlaydilar. Bundan tashqari illyustratsiyalar bolalar tomonidan ertak va badiiy asar matnini o‘zlashtirishga, ertak va badiiy asarning mavzusi, g’oyasi, obrazlari haqida tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni ertak va badiiy kitoblarni o‘qish uchun qiziqtiruvchi va rag’batlantiruvchi omil bu illyustratsiylardir. Tasviriy san’atning o‘ziga xos turi sifatida kitob illyustratsiyasi dunyoni hissiy idrokini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, bolada estetik sezgirlikni rivojlantiradi.

Kitobdagi rasm bolalarning tasviriy san’at olami bilan birinchi uchrashuvidir. Kitob mazmunini to‘ldirish va chuqurlashtirish, bolada haqiqiy san’at asari vujudga keladigan tuyg‘ularni uyg‘otish, uning vizual idrokini boyitish va rivojlantirishda kitob illyustratsiyasi estetik vazifani bajaradi. Bola idrokining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan illyustratsiyalar tufayli kitobga qiziqish paydo bo‘ladi. Ushbu ma’lumotni inobatga olgan holda o‘qituvchi, ulardan maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishi tavsiya etiladi.[1]

Badiiy adabiyotda muallif tomonidan yozilgan voqealarni o‘quvchi tomonidan murakkab jarayon bo‘lib, illyustrator rassomning vazifalardan biri tarixiy va kundalik voqeliklarni illyustratsiya asosida aniq ifodalashdan iborat.

[1] Sobirov S.T, Sultanov X. E, Ismatov U. Sh. “Illustration and the Influence of Illustrator on Children’s Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books”. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020.

Klassik adabiyot asarlari uchun ishonchli rasmlar bu o‘sha davr rassomlari tomonidan yaratilganligi uchun yangi nashrlarda ko‘pchilik muharrirlar ilgari ishlatilgan yoki eski rasmlarni qayta bosib chiqarish an’anasi paydo bo‘lgan. Kitobni loyihalashtirishga bunday yondashuv qarama-qarshi bo‘lgan qarordir, chunki bizning davrimizda ko‘plab rassomlar buning teskarisini isbotlaydilar – ular ma’lum bir davr hayotini va har qanday tarixiy tafsilotlarini yangi davrning ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda aks ettirishga qodir.

Ularning asarlari badiiy va mafkuraviy fazilatlar bo‘yicha mukammalligi bilan ajralib turadigan, oldingi davrlar haqida yangi tushuncha va tasavvurga ega rasmlardir. V. N. Lyaxovning so‘zlariga ko‘ra, “Rassomlarni izlanishga undaydigan kuchli turtki bu, avvalambor, klassik va zamonaviy adabiyotni anglashda yangi ufqlarni kashf etishdir. Bir qator tadbirlarning ochib berilishi va o‘zlashtirilishidan qoniqmagan san’atkorlar adabiyotning tubiga kirib boradilar, yaqinda ularning e’tiboridan chetda qolgan asarlardan parchalar olishga harakat qilmoqdalar”.[2]

Zamonaviy kitob – bu kitobni nafaqat taqdim etilgan materiallar, balki vizual hamrohlik orqali, o‘quvchining e'tiborini butunlay va to‘liq jalb qila oladigan, uni o‘ziga xos fazoga jalb qiladigan mavzu. M.V. Stroganovning fikriga ko‘ra ‘‘Yozuvchi va rassom hammualliflar sifatida birgalikda kitob yaratadilar va tayyorlaydilar, shuning uchun matn va grafik tasvirlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi’’. Hozirgi kunda illyustratsiya kitobni shunchaki bezashdan ko‘ra muhimroq funktsiyaga ega. Illyustratsiya, birinchi navbatda, badiiy matnni tanib olishning va uni har tomonlama ochishning samarali usuli bo‘lish bilan birgalikda, M.V. Stroganovning fikriga ko‘ra ‘‘Adabiy asarga ishlangan illyustrtatsiya o‘quvchisining ijodiy faoliyatini ma’lum darajada cheklaydi, chunki u matnni aniq vizual izohlashni talab qiladi’’.[3]

Yuqorida aytib o‘tilganidek, illyustrtsiya – muhim tafsilotlarning ishonchli tasvirlanishiga, muallifning maqsadini aniqroq ochib berishga, ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Deyarli ko‘pchilik odamlarning idrok qilishning asosini – ko‘rish qobiliyati orqali idrok etish tashkil etadi. Negaki, aynan shu vizual tasvirlarni qo‘lga olib ko‘rish mumkin va bu jarayonda ko‘proq esda qoladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, hozirgi paytda illyustratsiya matn mazmunini ochish usuli sifatida, balki badiiy tasvirlarda aks ettirilgan ma’lumotni tezda o‘zlashtirish usuli sifatida ham ishlaydi.

Illyustratsiyaning hissiy va ruhiy jihatdan ta’sirli bo‘lishi – ko‘rgan narsasining taassurotlarini sezilarli darajada olishga qodir odamga ta’sir qiladi. Mobodo badiiy adabiyot matn mazmunini ochib berish uchun illyustrasiyalar yoki rasmlar to‘g‘ri tanlanmagan bo‘lsa ko‘zlangan maqsadga erishila olinmaydi. Masalan: kitobning yaxlit dizayni asarning syujetiga, o‘quvchilarning yosh toifasiga, muallifning adabiy uslubiga to‘g‘ri kelmasa ham kitob o‘z auditoriyasini topa olmaydi. Kitobning keng auditoriyani qamrab olish nafaqat illyustrator tomonidan tayyorlangan illyustratsiyalar sifatiga, balki sifatli nashr etilishiga ham bog‘liq. Shuning uchun ham illyustratsiya ishlanadigan kitoblarga sifatli poligrafiya mahsulotlari – qog‘oz bo‘yoqlar ishlatilishi talab etiladi.

Bugungi kunda klassik va zamonaviy badiiy asarlarni illyustratsiyalar bilan bezash uslublari yaxlitligi, o‘quvchilar auditoriyasiga mo‘ljallanganligi nuqtai nazaridan bir qator

[2] Бакулина Н.А, Трынова Т.В. “Современные тенденции иллюстрирования художественной литературы”. КУЛЬТУРОЛОГИЯ И ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ. IV международная научная конференция. Молодой учёный. С. 25-27.

[3] Stroganov, M. V. M. S. Bashilov - rassom L. V. Tolstoy va M. E. Saltikova-Shchedrin // kiberleninka. URL: https: // kiberleninka. ru / maqola / v / m-s-bashilov-illyustrator-l-n-tolstogo-i-m-e-saltykova-schedrina.

xususiyatlarga ega. Kitobat san'atining taniqli tadqiqotchisi V.N.Lyaxov shunday deydi – ‘‘Kitob orqali kitobxonlarning harakatini yo‘naltiradi va shu bilan uni idrok etish ritmini belgilaydi, balki uning umumiy badiiy natijasini to‘ldiruvchi (yoki buzadigan) tasavvur doiralarini kengaytiradi’’.[4]

Kitobni bezashda illyustrator uchun ustuvor yo‘nalish bu muhim uyg‘un parametrlarni birlashtirgan yagona nashr tushunchasini shakllantirishdan, ya’ni grafik elementlar - bosh harflar, rasmlar, shriftlar, o‘lchamlar, uslublari, intervallari va boshqalardan iborat. Agar matnning umumiy tarkibi va uni qo‘llab-quvvatlaydigan vizual materiallar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, birinchi navbatda, o‘quvchilarni kitob dizayni va illyustratsiyalar orqali umumiy tushunchaga ega bo‘lish orqali kitobni o‘qishni xohlaydi.

Badiiy adabiyotlarga illyustratsiya ishlashning zamonaviy tendensiyalari kompyuterning turlicha grafik daasturlaridan iboratligi bilan tavsiflanadi. Ayni paytda alohida e’tirof etish joizki, ayrim hollarda kompyuter grafikasida bajarilgan ishlarda tasviriy san’atning ifodaviy vositalariga xos jihatlar to‘laqonli ifodalanmaydi.

Illyustratsiya, avvalo, o‘quvchining hissiyotlariga kuchli estetik ta’sir etuvchi vositasidir. U badiiy asarni ham boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu illyustratorning mahoratidan tashqari, bayon qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o‘zlashtirgani va uning dunyoqarashiga ham bog‘liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o‘qib qay darajada tushunganligi ham bog‘liq. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va harakatlariga individual munosabati aks etadi.[5]

Kitobni tasvirlashning muhim xususiyati – bu butun vizual doiraning yaxlitligi. Barcha tasvirlarni bitta kompozitsiya bilan birlashtirish ushbu asarning yanada to‘liqroq yoritilishiga yordam beradi, uning ahamiyatini oshiradi va ma’lum tafsilotlarni ta’kidlaydi.

Illyustratsiya va rasmlar ma’lum bir ketma-ketlikda joylashtirilishi va hikoyaga va bir-biriga mos bo‘lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, vizual parchalar kitob bo‘ylab tarqatilishi va shu bilan ma’lum bir ritmga asoslanishi kerak. Har bir rassomning o‘ziga xos uslubi tufayli illyustratsiya subyektivdir. Turli xil illyustratorlar tomonidan badiiy asarga ishlangan illyustratsiyalar chizish uslubi, g‘oyaviy shakl va kompozitsion yechishda, ranglarni tanlashdagi yondoshuvlari, turlicha bo‘ladi. Bunga misol qilib Servantesning “Don Kixot” asariga taniqli rassomlar Dorye hamda Domyelar tomonidan ishlangan illyustratsiyalar, O‘zbekistonlik kitob bezovchi rassomlar Telmon Muhamedov, Abduboqi G‘ulomov, Abduqahhor Maxkamovlarning “O‘zbek xalq ertaklari” ga ishlangan turkum illyustratsiyalar misol bo‘ladi. Barcha ajralib turadigan xususiyatlarning kombinatsiyasi rassomning o‘ziga xos uslubini belgilaydi.

Hozirgi davrga kelib ta’kidlab o‘tganimizdek, kitoblarni badiiy bezashning eng mashhur usullaridan biri kompyuter grafikasi, vektorli grafika, akvarel va turli xil gravyuralash texnikalarini o‘z ichiga olgan an‘anaviy usullardan keng ko‘lamda qo‘llanilayotganligi. Ko‘p jihatdan, uslub va texnikani tanlash mo‘ljallangan auditoriya va ularning tayyorgarligiga bog‘liq. Kitobga rasm va illyustratsiyalar ishlashda o‘quvchilarning yosh toifasini hisobga olish kerak, chunki kattalar va bolalar badiiy matnni idrok etish jarayoni sezilarli darajada farq qiladi.

Kitob illustratsiyasi yosh bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bola uchun kitob illyustratsiyadan boshlanadi va bu bolaning o‘zlashtirishi uchun rag‘bat bo‘lib xizmat

[4] Lyaxov, V. N. Kitob san'ati. / V.N. Lyaxov. – M., 1978.

[5] Sobirov S.T, Sultanov X. E, Ismatov U. Sh. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020. p 3526-3533

qiladi. 5-6 yoshdagi bolalarda o‘qish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi, shuning uchun bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlangan illyustratsiyalar bolalarning kitobga va o‘qishga qiziqishini oshiradi.[6]

Voyaga yetgan o‘quvchilar uchun aksariyat hollarda kitob nashrini tanlashda ustuvor yo‘nalish axloq, tarbiya, ma’naviy tamoyillar va munosabatlar psixologiyasi bilan bog‘liq masalalarni ochib berishdir. Natijada, ushbu yoshdagi bolalar kitoblarda yanada murakkab rasmlar ustunlik qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Bolalar adabiy va badiiy nashrlarida illyustratorlar ko‘pincha an‘anaviy akvarel uslubiga murojaat qiladilar, bu esa tasvirlashda yumshoqlik, ranglarning yorqinligi bilan ajralib turadi. Ranglarning yorqinligi va yumshoq ishlanganligi yosh kitobxonlarni o‘ziga jalb qiladi. Hozirgi vaqtda multfilm tasvirlari har bir bolaga tanish bo‘lib, o‘zining yorqinligi, aniq kompozitsion yechimi, oddiy ijro texnikasi va belgilar va atrof-muhitning aniq ravshanligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Bu bolalarga sodir bo‘layotgan voqeliklarning mohiyatini osonlikcha tushunishga yordam beradi, shuningdek, bolaga ilgari ko‘rmagan narsalarni taqdim etadi. Bolaning ta’lim jarayonida kitob juda muhim rol o‘ynaganligi sababli, undagi illyustratsiyalar nafaqat badiiy tomondan kitob nashri dizayni sifatida ko‘rib chiqilishi, balki g‘oyaviy va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, matn va illyustratsiyalar kitob mazmunini taqdim etishning asosiy shakli bo‘lgani uchun bolaning kitobni tushunishi og‘zaki taqdimot va ko‘rgazmali tasvirning to‘g'ri nisbati bilan ta’minlanadi. Bolalar uchun kitoblarning illyustratsiya va rasmlarga bo‘lgan ehtiyoji kattadir. Zamonaviy badiiy ifoda etishning barcha vositalaridan foydalangan holda rassom kattalar uchun ham, bolalar uchun ham ta’sir qiladigan, hissiy idrokni shakllantiradigan, estetik sezgirlikni rivojlantiradigan, badiiy tasvirlar orqali badiiy matnning oshkoraligini rag‘batlantiradigan illyustratsiyalar ishlaydi. Illyustratsiya bolalarni matnni yanada chuqurroq va yaxshiroq idrok etishiga va bilimlarining boyitishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакулина Н.А, Трынова Т.В. “Современные тенденции иллюстрирования художественной литературы”. КУЛЬТУРОЛОГИЯ И ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ. IV международная научная конференция. Молодой учёный. с 25-27.

2. Lyaxov, V. N. Kitob san'ati. / V.N. Lyaxov. - M., 1978.

3. Sultanov X.E, Sobirov S.T . “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma, Toshkent viloyati CHDPI, Chirchiq 2021.

4. Sobirov S.T, Sultanov X. E, Ismatov U. Sh. “Illustration and the Influence of Illustrator on Children’s Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books”. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020. p 3526-3533.

5. Sobirov S.T. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. P 98-101.

[6] Sobirov S.T. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. P 98-101.

Muxayyo IMINOVA ,
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA METODINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda loyiha metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va o‘quv faoliyatini rivojlantirish sharti sifatida ekanligi o‘z aksini topgan. Unda ta’lim jarayonida loyiha metodlarini qo‘llash va shu asosda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, tahsil oluvchilarda ijodiy, tanqidiy, refleksiv, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi haqida fikr bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Loyiha metodi, o‘quv-bilish faoliyati, pedagogik shart-sharoit, takomillashtirish, tahsil oluvchilar, tanqidiy fikrlash, refleksiv tafakkur, rivojlantirish.

В статье отражено, что использование проектных методов в начальных классах является условием развития творческих способностей и учебной деятельности учащихся. В нем излагается мысль о том, что применение проектных методов в образовательном процессе и на этой основе совершенствование педагогических условий направлены на развитие у обучающихся навыков творческого, критического, рефлексивного, креативного мышления.

Ключевые слова. Проектный метод, учебно-познавательная деятельность, педагогическая предпосылка, совершенствование, обучение, критическое мышление, рефлексивное мышление, развитие.

The article reflects that the use of project methods in primary school is a condition for the development of creative abilities and educational activities of students. It outlines the idea that the application of project methods in the educational process and on this basis the improvement of pedagogical conditions are aimed at developing students' skills of creative, critical, reflective, creative thinking.

Key words. Project method, educational and cognitive activity, pedagogical prerequisite, improvement, training, critical thinking, reflexive thinking, development.

Rivojlangan mamlakatlarning boshlang‘ich ta’lim amaliyotida innovatsion metodlar, interfaol dasturiy vositalar, refleksiv texnologiyalar, fasilitatsion modellardan foydalanish usullari va ularning samaradorligiga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning asosiy vazifalari qatorida o‘quvchilarni kelgusidagi o‘qish faoliyatiga tayyorlash sifatini oshirish, ularning o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ta’lim o‘zlashtirish layoqatini kengaytirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va o‘qitish xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur metodikani takomillashtirish masalasi alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini loyiha metodlari vositasida takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

Respublikamizda zamonaviy ta’lim tahsil oluvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, o‘quv-tarbiyaviy jarayon sa-

maradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim sohasidagi islohotlar yosh avlodni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish, ta’lim jarayoniga ilg‘or metodlarni joriy qilishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’limda loyiha metodlaridan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish orqali o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan ta’lim–tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan rejalashtirishga bo‘lgan texnologiyani ishlab chiqish talab etilmoqda. Loyiha metodlari yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi zamonaviy talabalarni amalga oshirish, ta’lim mazmunini xalqaro standartlar asosida tashkil etishni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, uni ijodiy tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini modernizatsiyalash va integratsiyalash masalalari bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Xuddi shu bois, ta’lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi, mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g‘oyaviy e’tiqodli, ma’naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Chunki ta’lim tizimida ‘‘subyekt-subyekt’’ munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, shaxsning tanqidiy fikrlashiga zamin yaratib bo‘lmaydi.

Dj.Dyui birinchilar qatorida ta’lim uchun yangi yondashuvni, ya’ni “ta’limdan tarkib toptirish uchun”, o‘quvchi faol mustaqil faoliyati asosida, bilim olish, uning shaxsiy manfaatlari bilan izchil va muddatli “loyihaviy ta’lim” berish lozimligini uqtirdi. Uning g‘oyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisini o‘qitish uchun moslashtirilgan bo‘lib, bu g‘oyani rus olimlari S.T. Shatskiy, I. F. Svadkovskiy qo‘llab-quvvatladilar va ijodiy yondashuv asosida o‘rgandilar. Bugungi kunda loyiha texnologiyalarini tadqiq qilish va rivojlantirish qayta tiklandi: turli xil ta’lim bosqichlarida T. Hutchinson, D.-L. Fried-Booth, K. McDonald, K. Itchells, S. Antonaros, ye.Taborn ishlari mavjud.

O‘zbekistonda ushbu usulni turli sohalarda qo‘llash uchun ilmiy va uslubiy qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish davom yetmoqda. Masalan, R.H.Djuraev, R.G‘. Safarova, B.Adizov, M.A.Yusupova va boshqalar loyiha metodi asosida ta’limni tashkil etish o‘quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishini e’tirof etishgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati deyarli o‘quv va kognitiv ehtiyojlar sifatida yuzaga keladi, shuning uchun ko‘plab mualliflar tadqiqotlarning birinchi bosqichida maktab o‘quvchilari uchun o‘quv faoliyati va o‘quv-bilish faoliyati konsepsiyasini aniqlaydilar. Shu sababli, biz ham o‘z tadqiqotimizning ilk bosqichlaridanoq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini tadqiq qilishga kirishdik.

Nazariy metodlar: falsafiy, psixologik-pedagogik, o‘quv-metodik adabiyotlar, mavjud o‘quv dasturlari, rejalari va boshlang‘ich umumiy ta’lim standartlarini retrospektiv va nazariy tahlillar qilish asosida aniqlanishicha, deyarli barcha mualliflar o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyati yangi bilimlarni o‘zlashtirish va ularni o‘zlashtirish uchun harakatlarning umumlashtirilgan usullarini qayd tishadi.

O‘quv faoliyati – bu o‘quvchilarning maxsus tashkil etiladigan faoliyati, nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan ongli maqsadlarga bo‘ysunadigan jarayondir. Umumlashtirilgan harakatlar usullari, inson tajribasining shakllari o‘quv-bilish faoliyatida muhim o‘rin egallaydi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanishda inson aqliy fikrlash darajasini o‘z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo‘yicha tadqiq etishlik ko‘p asrlik fan tarixiga ega ekanligini inobatga olish, insoniyatning yer yuziga kelishidan e’tiboran

kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi, jamiyatda bilimdonlikning alohida ahamiyat kasb etishi intellektuallik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lishini bilish zarur. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, borliqni idrok etish, ilm cho'qqisiga intilish hissi tanqidiy fikrlashning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari faoliyatini o'rganish va tajribalarni analitik tahlil etish bilishning cheksiz imkoniyatlarini ezgulik tomon yo'naltirish, ilm pillapoyalaridan kamolga yetib borayotgan yosh avlodni ezgu g'oyalar asosida tarbiyalashning samarali yo'llaridan biri - boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodidan foydalanish tizimini takomillashtirish ijtimoiy pedagogik zarurat ekanligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanishning zaruriyligi hamda ushbu muammo pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi va bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi.

Loyiha - (lotin tilida: ''proekt''- ''oldinga tashlangan'') insonlarning jamoaviy, tashkiliy, mustaqil izlanishga undovchi, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat shaklidir. Loyiha: inshoot, jarayon, tadbir, ssenariy rejasidir; muayyan hujjatning taxminiy matni;

Fikrimizcha, boshlang'ich ta'limda loyiha metodlarini qo'llash asosida o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini oshirish; o'quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish; tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo'lgan mas'uliyatni oshirish va keyingi o'quv faoliyatiga rag'bat sifatida namoyon bo'ladi

Loyiha metodlarining vazifalari:

o'quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalar (ZTT), kompyuter, Internet, EAR imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Taqdim qilingan o'quv materialidagi eng muhim g'oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirish

Dars samaradorligini oshirish, o'rganilayotgan o'quv predmetiga ZTT orqali motivatsiya hosil qilish o'quvchilarning psixofiziologik va shaxsiy-individual qobiliyatlari rivojlanadi;

– kam samara beruvchi verbal (og'zaki) bilim uzatish o'rniga tizimli yondashuvlar orqali bilim o'zlashtirish jarayoni hosil qilinadi;

O'quv jarayonini loyihalashga keng imkoniyat yaratiladi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ''subyekt-subyekt'' munosabatlari qaror topadi va ta'limning kafolatlangan natijalariga erishiladi.

Loyihalash esa – maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, quyilgan muammoning yechimini topishga qaratiladi va uni o'zgartirish yo'llari va yechimlarini topishga zamin yaratadi

"Loyihalash" atamasi ilk bor XX asrning birinchi yarmida paydo bo'ldi.

Loyiha metodi – muayyan natijani qo'lga kiritishga qaratilgan, o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan faoliyatni tashkil qilish yo'li.

Loyiha metodi o'quvchilar qiziqishi, ijodkorligiga yo'naltiriladi. Loyihalash metodi o'qituvchi rahbarligida maxsus pedagogik sharoitda amalga oshiriladigan, ta'lim sifatini kafolatlashga yo'l ochadigan faoliyat.

Loyiha metodi o'quvchi shaxsining intellektual, estetik, jismoniy qobiliyatlari va iro-

daviy, ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Loyiha texnologiyasi esa muammoning yechimini ketma-ketlikda izlashni talab qiluvchi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

– muammo (vazifalar)ni aniqlash;
– maqsad (muammo bilan bog‘liq bo‘lgan aniq vazifa)larni shakllantirish;
– muammo echimini topishga qaratilgan metod va vositalarni tanlash;
– muammo echimini topishda tadqiqotchilik faoliyati tashkil qilish;
– ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish;
– ma’lumotlar matn (rasm, chizma) shaklida shakllantirish:
– ma’lumotlarni muhokama qilish va tuzatish;
– kutilgan natijaning ifodasi.

Loyihalash texnologiyasi muammoli o‘qitish g‘oyalarini rivojlantirish asosida o‘qituvchi rahbarligida yangi g‘oyani kashf etish va yangi fikriy mahsulani yaratishga qaratilgan, yangi mohiyat va mazmundagi ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon.

Ilmiy ishlanmalar, adabiyotlar tahlili asosida biz loyiha metodlarini bir qancha guruhlarga turkumladik.

Loyiha metodlari o‘quvchilarda aqliy qobiliyatlarni shakllantirish, mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu xususda fikr yuritishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko‘nikmalarini tahlil qilish maksadga muvofiq, deb o‘ylaymiz

Ta’lim jarayonida loyiha metodidan foydalanish orqali g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi.

Shunday qilib, loyiha metodlari asosida kam samara beruvchi verbal bilim uzatish o‘rniga loyiha metodi asosida tizimli bilim o‘zlashtirish jarayoni hosil qilinadi. O‘quv jarayonini loyihalashga keng imkoniyat yaratiladi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ‘‘subyekt-subyekt’’ munosabatlari qaror topadi va ta’limning kafolatlangan natijalariga erishiladi. Bunga misol tariqasida boshlang‘ich sinflarining “O‘qish” fani bo‘yicha ”Har kim ekkanini o‘rar” (1-chorak) “Qor odamning sovg‘asi”; “Tanbeh”(3-chorak), “Qodir bilan Sobir” , “Vatan”(4-chorak) kabi mavzularda tashkil qilingan darslarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, loyiha metodlaridan o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va o‘quv faoliyatini rivojlantirish sharti sifatida foydalanish tahsil oluvchilarda nafaqat bilish faoliyatini rivojlantirish, balki qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi. Tahsil oluvchilarda taqdim qilingan o‘quv materialidagi eng muhim g‘oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va psixofiziologik va shaxsiy-individual qobiliyatlarining tarkib topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil -fevraldagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”da. – T., 2022-yil 1-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”da. – T., 2022-yil 11-may.

Dilafruz KENJABOYEVA,
Termiz davlat universiteti, "Fakultetlararo ingliz tili" kafedrasi o'qituvchisi

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TIL O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi ta'lim jarayonida innovatsiya va pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish va xorijiy til o'qituvchisining deontologiyasi va kompetentligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, innovatsion ta'lim, texnologiya, pedagogik texnologiya, kommunikatsiya, deontologiya, kompetensiya, kompetentlik.

Данная статья посвящена проблеме инновации и педагогической технологии в процессе обучения кроме этого автор уделяет внимание на развития деонтологии и компетентность современного учителя иностранных языков.

Ключевые слова. Иновация, инновационное образование, технология, педагогическая технология, коммуникация, деонтология, компетенция, компетентность.

This article is devoted to the problem of innovation and pedagogical technology in the learning process. In addition, the author pays attention to the development of deontology and the competence of a modern teacher of foreign languages.

Key words. Innovation, innovative education, technology, pedagogical technology, communication, deontology, competence, competence.

Bugungi ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi davrida pedagogika fani ham ular bilan hamnafas "pedagogik texnologiya", "pedagogik deontologiya", "pedagogik kompetentlik" singari yangi tushunchalar kirib keldi. Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "ayni vaqtda ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash muallimlar, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish xorijdagi yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, ya'ni o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha hali ko'plab dolzarb vazifa turganini yaxshi anglaymiz va ularning yechimi ustida doimiy ish olib boramiz".[1]

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham belgilamgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng ilg'or innovatsion ta'lim texnolgiyalaridan foydalanish dolzarb ekanligini e'tirof etgan. Bugungi kunda pedagogic texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkillashtirish – bu jahon ta'lim standartlari talablariga mos ravishda dars o'tish demakdir. Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv, integratsiyalashuv va modernizatsiya jarayoni yosh avlodga kechagi an'anaviy ta'lim shakllari bilan bilim berish hamda ularni tarbiyalash mumkin emasligini ko'rsatmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda chuqur bilimga, malaka va ko'nikmalarga chanqoq yoshlarning ehtoyojlarini qondirish uchun pedagog kadrlar nafaqat o'z fanini chuqur bilishi balki noan'anaviy ta'lim-tarbiya

[1] Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2018. 448-bet

texnologiyalaridan, usullaridan keng foydalanishlari talab etiladi. Ushbu holatlar “innovatsiya”, “innovatika” tushunchalari bog‘liq.

Innovatsion texnologiyalar – ta’lim-tarbiya jarayoniga yangilik kiritish zamirida uning sifat samaradorligini ta’minlashga erishish demakdir. “Innovatsiya deganda, birinchidan, aniq faoliyat turini yangilash jarayonidagi yangi voqea va hodisalar tushunilsa, ikkinchidan ilmiy tadqiqotlar yoki kashfiyotlar natijasida erishilgan va amalda mavjud bo‘lgan analoglardan ustun bo‘lgan obyekt tushuniladi”.[2]

Biz ushbu maqolada zamonaviy xorijiy til o‘qituvchilarining innovatsion faoliyati va deontologik kompetentligi haqida fikr yuritar ekanmiz, xo‘sh, bugungi xorijiy til o‘qituvchilari yuqori innovatsion faoliyatga, deontologik kompetentlikka tayyorlash degan muammoli savollar qo‘yamiz. Ta’lim-tarbiya jarayonida faoliyat olib borguvchi har bir o‘qituvchi pedagogika, psixologiya fanlariga ta’lim-tarbiya jarayonlariga, ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangiliklarni, ularning qonuniyatlarini o‘rganishlari, bilimlarini bugungi ta’lim tizimi talab qilmoqda. Bugungi xorijiy til o‘qituvchilari quyidagi innovatsion pedagogik jarayonlarga amal qilishlari zarur, ular quyidagicha:

– o‘quvchi yoshlarni o‘z ijodiy tafakkuri, bilimi, qobiliyatini, progressiv qoidalarini ro‘yobga chiqarish uchun maqsadli yo‘naltirish;

– o‘quvchi bilan o‘qituvchining ijodiy hamkorligini rivojlantirish;

– ijodkorlik, intellektning natijasi sifatida kreativlikni namoyon etishdagi izlanuvchanlikning yuqoriligi;

– har ikkala subyektning ham refleksiv jarayondagi faolligining namoyon bo‘lishi, o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘zini-o‘zi baholash;

Pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladigan novatsiya va innovatsiyalar evaziga ta’lim-tarbiya samaradorligi oshib boradi. O‘zbekiston respublikasida amalga oshiriladigan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijmoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olinishi shuningdek, 08.10.2019-yildagi pf-5847 “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonda uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishi ko‘rsatilgan. Ushbu yo‘nalishida amalga oshiriladigan yana bir muhim vazifalardan biri bugungi mutaxassisning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek milliy qadriyatlarni ega bo‘lib ularni yosh avlodga yetkazish vazifasi turibdi. Bugungi o‘qituvchining kompetentligini (qobiliyati), uning burchi (deontologiya) yosh avlod tarbiyasi talablarini qondirmoqdami? biz xorijiy til o‘qituvchilari deontologik kompetentligi asosida ular ular faoliyatini tahlil qilib quyidagilarni tavsiya etamiz: – o‘qituvchi “deontologiya” so‘zining ma’nosini anglab, deontos – shart, burch, logos – ta’limot” degan ma’nolarni anglatib, ingliz faylasufi j.bentam tomonidan ta’lim jarayoniga tavsiya qilingan[3]. demak, bugungi o‘qituvchi o‘z kasbini hurmat qilishi, o‘zining o‘quvchi oldidagi, jamiyat oldidagi burchini his etishi va o‘quvchilarga zamonaviy bilim berishi zarur.

O‘qituvchining yuksak madaniyati uning teran bilim doirasi o‘zbek xalqining madaniyati, urf-odatini mukammal bilgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishi muhimdir. Pedagogik odobga ega bo‘lgan mutaxassis ta’lim jarayonida sog‘lom muhit yarata oladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu maqolada bugungi zamon talablariga javob bera oladigan xorijiy til o‘qituvchilaridan ta’lim jarayonida quyidagi qobiliyat turlariga e’tibor berish talab etiladi:[4]

[2] O.Musurmonova “Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligi muhim omili”. Yoshlar nashriyot uyi. 2020. 65 bet

[3] Bentham J. “Deontolgy together with a table of the springs article of utilitarianism” Oxford. Claranden Press. 1983. page 121.

[4] Kenjaboyev A.E. “Umumta’lim maktablari kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari”.

1. Bilish qobiliyati;
2. Tushuntira olish qobiliyati;
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati;
4. Nutq qobiliyati;
5. Tashkilotchilik qobiliyati;
6. Obro‘ orttira olish qobiliyati;
7. Tog‘ri muomala qilish qobiliyati;
8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati;

Bugungi xorijiy til o‘qituvchilari kompetentligi (competence) qobiliyati ko‘proq til bo‘yicha kompetensiyaga (bilimga) va kommunikativ kompetentlikni yuqori bo‘lishni talab etadi. Turli innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida xorijiy til o‘qituvchilarida quyidagi kompetensiyalari shakllanadi. A.E.Kenjaboyevning ilmiy pedagogik maqolalarida ta’kidlanganishicha quyidagicha kompetensiya turlariga e’tibor qaratiladi:

1. Lingvistik kompetensiya – tilga oid ya’ni fonetika, leksika, grammatika haqidagi hamda nutq faoliyat turlari (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashi lozim;
2. Sotsiolingvistik kompetensiya – bu so‘zlovchining bir-biri bilan kommunikativ maqsad va xohish istagidan kelib chiqib, urf-odatlar, marosimlar haqida va til o‘rganiladigan davlat madaniyati haqida qiyosiy suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi;
3. Pragmatik kompetensiya – o‘rganiladigan xorijiy tilda kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda murakkab vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyati nazarda tutiladi.[5]

Yuqoridagi kompetensiya (bilim)larga ega o‘qituvchida o‘qituvchiga xos pedagogik kompetentlik shakllanadi.

Zamonaviy xorijiy til o‘qituvchisi deontologik kompetentlikka ega bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida interfaol usullardan ya’ni “Ajurli arra”, “Keys-study”, Aqliy hujum”, “Zanjir”, “Markazda talaba”, “Kichik guruhlardfa ishlash”, “Taqdimot”, “Blits”, “Assessment” va boshqalar bugungi kunda ta’lim sifatini samarali bo‘lishiga olib keladi. Xususan ulardan bir nechasiga to‘xtalib o‘tsak: “Blended learning” texnologiyasi (aralash yoki kombinatsiyalangan ta’lim) – korporativ treningli dasturlarda uzoq vaqtlardan buyon keng qo‘llanib kelayotgan atama hisoblanadi. O‘tgan asrning 90-yillarida kelib ko‘plab kompaniyalar elektron ta’lim texnologiyalardan keng foydalanishni ishlab yuborishdi. Bunga kadrlarning juda band bo‘lib, ta’lim oluvchilarga majburiy turda mustaqil ishlashi, izlanishi uchun o‘quv materialini tavsiya etish va yetkazib berishga qaratilgan individual tarzda tayyorlangan metodlarning majmuiga ega bo‘lgan talabning kelib chiqishi asosiy sabab bo‘ldi.

“Blended learning”ning o‘zi nima?

Blended learning o‘qitishning aralash shakli. O‘qitishning dastlabki bosqichlarida o‘quvchi (talaba)ga ma’ruza orqali yangi nazariy bilimlar muayyan darajada ega bo‘lgach, yakka yoki guruhlarda o‘qitish shakllaridan foydalaniladi. Blended learning texnologiyasining asosiy maqsadi – yangi axborotlarni idrok etishni yengillashtirishga qartilgan ta’lim olishning instrumentlar spektrini tavsiya etishdan iborat bo‘lib, bir darsning o‘zida o‘qitishning shakl, metod, vositalari hamda ko‘rinishlarini o‘zgartirib turish o‘quvchi (talaba)ni charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyalarini kuchaytiradi. Shuningdek, u muayyan vaqt ichida trenerning talabalar yakka tarzda ta’lim berish elementlarini elektron ta’lim dasturlari bilan bog‘lagan o‘qitish jarayonidir. Ya’ni blended learning – bu aralash tashkil etilgan o‘quv kursi bo‘lib, ta’lim jarayonining tezligini va

[5] Kenjaboyev A.E. “Umumta’lim maktablari kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari”. .

intensivligini o‘quvchi (talaba)ni o‘zi belgilaydi. Ta’lim olishning yo‘llarini to‘g‘ri belgilashda “blended learning”da hal etuvchi rol o‘ynaydi hamda ta’lim jarayoni natijasiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Aralash ta’lim Yevropa ta’lim modellarining quyidagi elementlarini o‘z ichiga oladi:

– Masofaviy o‘qitish – distance learning;
– Auditoriyada (sinfda) o‘qitish – face to face learning;
– Internet orqali o‘qitish – online learning;

“Blended learning” ta’lim texnologiyasi modellari:

– Uzluksiz o‘qitish – lifelong learning;
– Drayver kunduzgi ta’lim;
– Onlayn laboratoriya;
– Drayver online ta’limi. Drayver (ingl.) kompyuterning dasturi bo‘lib, uning yordamida operativ tizim muayyan qurulmalarni apparatlar bilan ta’minlaydi.

Bugungi kunda “blended learning” ta’limi deganda kunduzgi an’anaviy ta’lim bilan masofaviy o‘qitish elementlarining aralashi ham tushunilmoqda. Bunda o‘qituvchi ta’limning markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng foydalaniladi[6].

Bugungi kunda o‘qituvchining asosiy vazifasi bo‘lajak mutaxassisga zamonaviy bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, balki ushbu mutaxassis o‘zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda, maktablarda yoki oliy ta’lim tizimida Web-quest (Veb-kvest)texnologiyasi muhim rol o‘ynaydi. Veb-kvest texnologiyasini Bernie Dodge 1995-yilda San diegodagi davlat universitetida o‘rgatilayotgan o‘quv kurslarida foydalanish uchun yaratdi. Keyinchalik Tom March veb-kvest texnologiyasini pedagogik jihatdan yanada takomillashtirdi.

Veb-kvest – “o‘quvchilar bilan o‘zaro ta’limga tegishli bo‘lgan axborot materiallarini internet resurslar orqali turli xil savol-javob tarzidagi mashqlarga yo‘naltiligan faoliyatdir.”[7]

Veb-kvest didaktik xarakterdagi zamonaviy ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidan ta’lim jarayonida veb-kvestlardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

– O‘rganiladigan materialning autentik muvaffaqiyati ta’minlanadi;

– Talabada mustaqil va erkin fikrlash, qatror qabul qilish malaka va ko‘nikmalari shakllanadi;

– Talabalarda o‘z ustida ishlash jarayonida ijodkorlik faoliyati, bilish faolligi rivojlanadi;

– Guruh jamoasi, internet tizimi hamda AKT, OAV va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlik malakalari, kommunikativ kompetentligi rivojlanib boradi;

– Fanni o‘rganishga motivatsiya kuchayadi, internet resurslaridan oqilona maqsadli foydalanish malaka va ko‘nikmalari shakllanib boradi;

– Ingliz tilida fikrlash, gapirish, tushunish, eshitish qobiliyati rivojlanadi. Ingliz tilidagi ommabop, badiiy, maxsus metodik adabiyotlarni xatosiz o‘qish, hikoya qilish, internet manbalari asosida to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, lingvodidaktik, sotsiolingvistik bilim darajasi o‘sib boradi;

Shuningdek, veb-kvest innovatsion texnologiya 6 ta bosqichdan iborat bo‘lib, ular quyidagilar:

[6] O.Musurmonova “Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligi muhim omili”. Yoshlar nashriyot uyi. 2020. 78-79 betlar

[7] http://webquest.edu/about_webquests.html



1-rasm. Veb-kvest texnologiyasining bosqichlari.

Veb-kvest innovatsion texnologiyaga ko‘ra, chet tillarini o‘rgatish sifatini oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

– mashqlarga jalb qilish;
– muammoli savollarning yechimini topishga undash;
– o‘rganuvchilarni guruhlar bilan ishlashga jalb etish;
– o‘rganuvchilarning faolligini ta’minlash;[8]

Veb-kvest texnolgiyasi orqali tilni o‘rganish bilan birga bugungi kunda zamonaviy ta’lim talablaridan biri – axborot kommunikatsiya, ya’ni multimediali o‘qitish vositalaridan keng foydalanishga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimiz fuqarolariga ilm olish huquqi va buning uchun zarur sharoitlar yaratishni kafolatlaydi. Davlatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahnamoligida bugungi ta’lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, biz bugungi pedagoglar ayniqsa, xorijiy til o‘qituvchilari o‘zlarining deontologik kompetentligiga asoslanib yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda mas’uliyatni his etib, o‘z burchimizni fidoyilik bilan bajarishimiz lozim. Bugungi xorijiy til o‘qituvchilarining pedagogik vazifalari quyidagilardan iborat:

– O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish;
– O‘quv materalini tizimli va ilmiy asosda bayon etish;
– O‘quvchilarda fanga nisbatan ijodiy motiv va qiziqishni uyg‘otish;
– Zamonaviy axborot texnologiyalar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish;
– Kasbiy mahoratni uzluksiz oshirib borish;

Yuqoridagi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirilgan xorijiy til o‘qituvchisi shaxsida oliyjanoblik, aqliy qobiliyat va boshqa insoniy sifatlar mavjud bo‘lsagina yuksak kompetentli zamonaviy xorijiy tillar bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. T., 2020-yil 23-sentyabr.
2. Mirziyoyev SH. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T., O‘zbekiston NMIU, 2018. 448-bet.
3. Mirziyoyev SH. M. “Tanqidity tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T., “O‘zbekiston”. 2017-yil 45-bet.

[8] O.Musurmonova “Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligi muhim omili”. Yoshlar nashriyot uyi. 2020. 100 bet

Lobar SUVONOVA,
Navoiy davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

STEAM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA “5E O‘QUV MODELI”DAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada STEAM darslari orqali “5 E o‘quv modeli” dan foydalanish, talabalarni tadqiqot o‘tkazishga qiziqtirish, ilmiy tushunchalar va konsepsiyalarni tushunish, shuningdek, tushuncha va hodisalarni o‘zaro bog‘lay olishga o‘rgatish yoritilgan.

Kalit so‘zlar. STEAM darslar, ta’lim, Konstruktivizm, tadqiqiqot, baholash, texnologiya, o‘quv modeli,ishlab chiqish, kreativ fikrlash.

В статье рассматривается использование “модели обучения 5 Е” с помощью классов STEAM, чтобы заинтересовать студентов в проведении исследований, понять научные концепции и концепции, а также научить их соотносить концепции и явления.

Ключевые слова. STEAM классы, образование, конструктивизм, пропаганда, оценка, технология,модель обучения, разработка, креативное мышление.

The article discusses the use of the “5 E learning model” using STEAM classes to interest students in conducting research, understand scientific concepts and concepts, and teach them to correlate concepts and phenomena.

Key words. STEAM classes, education, constructivism, propaganda, evaluation, technology, learning model, development, creative thinking.

Bugungi kunda ta’limning asosiy g‘oyasi bu – yosh kadrlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini ilg`or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon hamda talablar asosida takomillashtirishdir. Ma’lumki, STEAM ta’limi o‘zaro fanlar integratsiyasi bo‘lib, talabalarga bir nechta fanlarni uzviy bo‘gliqlikda o‘rganib, ijodiy yondashuv malakalarini namoyon etishga imkon yaratadi. Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida “5E o‘quv modeli”ommalashib bormoqda va talabalarga bilim berish jarayonida ushbu modeldan samarali foydalanib kelinmoqda. Konstruktivizm nazariyasi tomonidano‘quv materiallarining loyihalash jarayonini soddalashtirish uchun “5E o‘quv modeli” taklif etildi. Ushbu model 5 bosqichda amalga oshirilib, har bir bosqich ingliz tilidagi “E” harfi bilan boshlanadi:



1. Engage-Jalb etish
2. Explore – Tadqiq qilish
3. Explain –Tushuntirish
4. Elaborate – Ishlab chiqish
5. Evaluate – Baholash

Shu o‘rinda biz konstruktivizm tushunchasiga izoh berib o‘tsak. Konstruktivizm bupedagogik falsafa bo‘lib, unga ko‘ra, talabalarga bilimni tayyor shaklda emas, aksincha ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, muammoning mohiyatini ko‘ra olish qobiliyatlarini

shakllantirish orqaligina yetkazib berishdir. Pedagogikaga konstruktivizm tushunchasini psixolog olim Jan Piaje olib kirdi. Ushbu tushunchani u quyidagicha ta'riflagan: "Ilmiy bilim statik hodisa emas, u uzluksiz qurilish va qayta tashkil etish jarayonidir'. Demak, ta'lim jarayonida konstruktiv yondashuv bilim oluvchilarning shaxs sifatida shakllanishida ularning individual, potensial, kognitiv xususiyatlari va imkoniyatlari yetakchilik qilishini e'tirof etadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek "5E o'quv modeli" konstruktivizm nazariyasi tomonidan taklif etilgan va STEAM darslarida foydalanish uchun samarali o'quv modeli hisoblanadi. STEAM darslarini tashkil etishda talabalarni dars jarayoniga jalb etish, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, mavzuning mohiyatini tushuntirish, egallangan bilimlarni amalda sinab ko'rish hamda o'z-o'zini baholashi kabi imkoniyatlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu bosqichlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bilimlarning mohiyatini anglab yetish, mavjud muammolarning yechimiga doir firk bildira olish malakasi ortadi. STEAM darslarida talabalar o'zlari uchun bilim kashf qilishlari muhim bo'lib, o'qituvchilar bu jarayonda faqatgina yo'naltiruvchi vazifasini bajarishlari lozim. Shuning uchun o'quv materialini ishlab chiqish jarayonida asosiy diqqat o'rganilayotgan mavzudan talabaga qaratiladi, chunki o'quv materialini o'zlashtirish darajasi talabaning o'zi yoki talabalar jamoasi tomonidan yaratilgan bilimga bog'liq.



Ushbu o'quv modeli orqali darsni bosqichma-bosqich rejalashtirish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Engage-Jalb etish

Ushbu bosqichning maqsadi – talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilishdir. O'qituvchi talabalarning oldingi tajribasi va bilimlarini baholaydi. Bu ularning kuchli tomonlarini va qanday bilim bo'shliqlarini to'ldirish kerakligini tushunishga yordam beradi.Ishtirok etish bosqichi, shuningdek, talabalarning kelgusi kursga qiziqishlarini saqlab qolish uchun ularning afzalliklarini aniqlashga yordam beradi.



2. Explore – Tadqiq qilish

Ushbu bosqichda talabalar yangi mavzuni bevosita yangi tajribalar orqali o'rganishadi. O'qituvchi talabalarning yangi mavzuni o'rganishi, o'zaro fikr almashishi, olingan ma'lumotlarni tartibga solish va tizimlashtirishi uchun sharoit yaratadi.



Mazkur bosqichda o'quv materialiga doir videolar, maqolalar va yangi mavzudagi ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish mumkin.

3. Explain –Tushuntirish

Bu bosqichda o'qituvchi talabalarga olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradi va barcha savollarga javob beradi. Nazariya, jadvallar va tushuntirishlar bilan tanishishdan oldin o'qituvchi "o'rganish" bosqichidagi ma'lumotlarni talabalar qay darajada tushunganliklarini tahlil qilishi kerak. Jarayonning samarali bo'lishi uchun talabalardan o'rganilgan bilimlarni aytib berishlarini va barcha ma'lumotni o'z so'zlari bilan tushuntirishlariga imkon

berish kerak. Shundan so‘ng o‘qituvchi tafsilotlarga kirishi, yangi atamalar, qoidalar va ma’lumotlarni tushuntirishi mumkin.



4. Elaborate – Ishlab chiqish

Mazkur bosqichda barcha egallangan bilimlar amalda sinab ko‘riladi va olingan bilimlar mustahkamlanadi. O‘qituvchi amaliyot uchun mashg‘ulotlarni ta’minlaydi, yangi ko‘nikmalarni mustahkamlash bosqichi uchun muhit va shart-sharoitlarni belgilab beradi.



5. Evaluate – Baholash

O‘qituvchi va talabalar birgalikda bajarilgan ish va yangi mavzuni qanday tushunganliklari va o‘zlashtirganliklarini baholaydilar. Bu bosqichda o‘qituvchi barcha talabalar yangi mavzuni tushungan yoki tushunmaganligini tekshiradi va fikr bildiradi. Buning uchun ham rasmiy, ham norasmiy baholash, o‘z-o‘zini baholash, tengdoshlarni baholash, uy vazifalari va shu kabi loyihalardan foydalaniladi.

Demak, STEAM darslarida “5 E o‘quv modeli” dan foydalanish orqali biz talabalarni tadqiqot o‘tkazishga qiziqtirishga, ilmiy tushunchalar va konsepsiyalarni tushunishga, tushuncha va hodisalarni o‘zaro bog‘lay olishga o‘rgatishimiz mumkin. Shu bilan birga, bilim olish jarayonida kreativ fikrlash, egallangan bilimlarni texnologiya, muhandislik va matematika sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganish ko‘nikmalarini ham shakllantirishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, STEAM texnologiyalari o‘qituvchilarga muvaffaqiyatli tadqiqotchilar, ixtirochilar, olimlar, texnologlar, rassomlar va matematiklar avlodini rivojlantirishga imkon beradi. Bizning bitiruvchilarimiz yangiliklarga, loyihalarni yaratishga va ularni real hayo tgatadbiq eta olishga tayyor bo‘lishi kerak. Shunday ekan, yosh avlodga bilim berishda zamonaviy IT texnologiyalar, STEAM ta’limi hamda “5 E o‘quv modeli”dan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособие.-М.:Народное образование, 2018. – С.256.

2. Адбуллаева Ш.А. Совершенствование качества образование в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров//Практическая психология и педагогика. – Москва, 2018.-№3.-с 24-31.https://edurobots.ru/

3. https://ngss.sdcoe.net/Evidence-Based-Practices/5E-Model-of-Instruction

Dilshod MAXKAMOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika Instituti ma'naviyat bo'limi mutaxasisi

TYUTR XODIMI FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tyutr xodimi faoliyatida o'ziga xos tarbiya jarayonida amalga oshirish xususiyatlari talaba shaxsni shakllantirishga oid ruhiy, ma'naviy, madaniy jihatlarning mazmun-mohiyati ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar. Talaba, izlanish, maqsad, muammo, tyutr, tajriba fikr yuritish, muvaffaqiyat, ishontirish, munosabat, talim-tarbiya, shaxs, bilim, muomila, sezish, tasavvur, qobiliyat, xushmuomalalik, mutaxasislik.

В данной статье рассматривается содержание и сущность духовно-духовного, культурологического аспектов формирования личности учащегося научно-педагогически основываются на специфике реализации конкретного воспитательного процесса в деятельности коллектива театра.

Ключевые слова. Студент, исследование, цель, проблема, наставник, опытное мышление, успех, убеждение, отношение, образование, личность, знание, отношение, восприятие, воображение, способность, доброта, специализация.

In this article dicusses, the content and essence of the spiritual, spiritual, cultural aspects of the formation of the student's personality are scientifically and pedagogically based on the specifics of the implementation of the specific educational process in the activities of the theater staff.

Key words. Student, research, purpose, problem, tutor, experiential thinking, success, persuasion, attitude, education, personality, knowledge, attitude, perception, imagination, ability, kindness, specialization.

Tyutor xodimi guruh talabalariga rahbarlik qilish jarayonida ularning har biri bilan shaxsan uchrashishi, haqiqiy holati oilaviy ahvoli, sharoiti muammo va takliflari, xullas, hammasi haqida tolik ma'lumotga ega bo'lish o'quv yurtlaridagi bo'sh xona va inshootlarni talabalarga bepul ajratish, ularda pullik kurslar, to'garaklar va boshqa xizmatlar hamda ishlab chiqarishlar tashkil etish mutassadilar bilan hamkorlik rahbarligida bandlik markazlari, shuningdek, maishiy va boshqa xizmatlarni tashkil etishi, ularning daromad keltiradigan ish bilan band bo'lishlarida imkoniyatlar yaratish ularni qo'llab-quvvatlash, oliy ta'lim muassasalarining davlat tashkilotlari hamkorligi asosida ishlashga ruxsat berish ilmiy loyihalarga jalb qilish talabalar o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro bog'lash va ularning bir biriga ta'sir qilib turishida doimiy harakatda rivojlanish va o'zgarishida muhim omil ularni har bir shaxs ongida aks etishi katta amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar hisoblanadi. Tyutr xodimi ongida tarbiya jarayonini bir butun yaxlit, rivojlanitirish bilan bir qatorda ularning, tafakkur madaniyat, ma'naviyat rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik va boshqa oliyjanob fazilatlarni va axloqiy me'yorlar, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Tyutr xodimi talaba kamolotini rivojlantirishda ular hayoti vafaoliyatini tashkil etishda, shuningdek, moddiy va ma'naviy boyliklarni o'rganishda ustozlik vazifalarini amalga oshiradi. Ushbu jarayonda tarbiyaga bevosita bog'liq bo'lgan, hayotning

moddiy texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalari va mehnat faoliyatiga oid bilimlarni egallaydilar tarbiya inson uchun suv va havodek zarurki tarbiya bu – dunyo, jamiyat, oila, ota-ona, bolalar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, vijdon, erkinligi kabilaning muayyan maqsadini kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi. Jamiyat, davlat, xalq va millat, inson shaxsining tarbiya jarayoniga bo‘lgan ehtiyoji shu qadar katta va benihoya. Uni hech qachon ikkinchi o‘ringa surib qo‘yish tamomila xatodir.

Tarbiya tushunchasi ijtimoiy hayotning ma’lum boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o‘zaro munosabatlarini namoyon etuvchi jarayon hisoblanadi. Tarbiya turlari o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra, bir-biridan o‘zaro farq qiladi. Tarbiya bu mehnat qurollarini, mexnat ko‘nikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy xayot uchun xizmat qiladigan yangiliklarni, ixtirolarni o‘zida namayon etadi. Tarbiya jarayonining qamrovi behad keng bo‘lib, u insonlar tomonidan yaratilgan boyliklarni, ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa yo‘nalishini fandagi ilg‘or g‘oyalar va ta’limotlarni, badiiy asarlar, estetik qarashlarni ham kamrab oladi. Shu jihatdan ham tyutr xodimi talabalar bilan uchrashuvlar tashkil etish ularning intelektual salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Tyutr xodimi talabalarning sifatli ta’lim olishi intellektual bilimga ega bo‘lishi uchun shart- sharoitlar yaratishi, tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashi, turli jarayonlarga moslashuviga ko‘maklashishi ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan yordam berishi tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni va ish sifatini oshirishi, talabalarning manfaati va muammolarini tahlil qilishi, ularning mavjud qobiliyatidan kelib chiqib, turli maqsad sari yo‘naltirishi kabilar ularning salohiyatini rivojlantiradi. Tyutor xodimlari va ba’zi bir o‘qituvchilar talabalar faoliyatida hech qanday muammolar kelib chiqmasligini orzu qiladilar. Biroq muammolar tyutor xodimi va talaba mavjudligining asosiy va zaruriy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan ham ulardan qochish to‘g‘ri emas. Balki ularning mohiyatini tushunib yetishga intilish zarur.

Tyutor xodimi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda fikr yuritish kompetensiyalariga ega bo‘lishi uning nigohi, diqqati, imkoniyatlari nafaqatgina talabalarning aqliy salohiyati va tajribasini rivojlantirish, balki ularda o‘z ishidan qoniqish, muammolarni bartaraf etish, yutuqlarni qo‘lga kiritish, mehnat qilish, maqsadini ro‘yobga chiqarish, tinmay ishlash, fikr yuritish, talabalarni qo‘llab quvvatlash, ularni hayotga tayyorlash vazifalarini amalga oshiradi. Tyutor xodimi muammolar kelib chiqishi va ularni bartaraf etish bilan birga talabalarni rag‘batlantirish va hayotdan shodlik va qulaylikka oid ishlarini takomillashtiradi. Talabalarning ongida inson qadriga yetish va ularda, yangi qoniqishlar taqdim etishi ularning hayotini quvonchlarga to‘ldiradi. Oliy talim muassasalarida tyutor xodimi ta’lim – tarbiya sifatini oshirishda o‘z ulishini qo‘shib mashg‘ulotlar va tarbiya jarayonida dunyodagi o‘zgarishlar, yangidan yangi imkoniyatlardan foydalanish g‘oyalarini talabalar ongiga yetkazadi. Ba’zi bir insonlar xudbin, hasis bo‘lishadi. Oilasiga g‘amxo‘rlik qilmaydi va ularning qarashlari to‘g‘ri emas deb hisoblaydi. Ba’zi bir inson muvaffaqiyatga erishish o‘z ishining qo‘lida deb fikrlaydi. U bunga ishonadi, chunki u boshqalarga ko‘mak berishda sahovat ko‘rsatishda fidoiylik ko‘rsatadi. Albatta, bunda tyutor xodimi talabalarda saxovat ko‘rsatish, do‘stlariga ko‘maklashish, manzilga yo‘naltirish bo‘yicha ishonchli misollar orqali ularning tushunchalarini mustahkamlash muhim o‘rin tutadi. Tyutr xodimi har qanday holatda ham talabalarda bir birlari bilan yaqinlashishga va o‘zaro munosabatlar asosida yangicha qarashlarni qo‘llab quvvatlashga zamin yaratish, bir biriga yordam berish yo‘llarini izlab topish, ochiq muloqat

qilish, bir birini boricha qabul qilishda erkinlik, tetiklik va ruhlanish kabi tuyg‘ularni yanada rivojlantirish ularning aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har bir talaba o‘ziga xos, noyob va hurmatga loyiq takrorlanmas, bebaho va maftunkor hisoblanadi. Hayotdagi ustozlarning har biri qaysi sohada ishlamasin, ularning barchasi bir biriga o‘xshamasa ham, ajoyib va hurmatli insonlardir. Ularning kim bo‘lishidan qat'iy nazar, o‘ziga xos ekanligini anglash, munosabat bilan hurmat qilish millatimizga xos bo‘lgan qadriyatlar hisoblanadi. Chunki, ular o‘zlarining takrorlanmas xislatlarini namoyon etmaslar ham, muomala jarayonida ularning har birida ulug‘vorlik, qalbining go‘zalliklari va iqtidorlarini ko‘rish mumkin. Tyutr xodimi talabalar bilan bo‘lgan munosabatlarda ularning ziyrak va xushchaqchak inson ekanligini sezish, qobiliyatini hurmat qilish, hayratlanish, maqtovlar yog‘dirish, u haqida o‘ylash yoqimli ekanligini anglash, yoqimli gaplar eshitish kabilar ular shaxsini rivojlantirishda yordam beradi va ijobiy, quvvatlantiruvchi, quvonarli natijaga olib keladi. Ushbu jarayonda talabalarning bazi bir salbiy narsalardan nolish holatlari bartaraf etiladi. Ularning yuzlarida mamnunlik alomatlari vujudga keladi. Ularda yaxshilik xatti harakatlari, fikrlari, his tuyg‘ulari rivojlanadi.

Talabalarda inson va jamiyat farovonligiga o‘z xissasini qo‘sha olish qobiliyatini shakllantirish, uni qo‘llab – quvvatlash kabilar uning hayotida tub burilish yasalishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham insonning tashqi ko‘rinishiga aldanib qolib, undagi ulug‘vorlikni ko‘rmay qolishdan ehtiyot bo‘lish munosabatlarni o‘rganish asosida talabalar bilan buladigan aloqalarga chuqur ahamiyat berish, muloqot va suhbatdosh bo‘lish o‘zgalarga yordam berish, sevish va boshqa birovga ilinish qobiliyatlari tyutor faoliyatida katta qudratga ega hisoblanadi. Darhaqiqat tyutor xodimi faoliyatida talabalarning bir-biriga g‘amxo‘r ta’sirchan bo‘lish salbiy xolatlarni bartaraf etish maqsadida tyutor xodimi ularni yaxshilab kuzatish, kimdir ularga qattiq muomala qilsa yoki qalbini jarohatlasa unga g‘amxo‘r bo‘lish, biron sabab tufayli muammo yuz berganda uni bartaraf etish, mehribon bo‘lish, unda ro‘y berayotgan iztirob yoki qalbidagi og‘riq, xavotir, qo‘rquv, tushkunlik va chigallikni tushunish, suhbatlashish, turli vaziyatlarni o‘zgartirishga yordam berish, rahm-shafqat tuyg‘usini shakllantirish kabilar uning xafaligini esidan chiqarib yuboradi. Agar tengdoshi unga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lsa, u haqida mehribonlik bilan o‘ylashni odat qilish, uning qo‘pol munosabatiga yarasha javob qaytarishdan o‘zini to‘xtatib, undan xafa bo‘lmasdan, aksincha, uni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilish kabilar uning ajoyib, qobiliyatli va hurmat qilishga arzigulik ekanligini namoyon etadi.

Har bir talaba xayolan yoqimli, xushmuomala va jozibali ekanini tasavvur qilishi, ko‘z o‘ngiga keltirishi va kursdoshlari bilan gaplashmasdan yurgani uchun uzr so‘rashi yanada do‘st bo‘lish istagini bildiradi. Buning natijasida talabaning kayfiyati ijobiy tomonga o‘zgara boshlaydi. Ular yaqin do‘st bo‘lib, yoqimli va quvnoq bo‘lib qoladi. Shunday holatlar ro‘y berganda talabalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgartirish ularning o‘zaro aloqalarini mustaxkamlaydi. Chunki talabalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgartirish ularda muomala madaniyatini rivojlantiradi. Ushbu jarayonda tyutor xodimining talabalarga bo‘lgan ta’siri uning kelajakda yaxshi mutaxassis bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Buning uchun tyutor xodim talaba fikriga yopishib qolmay, balki uning otaonalari bilan bo‘lgan munosabatlari, ularning ijobiy va salbiy tamonlari, o‘zini tutishi, qo‘pol muomalada bo‘lmasligi, ijobiy natijalarga erishishi bilan birga birinchi navbatda uning qanday ekanligini, qanday fazilatlarga egaligi, hayotda o‘zini tutishi, tasavvuri, xayoli, do‘stlari haqida malumotlarga ega bo‘lishi lozim. Tyutr xodimi har bir kichik

detallarga ham ahamiyat berishi, ularga yoqadigan fazilatlarni o‘rganishi va shunga asosan munosabatda bo‘lishi muhim. Ikkinchidan tyutor xodimi talabaga nima berishi mumkinligi haqidagi fikrni o‘ylashi, ularga ko‘p narsalarni taklif qilishi, ularni sinchiklab o‘rganishi lozim. Uchinchidan, tyutor xodimi tarbiya jarayonida jahon ta’limi yangiliklari, texnologiyalari haqida bilimga ega bo‘lishi va uni takomillashtirgan holda amaliyotga joriy etish mahoratiga ega bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. To‘rtinchidan tyutor xodimi dunyoviy bilimlarga, hayotda quvonch va tashvishlarni baham ko‘rishga tayyor bo‘lishi, talaba qadrini ulug‘lash xohish va ichki sezgilari va imkoniyatlari amaliy munosabatlarda o‘z ifodasini topishi muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ushbu jarayonda talabalardagi axloqiy xususiyatlar, qobiliyat va ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerakligini tasavvur qilish, uning hoxishi, tushunchalari, qiziqadigan sohasini munosabatlar jarayonida aniqlash, o‘zaro hurmat qilish, undan ko‘ngli to‘layotnini ko‘z oldida gavdalantirish, ularga nima taklif qilish mumkinligini, qanday qobiliyat, tajribasi borligi haqida to‘g‘ri fikr yuritish, ularning taklif qiladigan narsalarga ehtiyojlarini qondirish, jamoada ba’zi bir ko‘rinmas talabalarga ko‘mak berish ularda inson qadrini ulug‘lashga oid ko‘rsatma va g‘oyalarni amalga oshirishi muhim. Tyutor xodimining vazifalari talabalardagi amaliy imkoniyatlar, xohish va ichki sezgi, ongini harakatga keltirish, mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyaga oid mashqlarni bajarishi va dunyo qarashini rivojlantirish, ularga kuch va dadillik baxsh eta olish, o‘ziga xoslik, xushmuomalalik, sabrli bo‘lish, harakat qilish tuyg‘ularini rivojlantirish kabilardan iboratdir. Ushbu jarayonlarda tyutor xodimi talabalarning fikrlaridan mamnun bo‘lishi, minnatdorchilik bildirishi, faxrlanishi, tasalli berish kabilarni amalga oshirishi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Natijada talabalarda kuch va dalilik, o‘zini tutib olish, gapirish, o‘zining e’tirofini bildirish, hammaga ko‘mallashish, do‘stlarini qo‘llab quvvatlash, ularga ijobiy yondashish xizmatini qadrlash kabi xususiyatlar rivojlanadi. Tyutor xodimining oddiygina qilib, chin dildan va samimiy fikr bildirishi, ezgu tilaklar, baxt va omadni amalga oshirish, mehr muhabbat to‘g‘risidagi so‘zlari, qo‘llab quvvatlashlari talabalarda ruhiy sokinlik kuchli va dadil bo‘lishlariga sabab bo‘ladi. Agar tyutor xodimi talabalarga ularning o‘ziga xos, sevimli va kerakli ekanliklariga ishontira olsa, bundan ular kuch olib, yanada dadillashadilar. Ushbu harakatlar ularga chuqur ta’sir etadi va uning kuchi bardavom bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxkamov U. Yuqori sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan 1995. 200-b
2. “Umumiy pedagogika asoslari” Jumanova F., AvazovaS., Jabborova G., Xusnetdinov U. Chirchiq 2020. 580-bet
3. Ximmataliyev D.O “Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi” 2018, 166-bet

Oliya XAYDAROVA,
Qarshi davlat universiteti, “Pedagogika”
kafedrasi dotsenti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchi o‘z ishining ustasi bo‘lishi uchun, avvalo, o‘z-o‘zini anglash muhimligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, uning kasbiy va pedagogik tayyorgarligi, o‘z faoliyatini ijodiy tashkil etishning pedagogik holatini tushunish, tanqidiy tahlil qilish o‘qituvchini kasbiy, umumiy madaniy va ilmiy-pedagogik bilimlarga intilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, ijodkorlik, faoliyat, rivojlanish, innovatsion yondashuv, omil, samaradorlik, mezon, ixtiro, texnologiya, motiv, imkoniyat, natija.

Для учителя, чтобы быть мастером своего дела, прежде всего важно самосознание. Его профессионально-педагогическая подготовка, понимание педагогической ситуации творческой организации своей деятельности, критический анализ ее мотивирует педагога на стремление к профессиональным, общекультурным и научно-педагогическим знаниям.

Ключевые слова. Учитель, творчество, активность, развитие, инновационный подход, фактор, эффективность, критерий, изобретение, технология, мотив, возможность, результат.

For a teacher, in order to be a master of his craft, self-awareness is first of all important. His professional and pedagogical training, understanding of the pedagogical situation of the creative organization of his activities, critical analysis of it motivates the teacher to strive for professional, general cultural and scientific and pedagogical knowledge.

Key words. Teacher, creativity, activity, development, innovative approach, factor, efficiency, criterion, invention, technology, motive, opportunity, result.

Pedagogik kasbga ijodiy munosabatning nazariy metodologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, u ko‘p jihatdan jamiyatimizning ijtimoiy buyurtmasi pedagogika fani taraqqiyoti darajasi va bo‘lajak pedagog shaxsini shakllantirishga bo‘lgan individual talablar bilan bog‘liq.

Ijodkorlik – bu mavjud tajribani qayta tashkil etish va bilim, ko‘nikma, mahsulotlarning yangi qismlarini shakllantirish asosida ilgari mavjud bo‘lmagan yangi narsalarni yaratadigan faoliyat. Ijodkorlik turli darajalarga ega:

– ijodkorlikning dastlabki darajasi mavjud bilimlardan foydalanish va ularni qo‘llash doirasini kengaytirish bilan tavsiflanadi;

– boshqa darajada, obyekt yoki bilim sohasining odatiy ko‘rinishini o‘zgartiradigan mutlaqo yangi yondashuv yaratiladi.

Pedagogik ijodkorlikni yaxlit jarayon sifatida tavsiflovchi belgilarni quyidagilar:

– muammoli vaziyatda yoki ijodiy vazifada qarama-qarshilikning mavjudligi;

– jamiyat va shaxs rivojiga yordam beradigan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyat va rivojlanganlik;

– ijodkorlik uchun obyektiv (ijtimoiy, moddiy) shart-sharoitlarning mavjudligi;

– ijodkorlik uchun sub'ektiv (shaxsiy) shartlarning mavjudligi;

– jarayon yoki natijaning yangiligi va o‘ziga xosligi.

Yuqoridagi belgilarning kamida bittasini chiqarib tashlash mazmunli bo‘lsa, unda ijodiy faoliyat yo amalga oshmaydi yoki uni ijodiy deb atash mumkin emas.

Turli-tuman, o‘zaro qarama-qarshi jihatlarni biriktirish ijodkorlikning eng muhim manbalaridan biri sanaladi. Buning muhim jihati yangi hosil qilingan jihatning dastlabki mahsulotda mavjud bo‘lmaganligidir. Analogiya (yun. analogia – muvofiqlik, aynanlik, o‘xshashlik) bo‘yicha xulosa chiqarish ijodkorlikning yana bir manbaidir. Inson tomonidan turli buyumlardagi umumiylikni ko‘ra olishi abstrakt tafakkur bilan bog‘liq. Agar, ikki voqea qaysidir jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, u sabab-oqibat bog‘liqligida o‘z aksini topadi. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish ijodkorlikning san’at va falsafa bilan bog‘liq turlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng umumiy jihatlariga ko‘ra, ijodkorlik faoliyati turlarini uch guruhga bo‘lish mumkin:

a) prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish;

b) ushbu yangilikning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uni detallashtirish, konkretlashtirish, ishlab chiqish;

v) yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish, u yoki bu moddiy shaklda keltirish bilan bog‘liq faoliyat.

Ta’lim jarayonlarining ushbu asosda tashkil etilishi o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma’naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma’naviy ijodkorlik – o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ma’naviy-axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas, o‘ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turidir.

Didaktik ijodkorlik – o‘quv materialini tanlash, loyihalash hamda o‘quvchilar o‘zlashtirishining innovatsion yo‘nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turidir.

Innovatsion ijodkorlik – yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog‘liq faoliyat turi bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o‘quvchilar va o‘qituvchi orasidagi bog‘lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir.

Bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorligi uning o‘ziga xos usul bilan faoliyatni tashkil qilishi, innovatsiyalarni qo‘llay olishi, natijaga erishi bo‘yicha tajriba ishlari, mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining ijodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog‘lay olish, olingan natijalarni to‘g‘ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishdir. Bu jarayonni texnologik ijodkorlik yangilik elementlarini aniq texnologiyaga o‘tkazish, bir texnologiyani yangi, samaralisiga tubdan o‘zgartirishga qaratilganligi bilan boyitadi.

Pedagogik faoliyatning ijodiy tabiatini faqat pedagogik muammolarni hal qilish bilan qisqartirish mumkin emas, ammo ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus tanlangan vazifalarni hal qilish o‘qituvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning eng muhim shartidir.

Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (bilim olish jarayonining rivojlanish darajasi), ijtimoiy-psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish innovatsion texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida talabaning o'quv-biluv faoliyatini tavsiflaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsata olishi;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim oluvchilarning kuzatiladigan, aniqlanadigan harakatlari sifatida ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida oydinlashtirish;
- ta'lim oluvchining faolligiga tayanib o'qitish;
- bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test topshiriqlarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishish kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Jamiyat rivojlanishi bilan texnika va innovatsiyalarning juda tez almashinishi insondan o'z hayoti mobaynida o'zgarishi mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklarga moslashib borishni talab qiladi. Shuning uchun ta'lim oluvchilarda bo'lajak kasbi va kasbiy faoliyatga innovatsion yondashishni tarbiyalash zarur hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun mashg'ulotlar jarayonida ularda yuqorida ko'rsatilgan tasniflar va tamoyillar orqali mantiqiy operatsiyalar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalari tizimi zarur. Bo'lajak o'qituvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darslikda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Demak, ijodkorlik faoliyati bo'lajak o'qituvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta'lim jarayonining sifatini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M. Aminov va b. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004

3. Xaydarova O.K. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Uslubiy qo'llanma. – Qarshi, "Nasaf" nashriyoti, 2008.

Abdukamol MAMADALIEV,
Xalq ta'limi vazirligi O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va mehnat bozoriga tayyorlash bo'limi bosh mutaxassisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING QIZIQISHLARINI ANIQLASH VA KASBGA YO'NALTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish borasida olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar, mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlash va kasbga yo'naltirish bo'yicha Buyuk Britaniya, Rossiya davlatlari tajribalari o'rganilgan. O'rganish va tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan yangi elektron tizim – "Individual tashxislash tizimi"ni yaratish taklif etilgan. Tizim orqali o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish bo'yicha tizimli monitoring olib borish ko'rsatilgan. Mazkur platformani ishga tushirishda erishiladigan natijalar ham to'liq ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunarga yo'naltirish, platforma, tashxislash, mehnat bozori.

В данной статье в современных общеобразовательных школах освещается работа, проводимая по определению интересов учащихся, ориентирование их на профессию, достигнутые результаты, существующие проблемы и задачи, которые необходимо выполнить. В ходе исследования был изучен опыт Великобритании и России в определении интересов студентов и направлении их в профессию. По результатам изучения и анализа было предложено создать новую электронную систему, подходящую для Узбекистана – ''Система индивидуальной диагностики''. Через систему обозначен систематический контроль за определением интересов студентов и направлением их в профессию. Также полностью указаны результаты, которых можно достичь при запуске данной платформы.

Ключевые слова. Общеобразовательная школа, профориентация, платформа, диагностика, рынок труда.

In this article, today's general secondary education schools highlight the work carried out to determine the interests of students, guide them to the profession, the achieved results, the existing problems and the tasks to be performed. In the course of the research, the experiences of Great Britain and Russia were studied in determining students' interests and directing them to the profession. Based on the results of study and analysis, it was proposed to create a new electronic system suitable for Uzbekistan – "Individual diagnosis system". Systematic monitoring of determining students' interests and directing them to the profession is indicated through the system. The results that can be achieved when launching this platform are also fully specified.

Key words. General secondary school, career guidance, platform, diagnosis, labor market.

Bugungi kunda yurtimizda 10 130 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 6,2 million nafardan ortiq o‘quvchilar ta’lim-tarbiya olmoqda. Ularning 2,5 milliondan ortig‘i boshlang‘ich sinflarda, 3,7 millioni 5-11-sinflarda o‘qiydi. Har yili o‘rtacha 400-500 ming nafar o‘quvchilar umumta’lim maktablarining 11-sinfini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo‘yishadi. Ularni hayotga tayyorlash, hayotda o‘z o‘rnini topishlari uchun zarur ko‘nikmalarni berish nafaqat xalq ta’limi tizimi, balki, jamiyat rivojiga mas’ul bo‘lgan barcha boshqa sohalar oldida turgan eng muhim vazifadir.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar xalqaro va mamlakatimiz olimlari: Noel Mwenda, Sh.S.Sharipov, B.S.Volkov, N.S.Pryajnikov, V.A.Mansurov, O.V.Yurchenko, S.N.Chistyakova, ye.V.Gudkova, A.S.Skutin, R.G.Isyanov, S.B.Umarov, P.Q.Xolmatov, D.M.Anvarova, P.S.Ergashev, A.A.Xasanovlar tomonidan olib borilgan. O‘quvchilarni kasb–hunarga maqsadli yo‘naltirishning hududiy xususiyatlari va ijtimoiy–iqtisodiy omillar ta’sirini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar V.A.Orlov, P.F.Anisimov, O.A.Xaydarov, G.F.Shafranov-Kutsev, S.N.Tolstoguzov, Q.X.Abdurahmonov, N.K.Zokirova, Z.Ya.Xudoyberdiev, K.A.Eshpo‘latov, N.R.Ashurovlar tomonidan olib borilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi“2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni 1-ilovasi 22-23-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-241-son Qarori 7-bandlariga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajak kasblarini aniqlash, mamlakatdagi aktual kasblar bo‘yicha ma’lumot taqdim etish, psixologik testlar orqali kasbiy tashxis qo‘yishni tizimli tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30 dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining

10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 792-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida yaratilishi rejalashtirilgan O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo‘lishlariga ko‘maklashishga qaratilgan elektron “Individual tashxislash tizimi” yagona platformasini yaratish bo‘yicha nufuzli, ilg‘or davlatlarning tajribalari o‘rganilib, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari tahlil qilingan. O‘rganish va tahlil natijasiga ko‘ra, yangi yaratilayotgan tizim orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo‘naltirish, kelgusida hayotga tayyorlashning yangi innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijasida yaratilayotgan tizimda quyidagilar ustuvor yo‘nalishlar sifatida qabul qilindi:

– o‘quvchilarning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash;
– umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish;
– maktab bitiruvchilariga kelajak kasbini tanlashda ko‘maklashish;
– bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini yaratish;
– o‘quvchilarning intelektual rivojlanishi va emotsional holatini monitoring qilish;

[1] A.Usmonov, “O‘quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo‘naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili”, 3-4 betlar, https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/download/4299/2918

– o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi (jinoyatga moyillik darajasi, suitsid havfi, zo‘ravonlik va tazyiq)ni aniqlash;

– o‘qituvchi va o‘quvchlarga tezkor onlayn psixologik yordam ko‘rsatish;

– kasb-hunarga yo‘naltiruvchi yagona elektron platformani mavjud platformalar bilan integratsiya qilish, statistik ma’lumotlar oynasini yaratish hamda doimiy monitoring qilish;

– o‘quvchi shaxsning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi hamda undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishiga zamin yaratish (1-rasm).

Platformani yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablari, farzand tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan ota-onalar hamda mazkur masalalarga mas’ul bo‘lgan keng jamoatchilik bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini psixologik hamda IQ-testlar o‘tkazish orqali kasbga yo‘naltirish;

– bitiruvchi sinf o‘quvchilarini davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar (“Kasblar Atlasi”) to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish;

– respublika bo‘ylab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarini tizimlashtirish va monitoring qilish;

– kasbiy qiziqish va qobiliyatlariga ko‘ra, mos to‘garak yoki onlayn ta’lim manbalariga yo‘naltirish orqali yetuk shaxslarni tarbiyalash.

Shu o‘rinda mazkur tadqiqot olib borish jarayonida bir nechta jahonning ilg‘or davlatlari tajribalari o‘rganib chiqildi. Rivojlangan davlatlarda maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish, bepul kasbga yo‘naltiruvchi platformalar va saytlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalar etib belgilangan.

Jumladan, ta’limning boshqaruv shakllariga ko‘ra, O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan Rossiya Federatsiyasining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarini ish bilan ta’minlash ularni o‘z qiziqishlari darajasida kasbga yo‘naltirish hamda hozirda mavjud bo‘lgan va ehtiyoji baland kasblar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun bepul kasbga yo‘naltiruvchi platformalar va saytlar mavjud bo‘lib, unda maktab o‘quvchilari bevosita korxona va kompaniya egalari, ish beruvchilar bilan muloqot qilib, ular tarafidan taqdim etilgan savol va keyslarga onlayn tarzda javob berib o‘z bilim va kasbga layoqatliligini tekshirishi mumkin[2].

Buyuk Britaniyada “Gatsby” nomli vasiylik fondi 6 ta rivojlangan davlatlarning (Niderlandiya, Germaniya, Gongong, Finlyandiya, Kanada va Irlandiya) kasbga yo‘naltiruvchi loyihalarini va amalga oshirayotgan tashabbuslarini o‘rganib britaniyaliklar uchun asosiy bo‘lgan va samarali natija ko‘rsatuvchi asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, Buyuk Britaniya o‘quvchilari uchun yagona bo‘lgan kasbga yo‘naltiruvchi dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, dastur o‘z ichiga hozirgi kundagi aktual kasblar haqida ma’lumotlar, psixologik testlar, ish beruvchi va oliy o‘quv yurtlari rahbarlari bilan uchrashuvlar, ish beruvchi bilan muloqot va real rejimda o‘z tanlagan kasbi bo‘yicha vazifalarni bajarib o‘ziga to‘g‘ri kelgan kasbni tanlash imkoniyatini yaratadi[3].

Yangi avlod bolalarining gadjetlar bilan hamnafas o‘sishini inobatga olib hamda o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo‘lishlariga ko‘maklashishga qaratilgan yagona elektron platformasining yanada rivojlantirish maqsadida uning mobil ilovasini yaratish ko‘zda tutiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijasida platformani yaratish orqali

[2] Profgid, proforientator platformalari (https://www.profguide.io/, https://proforientator.ru)

[3] https://www.gatsby.org.uk/education/focus-areas/good-career-guidance

maktab o‘quvchilarini vaqtini samarali o‘tkazish, o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish, bilimi va salohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga yo‘naltirish, umumta’lim maktab o‘quvchilari orasida jinoyat va bezorlikni bartaraf etish hamda maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga yo‘naltirishga erishiladi. Jumladan:

– bitiruvchilar mazkur platforma yordamida barcha soha kasblari bo‘yicha to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladilar;

– o‘quvchilarning dunyo qarashi, shuningdek, kasbga bo‘lgan bilim va ko‘nimkmalari ortadi, ularning kasb tanlashdagi salohiyatlari oshadi;

– o‘quvchilarni maxsus testlar yordamida ularning qiziqish va qobiliyatlari, ruhiy va oiladagi holatini aniqlashga erishiladi;

– zamonaviy kasblar yo‘nalishida o‘quv kurslar bazasi shakllantiriladi;

– o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlarni sinf kesimida monitoringi amalga oshiriladi;

– o‘quvchining barcha fanlar bo‘yicha natijalari aks ettirish maqsadida umumta’lim maktablari o‘quvchilarini bilimini baholash (kundalik.com) hamda maktablarni boshqarishning (erp.maktab.uz) elektron tizimlari bilan integratsiya qilish ta’minlanadi.

Tadqiqotning muhim samaradorligi bu mamlakatdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bilan bog‘liq tadbirlarni yagona platformada birlashtirib, natijalarni monitoring qilish va ularga asosan ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishda ko‘maklashishdir.

Tadqiqotning ijtimoiy ko‘rsatgichi o‘quvchi-yoshlarni qiziqishlariga ko‘ra yo‘naltirib, erta moliyaviy mustaqilikka erishishlari orqali ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari, mavqei va tajribasini o‘sishidir. Portalda turli forum va musobaqalar o‘tkazish orqali o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish va motivatsiyalash. Bundan tashqari, jamiyatimizdagi jinoyatchilar va axloqsiz shaxslarni kamaytirish maqsadida yoshlarni bandligini oshirishga erishiladi.

Eng asosiysi, bitiruvchilarni kelajak kasbini aniqlashda yordam berish orqali mamlakatdagi ishsizlik va kambag‘allik ko‘rsatgichlarini kamaytirish. Yoshlarimizning yashab turgan hududidan qat’iy nazar masofadan turib ishlab, yaxshi daromad topishlari uchun imkon yaratiladi. Natijada mehnat bozorida raqobat yanada kuchayib, kadrlar rivojlanishi orqali mamlakat rivojiga hissa qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-637-son, 2020 y., https://lex.uz/docs/5013007.
2. A.Usmonov, “O‘quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo‘naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili”.
3. Saidov B., A.Radjiev va boshqalar: “Kasbga yo‘naltirish: muammo va yechimlar”, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy-tadqiqot instituti, uslubiy qo‘lanma.
4. www.profguide.io
5. www.gatsby.org.uk
6. www.stat.uz
7. Qo‘shimcha internet ma’lumotlari.

Qizlarxon AZIZOVA,
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
“Pedagogika va psixologiya ta'lim texnalogiyalari” kafedrasi p.f.f.d (PhD)., v\b dotsent

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INTEGRATIV-PEDAGOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasini bilish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, axborot, rivojlantirish, vosita, ko‘nikma, ijtimoiy subyekt, vosita, sifat.

В статье рассматривается значение знания профессионального потенциала и уровня образования учителя начальных классов, детской психологии, современной методики начального образования в повышении качества начального образования. Также было упомянуто о формировании необходимых навыков у учащихся начальных классов, поднятии их качества и работоспособности на новый уровень, внедрении в практику современных методов и средств обучения.

Ключевые слова. Компетентность, информация, развитие, инструмент, умение, социальная сущность, инструмент, качество.

The article discusses the importance of knowledge of the professional potential and level of education of the primary school teacher, child psychology, modern primary education methodology in improving the quality of primary education. It was also mentioned that the formation of the necessary skills of elementary school students, raising their quality and efficiency to a new level, and introducing modern teaching methods and tools into practice.

Key words. Competence, information, development, tool, skill, social subject, tool, quality.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadiga erishish, ya’ni bolada o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, o‘qish savodxonligini tarkib toptirish, bolalarni turli ma’lumotlar bilan ishlashga o‘rgatish, asosiy matematik amallarni puxta bilishlariga va kundalik hayotda qo‘llay olishlariga erishish, ularda mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, ularni yozma va og‘zaki muloqot me’yorlarini egallashga hamda o‘z-o‘zini boshqarish va tuta bilishga o‘rgatish uchun boshlang‘ich sinflarda sifatli ta’limiy faoliyatni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma‘lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim metodikasini bilishi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, boshlang‘ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Barcha umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini o‘quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, talabalar tomonidan ham istalgan ma'lumotni ixtiyoriy ravishda o‘zi uchun qulay sharoit va joyda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo‘lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o‘zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma'lumotlarning muayyan sohalar bo‘yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Ularning bilimlarini amalga oshirish, shuningdek, rivojlantirish uchun daraja va sharoit yaratish ularning ijodiy faoliyatini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar faoliyatidir. Ta’lim tizimida o‘quv jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarga imkon beradi. Inson va jamiyat, tarix va madaniyat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, asosiy fundamental bilimlar, yo‘nalish olish uchun ilmiy faoliyatni amalga oshirish, professional asoslarni o‘rganish pedagogik bilimlarni rivojlantirish, pedagogik bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish ijodkorlikdan iborat. Shu bilan birga, ushbu jarayon huquqlarni ta'minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilari ta'lim olish va ijodkorlikni davom ettirish uchun pedagogik faoliyati bo‘lajak o‘qituvchilarning umummilliy va psixologik-pedagogik rivojlanish asoslari nazariy hisoblanadi. Rivojlanishga qaratilgan yondashuvlar va ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar ijtimoiy qiyinchiliklarning oldini olish uchun shaxsiyat xususiyatlari ijtimoiy his-tuyg‘ular va moslashuvlar, ijtimoiy ustuvorlikni anglash atrof-muhit o‘quv jarayonini tavsiflovchi omil sifatida yo‘naltirilgan jamiyat bilan munosabatlarni ifoda etish va jamoat burchini bajarish kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan qo‘llash natijasida har qanday shaxs o‘zining kasbiy bilimlarida tajribaga ega bo‘ladi.

Ta’lim tizimida tom ma’noda o‘quvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o‘quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarini pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat va kreativlik asoslari bilan tanishtirish ular tomonidan o‘quv jarayonini ijodiy xarakterda, qiziqarli, to‘quvchilarning faolliklari asosida tashkil etilishishga yordam beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning har qanday o‘quv axborotiga nisbatan ijodiy yondasha olish, ularni qayta ishlash, ayniqsa, davr talabidan kelib chiqqan holda matnli ma'lumotlarni modellashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari nafaqat o‘quvchilarni balki o‘zlarining ham o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy tomonga tubdan o‘zgartiradi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vaziflardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida kadrlar tayyorlash borasida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish taklif etiladi:

– jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash,;

– boshlang‘ich ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

– mazkur sohadagi pedagoglarning kasbiy darajasi va malakasini oshirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash shakl va usullarini takomillashtirish, pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish;

– boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida o‘quv rejalari va dasturlari mazmunini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or xorijiy tajribadan foydalangan holda, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish;

– oliy ta’lim fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion ishlanmalar yaratish va innovatsion yarmarkalarga taqdim etish, xo‘jalik shartnomalari bajarish.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi: bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli ma’lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tuta bilish,yozma va og‘zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta’limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta'lim metodikasini bilish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, sifat-samaradorliginiyangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta'limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit

yaratadi.

Barcha umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarni ommalashtirishni taqoza etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishini, malakali kadrlar tayyorlashda yuksak samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarini pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat va kreativlik asoslari bilan tanishtirish ular tomonidan o‘quv jarayonini ijodiy xarakterda, qiziqarli, bo‘lajak o‘qituvchilarining faolliklari asosida tashkil etilishishga yordam beradi. Ularning har qanday o‘quv axborotiga nisbatan ijodiy yondasha olish, ularni qayta ishlash, ayniqsa, davr talabidan kelib chiqqan holda matnli ma’lumotlarni modellashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari nafaqat talabalarni balki o‘zlarining ham o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy tomonga tubdan o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oliy ta'lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliyot va istiqbollarll ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, –T.: Universitet, 2018 yil 25 oktyabr. – 391 bet.

2. Paxrutdinov Sh. Pedagog rahbarlarning mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish. / “Malaka oshirishda ta’lim sifati menejmentini joriy etish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: A.Avloniy nomidagi XTXQMOMI, 2016-yil 29-noyabr. – 12-15-betlar.

Feruza XOSHIMOVA,
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi oqituvchisi

MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada tinglovchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e’tiborga olinishi, tinglovchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif masofaviy o‘qitishni tashkillashtirishda tinglovchilar bilan doimiy ravishda aloqada bo‘lish, tinglovchilarga zaruriy metodik yordam berish, yakka tartibdagi mashg‘ulotni bajarish yuzasidan nazoratni amalga oshirish va tinglovchilar bilimini baholash tyutorning vazifalarini aytib o‘tgan.
Kalit so‘zlar. Tinglovchilar ijodkorlik faoliyati, tashkillashtirish, tyutor, axborot va kompyuter texnologiyalari, o‘quv jarayoni samaradorligi.

В статье рассматривается рассмотрение двух взаимосвязанных задач в организации творческой деятельности слушателей, стратегии подготовки слушателей к творческой деятельности. Также автор упомянул об обязанностях тьютора находиться в постоянном контакте с учащимися, оказывать необходимую методическую помощь учащимся, контролировать выполнение индивидуального занятия и оценивать знания учащихся.
Ключевые слова. Творческий потенциал студентов, организация, тьюторство, информационно-компьютерные технологии, эффективность учебного процесса.

The article discusses the consideration of two interrelated tasks in the organization of creative activities of listeners, the strategy of preparing listeners for creative activities. Also, the author mentioned the duties of the tutor to be in constant contact with the students, to provide the necessary methodical assistance to the students, to supervise the performance of the individual training and to evaluate the knowledge of the students.
Key words. Students' creativity, organization, tutoring, information and computer technologies, effectiveness of the educational process.

Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida ham jiddiy islohatlar amalga oshirildi, ta’limning sifatini yaxshilashga kirishildi. Shu boisdan bugungi kunda sifatli ta’lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo‘llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o‘qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Masofadan o‘qitish usulida o‘qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo‘lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o‘qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo‘ladigan elektron pochta va Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Shuningdek, ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish darajasini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida masofaviy ta’limni yanada takomillashtirish va mustaqil ta’lim olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

O‘qitishning hozirgi zamon usullaridan biri – masofadan o‘qitish usuli bo‘lib, bir qancha qulayliklarga ega. Masofadan o‘qitishning qulayliklaridan biri shundaki, unda o‘quvchi o‘ziga qo‘lay vaqtda hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu qulayliklari tufayli bu uslub dunyoda keng tarqalgan. O‘quv-uslubiy materiallarining mazmuni va dizayni masofadan o‘qitish sifatining eng asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada davlatimiz tomonidan me’yoriy-hujjatlar qabul qilingan. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-son qarori bilan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning bazaviy ta’lim muassasalari, ta’lim muassasalariga ega bo‘lgan vazirlik va idoralarning ilmiy-tadqiqot va metodik markazlari zimmasiga, jumladan, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida masofadan o‘qitishni ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”.[1] – deb aytgan fikrlari ahamiyat kasb etadi.

Bu esa pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga, ta’limning uzluksizligini hisobga olib, tanqidiy va ijobiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning interfaol usullaridan, shuningdek, yangi pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, masofadan o‘qitish tizimini joriy etish nazarda tutilgan. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda qo‘llaniladigan masofadan o‘qitishning asosiy maqsadi: tinglovchilar yashash manzilidan qat’iy nazar jahondagi ixtiyoriy ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning salohiyatidan foydalangan holda, ta’lim sifatini oshirish, tinglovchilarga uzluksiz ta’lim olishini va ta’limning turi shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat.

Masofadan o‘qitish, an’anaviy ta’limga qaraganda, bir qator ilg‘or yo‘nalishlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Masofadan o‘qitishda interfaol uslublardagi kabi ta’lim jarayonining markazida tinglovchi turadi. Tinglovchilar bu jarayonda o‘qituvchilar yoki tyutorlar bilan bilvosita muloqatda bo‘ladi. Eng asosiysi, masofadan o‘qitishda ishtirok etgan tinglovchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Bugungi kundagi qo‘llanilayotgan masofadan o‘qitish texnologiyasini quyidagi turlarga ajratish mumkin: jumladan; interfaol (chop etilgan materiallar, audio, video turdagi vositalar), kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish vositalar (elektron darslik, kompyuterli testlash va bilimlarini nazorat qilish, multimedia, virtual

[1] Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. – T., 2017, 45-bet.

laboratoriya stendlari), videoanjumanlar-audiokanal va kompyuter tarmoqlari bo‘yicha rivojlangan telekomunikatsiya vositalari. Masofadan o‘qitishda elektron darsliklar va elektron o‘quv qo‘llanmalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Malaka oshirish tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayoni samaradorligini, tinglovchilar bilimi va tayyorgarligini oshiradi, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirishga va bilimlarni bir tizimga keltirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tatbiq etish bilimlarni berish sifatini oshiradi, tinglovchilarni mashg‘ulotlar jarayoniga faol jalb qiladi, shaxsning bilim olishga bo‘lgan talablarini hisobga olgan holda ularga individual yondashish imkoniyatlarini beradi. Bu esa o‘z ustida ishlash va izlanishga turtki bo‘ladi. Ana shu maqsadda zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan tinglovchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

– axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o‘rganish obyekti sifatida, ya’ni tinglovchilar yangi axborot texnologiyalar, ularning tarkibiy qismlar va foydalanish sohalari bo‘yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo‘ladilar;

– axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o‘qitish vositasi sifatida, ya’ni zamonoviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida tinglovchilarga bilim beriladi hamda ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etiladi;

– o‘quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya’ni ta’lim muassasasining barcha ish faoliyati, shu jumladan o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish vositalari o‘rgatiladi;

– ilmiy-tatqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish bo‘yicha bilim va malakalar shakllantiriladi.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishning asosiy vositalari sifatida o‘quv va amaliy dasturlari, multimedia texnologiyalari, elektron o‘quv adabiyotlari, masofadan o‘qitish tizimi, Internet tarmog‘i hamda amaliy dasturlar paketlari keng qo‘llanilmoqda.

Tinglovchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida, ya’ni ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida zamonaviy o‘quv dasturlarining qo‘llanilish o‘rniga qarab hamda tinglovchilarni mustaqil bilim olish, o‘tilgan mavzularni takrorlash, olgan bilimlarini tekshirish, nazorat qilish jarayonlarida foydalanish, ularning o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilim va malakalarini mustahkamlashda hamda o‘quv jarayonini mukammallashtirishda muhim asos yaratadi.

Masofadan o‘qitish tizimi interaktiv bo‘lganligi sababli, tinglovchining o‘z ustidan mustaqil ishlashida juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Masofadan o‘qitish – bu o‘qitishning progressiv metodlari va texnologiyalari bo‘lib, yangi o‘quv metodologiyasiga va telekommunikatsiya texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, o‘qitishning barcha formalarini sifatligi, uzluksizligi va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Tinglovchilarni mustaqil bilim olishida, o‘tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o‘rganuvchi, axborot – ma’lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Axborot va kompyuter texnologiyalardan foydalanib o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishda kompyuter texnologiyalari bo‘yicha mukammal bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning o‘rni va

salmog‘i katta bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ta’lim jarayonida asosiy e’tibor, eng avvalo, tinglovchiga zarur bo‘lgan sharoitni yaratish va axborot-telekommunikatsion texnologiyalardan ta’lim-tarbiya jarayonlarida samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Natijada tinglovchilarda: o‘z ustida ishlash va malakasini oshirishga bo‘lgan intilish kuchayadi; bilim olish faolligi oshadi; ijodiy faollikni namoyon qilish imkoni paydo bo‘ladi; o‘quv jarayonida mustaqil ishlashga sharoit yaratiladi; mustaqil egallagan bilimlarini tizimli ravishda nazorat qilish imkoni tug‘iladi va hokoza.

Ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Unga berilgan tariflar bir-biridan jiddiy farq qilsa-da, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko‘rsatish mumkin, bular:

Birinchidan, ijodkorlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo‘lishi.

Ikkinchidan, ushbu jihatlar ijodkorlikning dastlabki asoslarida mavjud bo‘lmaganligi.

Uchinchidan, har qanday ijodkorlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi.

Fikrimizga ko‘ra, tinglovchining ijodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog‘lay olishi, olingan natijalarni to‘g‘ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishidir. Ijodiy faoliyatni o‘qituvchi va o‘quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Muntazam ravishda muayyan metod, shakl, vositalarga tayanib qolish – yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, jumladan, o‘zgalar fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtayi nazardan qat’iy himoyalanish; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski metodlarni qo‘llash; yangi metodlarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an’anaviy usullarni qo‘llash kabilar.

Tinglovchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e’tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – tinglovchilar ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi – o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi.

Ijodkorlik o‘quvchilar egallayotgan bilimlarning mustahkamligi va mukammalligini ta’minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo‘lajak mutaxassislarning fan asoslarini o‘zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda kasbiy ijodkorlikka asoslangan yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnologik asosda rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimida yangi malakaga ega kasbiy ijodkor mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning muhim manbaini shakllantirishni talab etadi. Bu ma’noda tadqiqot ishida kasbiy ijodkorlik tushunchasi mutaxassislik ko‘nikma va malakalarini ilmiy-texnik bilimlar hamda iqtisodiyot sohalari innovatsion faoliyatini ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida ijodkorlik mahsulini intellektual mulk sifatida yaratishga qaratilgan faoliyat jarayoni sifatida qabul qilindi. Shaxs individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlaridir. Chunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o‘zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o‘zgarishlariga ega bo‘lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish

jarayonlariga bevosita ta’sirini o‘tkazadi. Shaxsning yosh davrlari ichida o‘smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir.

O‘smir o‘g‘il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o‘quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo‘lg‘usi mutaxasis shaxsining shakllanishida o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shaxs ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e’tibor berish bilan cheklanib qolish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bermaydi. Shu sababli o‘smir shaxsining barcha sohalardagi faoliyat ko‘rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog‘ini oshirishga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida tinglovchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi deb hisoblash mumkin:

– o‘quvchilar e’tiborini masalani hal qilishda qo‘llanilgan usulning universalligi, keng qamrovligiga qaratish;

– tinglovchilarni ijodkorlik metodlariga o‘rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo‘yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo‘l, imkoniyat sifatida qaralishi;

– o‘quvchilar o‘zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g‘oyalar ijodkorlik darslarinining asosiy mahsuli sifatida qaralishi;

– axborotlarni yig‘ish, tahlil va talqin qilishni ijodkorlikni yo‘lga qo‘yishning muhim jihati sifatida qaralishi;

– shaxs ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashni ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarining muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlardan ham tashqariga chiqadigan masala sifatida qaralishidir.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayoni oxirida tinglovchilarning modullarni o‘zlashtirganligi, nazorat ishlarini bajarganligi yuzasidan olib borilgan monitoring natijalari asosida tahliliy xulosalar tayyorlanishi nazarda tutiladi. Bunda sifatli o‘quv natijalariga erishish mezonlari sifatida o‘qish vaqti, tinglovchilarning o‘zlashtirishi, qayta aloqa sifatini talab darajada ta’minlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T., 2017, 45-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tug‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

3. Mirzayev M., Soxibov B. Pedagog kadrlarni masofaviy malaka oshirish o‘quv kurslarida ta’lim olishi yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalar. // Pedagoglarni masofadan o‘qitish kurslariga qabul qilish, ta’lim jarayonini tashkil etish, yakuniy attestatsiya o‘tkazish, bitiruvchilarga sertifikat berish tartibi. – T.: MO‘HM markazi, 2014.

4. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar xalqaro ilmiy konferensiya. –T., 2018-yil.

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari doktori
Gulobod IBRAGIMOVA,
Qarshi davlat universiteti magistratura yo'nalishi talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashish xususiyatlari pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilingan, bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari shakllanishining pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. "Ilk qadam", kompetensiya, ijtimoiylashuv, tahlil, shaxs, rivojlanish sohasi, axloq, jamoa, ta'lim, o'yin.

В статье педагогически и психологически проанализированы особенности социализации дошкольников, выделены педагогические особенности формирования компетенций в сфере социально-эмоционального развития ребенка.

Ключевые слова. "Первый шаг", компетентность, социализация, анализ, личность, поле развития, этика, команда, обучение, игра.

The article pedagogically and psychologically analyzes the features of the socialization of preschoolers, highlights the pedagogical features of the formation of competencies in the field of social and emotional development of the child.

Key words. "First step", competence, socialization, analysis, personality, field of development, ethics, team, training, game.

Maktabgacha yosh bu insonning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi sanaladi. Bolaning jamiyatda o'z o'rnini topib borishida dastlabki yosh bosqichida shakllangan kompetensiyalar uning faol ijtimoiylashuvini ta'minlab beradi. Shu bois bolalarda kichik yosh bosqichidan boshlab jamoa hayot tarzida o'zini boshqarish madaniyatini tarbiyalab borish dolzarb vazifa kasb etmoqda.

"Ilk qadam" davlat dasturida ijtimoiy kompetensiya – bolaning kattalar va tengdoshlar bilan munosabat o'rnatishda axloq normalariga rioya qilish madaniyati sifatida tushuntirilgan. Ya'ni bundan kelib chiqadiki, ijtimoiylashuv bu faqatgina kattalar va tengdoshlar bilan muomala qilishgina emas, balki, muloqot jarayonining axloqiy fazilat kasb etishini talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, hali hayot yo'lining dastlabki yo'nalishini bosib o'tayotgan bolalar ularga ro'baro' kelayotgan har bir hodisaga chuqur hayrat va qiziqish bilan qaraydilar. Atrofdagilarning har qanday xatti-harakati ular uchun oyna vazifasini bajarib turadi. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuvi yuz berayotgan kichik yosh bosqichida ularni "ijtimoiylashuv" xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda kundalik faoliyatlarni tashkil qilib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarnig ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ularning yetakchi faoliyati hisoblangan o'yin jarayonida ko'zga tashlanadi. Barcha pedagog-psixolog olimlar bolaning ijtimoiylashuv manbai sifatida o'yinni ta'kidlaydilar. Bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyati rus

psixologlaridan L.S. Vigotskiy , S.K.Rubinshteyn , A.N.Leontev, E.A.Arkin, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida ilmiy asosda yoritib berilgan.

Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muhammad Sharif So‘fizoda, Abdulqodir Shokiriy, Abdulla Avloniy va boshqalar bolani jamoada xulq-atvor qoidalariga mos ravishda harakatlanishlarida tarbiyaning ahamiyatini yuqori baholaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) o‘z ta’limotida bolalar bog‘chasida beriladigan ta’lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan holda bolaning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvining osonlashuviga olib kelishini ham aytib o‘tadi. U o‘zining ‘‘Onalar maktabi’’ kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o‘qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan. Shu bilan Y.A.Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi.

Shvetsar pedagogi I.G.Pestalotsi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katta e’tibor beradi. G.Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta’limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta’lim berishda asosiy dastur bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi zamon maktabgacha ta’lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950-yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog‘chasi har bir yosh guruhining ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni, bolalarning ijtimoiylashish xususiyatlari, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o‘tkazilgan ishlar ta’limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi.

Bolalar hayotida uchraydigan turli qiyinchliklar, qarama-qarshilik va ziddiyatlar bolani psixologik tomondan rivojlanib, shakllanib borishiga sabab bo‘ladi. Bolani psixik taraqqiyoti qanday shakllanishidan qat’iy nazar, u muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Lekin muhit ta’siriga nisbatan bu qonuniyatlar (keng ma’noda olganda) ikkilamchidir. Chunki bu qonuniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatiga va tarbiyaga bog‘liqdir.

Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga:

1. Notekislik qonuni.
2. Psixika integratsiyasi qonuni.
3. Plastiklik va kompensatsiya qonuni kiradi.

1. Psixik rivojlanishning notekisligi shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta’lim tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari rivojlanishining bitta darajasida to‘xtab turmaydi. Bolalarga bir xil tarbiya berilsa ham bolalar uni turlicha qabul qiladilar. Chunki ularning o‘ziga xos individual xususiyatlar mavjud, nerv tizimining xususiyatlari, tiplari turlicha, yashasha sharoiti tarbiyaviy ta’sirlar turlicha bo‘lgani uchun ham psixik taraqqiyot yo tezlashib, yo sekinlashib ba’zan to‘xtab tutilib qolishi mumkin. Shu sababli psixik taraqqiyotni notekis rivojlanishi mumkin deb e’tirof etiladi.

2. Integratsiya qonuni – inson psixikasini o‘z taraqqiyoti davomida tobora ko‘proq yaxlitlik, birlik, mustaqillik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta borishidir. Bunda yoshlikda hosil bo‘lgan psixik xususiyatlar taraqqiyot davomida bora -bora kishining asosiy xususiyatiga, yoki xarakter xislatiga aylanadi va bu xislat shu kishining hayotida yaqqol ko‘zga tashlanadigan bo‘lib qoladi. Bu qonunga binoan psixik rivojlanish psixik xolatlarning asta-sekin o‘sib, shaxs

xislarlariga aylanishdan iborat bo‘lgan qonundir.

3. Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati qonuni. Bu qonun asab tizimining plastiklik xususiyati bilan bog‘liqdir. Yosh bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan u albatta ularni o‘ziga o‘zlashtiradi, taqlid qiladi. Natijada u ham aqliy tomondan shakllanadi. Ta’lim–tarbiya sharoitida bolani, maktab o‘quvchisining psixikasini maqsadga muvofiq o‘zlashtirishning boy imkoniyati asab tizimining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya (to‘ldiruvchanlik, tovon, badal) uchun ham yo‘l ochib beradi: bir xil psixik funksiyaning rivojlanishi zaif yoki nuqsonli bo‘lsa, uning faoliyatini zo‘r uyushganligi va aniqligi bilan kompensatsiya qilish mumkin, ko‘rishdagi nuqsonlar, qisman, eshitish analizatorining o‘tkir darajada rivojlanishi bilan kompensatsiya qilinadi(to‘ldiriladi). Tarbiyachi va o‘qituvchilar bolaga ta’lim–tarbiya berish jarayonida psixik taraqqiyotning qonunlariga amal qilishlari va bolaning taraqqiyot xususiyatlarini bilgan holda ularga ta’lim va tarbiya berishlari maqsadga muvofiqdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy, intelektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko‘rina boshlaydi. Agar bog‘chagacha tarbiya yoshdagi bola uzoq vaqt davomida yolg‘iz o‘zi biron o‘yinchoq bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tira olsa, bog‘cha yoshdagi (xususan o‘rta va katta guruh bolalari) bola bunday yolg‘iz o‘ynashga toqat qila olmaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to‘laroq o‘zlashtirganliklari va haddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Mana shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolalar tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o‘z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo‘ni – qo‘shnilarining bolalari bilan kollektiv bo‘lib o‘ynaydilar. Shunday qilib, barcha yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi.

“Ilk qadam” davlat dasturida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarida “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetgandan so‘ng 6-7 yoshli bola quyidagi ko‘nikmalarni egallashi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan:

- o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o‘zlariga tushunarli bo‘lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba’zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg‘otish, Vatanga muhabbat tuyg‘usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy ta’lim – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog‘chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta’lim yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki ta’lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta’lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta’lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida bolalarda o‘quv faoliyati asoslari hosil qilinadi,

maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta’limning ikki xil yo‘l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Birinchi yo‘l – bolalarning bilim, malaka ko‘nikmalarini kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo‘l bilan egallagan bilim va malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi.

Ta’limning ikkinchi yo‘li – maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o‘quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borish idir. Bunday yo‘l bilan ta’lim berish dan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol integratsiyalashuvi uchun zarur bo‘lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bolaning ijtimoiylashib borishi bu nazorat ostida amalga oshiriluvchi jarayon emas, balki, kuzatish asosida yo‘lga qo‘yilishi lozim bo‘lgan muhitni yaratishdir. Bolaning mustaqil fikrga ega bo‘lishi, jamoada o‘zini maqomini aniqlashi uchun unga yordam berish va uning istaklarini hurmat qilish talab etiladi. Shunda u erkin va o‘zining shaxsiy fikriga ega shaxs sifatida voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya” –T.: “Universitet”, 2002-y, 130-b.
2. Tuxtasinov I., Isakulova N., Kulmatov B. “Bolalar pedagogikasi” Samarqand – 2020, 13-b.
3. Zufarova M., Ashurova G., Isaxonova M., Hamdamova N., Soliyeva D.. Vahobova D., Shobekova M. “Bolalar psixologiyasining muammolari.” – T.: “Fan” nashriyoti 2008, 10-b.
4. Hasanboyeva O.U. Tahriri ostida “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”, – T.: “ILM-ZIYO” 2011 y., 95-b.
5. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi – T.: – 2018. – 5-b.

Shuhratjon MAMAJONOV,
Farg'ona davlat pedagogika universiteti p.f.n., dotsenti

EKOLOGIK TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI DIDAKTIK JARAYONGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya

Maqolada ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish masalalari yoritilgan bo'lib, ular asosida talabalarda rivojlantiriladigan ekologik kompetensiyalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ekologiya, ekologik kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi.

В статье освещены вопросы внедрения технологий экологического воспитания в дидактический процесс, на основе которых представлена информация об экологических компетенциях, развиваемых у учащихся.

Ключевые слова. Экология, Экологическая компетентность, педагогические возможности, экологическое воспитание, экологическая культура, охрана окружающей среды.

The article highlights the issues of the introduction of environmental education technologies into the didactic process, on the basis of which information about environmental competencies developed by students is presented.

Key words. Ecology, Environmental competence, pedagogical capabilities, environmental education, environmental culture, environmental protection.

O'qitish sifati O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va xavfsizligi, raqobatbardosh kadrlarga ega bo'lishining muhim shartidir. O'qitish sifatining asosiy qismini ta'lim mazmunining sifati va tarbiyaviy jarayonlarning sifati tashkil qiladi.

O'qitish sifatini ta'minlashda ta'lim muassasasidagi manbalarning sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim manbalar sirasiga ta'lim muassasasidagi pedagogik kadrlar, informatsion-metodik, ta'limiy-texnologik, moddiy-moliyaviy manbalarni kiritish mumkin.

Shu bilan bir qatorda ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish uchun quyidagilarni tahlil qilish talab etiladi:

– amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;
– metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;
– mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;
– o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;
– fanlar bo'yicha o'qitish sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilar.

Ekologik tarbiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ta'lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin egallaydi. Xususan:

– o'tgan o'quv yillarida tashkil etilgan o'quv dasturlari;
– ta'lim muassasasida tashkillashtirilgan va yaratilgan uslubiy hamda didaktik qo'llanmalar;
– sinovdan o'tkazilgan o'rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;

– yangicha ekologik fikrlar yig‘indisi;

– uslubiy faoliyatning tashkillashtirilganligi, yetakchi tatqiqotlarni aniqlash, tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar tahlil qilinar ekan, ekologik tarbiya texnologiyalari orqali talabalarning maxsus va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda informatsion-metodik hamda ta’limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida qimmatga egaligi aniqlandi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari:

– ekspert xulosalari;

– nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;

– yig‘ilishlar, kengashlarning materiallari;

– metodik seminarlarning materiallari kabilar.

Talabalarda ekologik bilimlar sohasining kengayishida muassasaning moddiy-moliyaviy manbalarini hisobga olishni ham talab etadi. Mazkur manbalar sirasiga:

– ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;

– qabul qilingan me’yorlar va talablarga mos tarzda o‘quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan modddiy-texnik bazaning tavsifi;

– ta’lim muassasasidagi o‘quv kabinetlarining kompyuterlar, audio, zallar, inventarlar bilan ta’minlanganligi;

– ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo‘naltirilgan rejasi;

– o‘qitish jarayoni sifatining o‘quv jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta’minlanganligi;

– ta’lim muassasasida masofaviy ta’limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Respublikamiz akademik muhitida ta’lim oluvchilarning samarali bilim egallashlari va sifatli o‘quv-biluv faoliyati uchun zarur bo‘lgan didaktik tayyorgarligini shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ta’lim jarayoniga joriy etilganligi tadqiqotlarimiz mobaynida ayon bo‘ldi. Biroq, zamonaviy ta’limda o‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish uchun o‘qituvchilar mas’uligini oshirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirishga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligi ayon bo‘ldi.

Kuzatuvlardan aniqlanishicha, oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarda ekologik tafakkurni rivojlantirishga bo‘lgan pedagogik talablar to‘g‘ri tashkil qilinganligiga qaramasdan, ekologik tarbiya texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlariga muntazam ravishda tatbiq qilish lozimligi aniqlandi.

2021-20221-o‘quv yilida Farg‘ona davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universitetining “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun “Orol fojiasini bartaraf etish” mavzusida tashkil qilingan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotda “Qiziqarli muammolar va ularning yechimlari” mualliflik texnologiyasidan foydalandi. Bunda guruh kichik guruhlarga ajratildi va o‘qituvchi har bir guruhga oldindan tayyorlab qo‘yilgan har bir munosabat ta’rifi, bitta aniq olingan munosabatga berilgan ta’rif sharti bajarilishini tekshirish yo‘llari, berilgan topshiriq uchun

munosabat qanday bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar yozilgan kartochkalarni tarqatdi. Kichik guruhlar ma’lum muddat kerakli ma’lumotlarni olib bo‘lgach, boshqa guruhlarga bittadan tarqaldilar, natijada har bir hosil bo‘lgan yangi kichik guruhlarda Orol fojiasini hal qilish haqidagi ma’lumotlar yig‘ilishi kerak bo‘ldi, ya’ni avvalgi kichik guruhlarning har biridan albatta bitta vakil yangi tashkil etilgan kichik guruhlarda bo‘lishi shartligi aytildi. Yangidan tashkil etilgan kichik guruhlar vakillari o‘z bilimlari bilan o‘rtoqlashadilar: o‘rgangan va bajarishi kerak bo‘lgan shartni tushuntiradilar, keltirilgan misollarni sharhladilar va yozma kichik taqdimot tayyorladilar. Axborotlar muhokama qilib bo‘lingach, har bir keltirilgan aniq misol yana qanday shartlarni bajarilishi tekshirildi. Natijada kichik taqdimotda talabalar turli ko‘rinishlarda esse yozish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, mazkur texnologiyaning maqsadi: talabalarning ekologik faoliyati natijalari, transformatsiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Talabalar jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, firklarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3956-son qarori.

2. 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5863 sonli Farmoni

3. Андреев В.И. Концептуальная педагогическая прогностика: Монография / В.И.Андреев. Казань: Центр инновационных технологий, 2010. С. 220.

4. Аршинова В.А. Обучение теории.- М.: Знание, 2015. – С. 124.

5. Ахлибинский Б.А. Категориальный аспект понятия интеграции/ Б.ААхлибинский // Диалектика как основа интеграции научного знания. Под ред. АА.Королькова. Л.: Изд. ЛГУ, 1984. С.50-60.

6. Мамажонов Ш. Атроф-муҳитни мухофаза килиш. – Т.:Молия, 2019. – 202 б.

Dilfuza KAMOLJONOVA,
"G'uncha" jurnali mas'ul kotibi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikga targ'ib etishning yangicha tamoyillari, kitobxonlikning bolalar tarbiyasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Muallif muammo yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kitobxonlik, didaktik adabiyot, adabiy-badiiy asar, mutola madaniyati, idrok etish, axloq va tarbiya.

В статье рассматриваются новые методы популяризации чтение у малых школьников, дидактическая литература по воспитание детей. Автор излагает научно торические и практические рекомендации по проблемы чтение средства и методы развития чтение учеников среди начальных классов.

Ключевые слова. Чтеня, дидактическая литература, художственная-литературная книга, культура чтения, восприятие, этика и воспитание.

The article reveals the new principles of promote a reading culture in early ages between pupils and role of didactic literate in children's upbringing. The author gave scientific-theoretical and practical recommendations regarding the problem.

Key words. Promote a reading, didactic literature, literary and masterpiece, creating reading culture, perception, morality and upbringing.

Yosh avlodni ma'nan yetuk shaxs bo'lib shakllanishida yozma manbalar, jumladan, badiiy adabiyotning o'rni muhim sanaladi. Tarixga nazar solsak, Turk tilida yozilgan ilk badiiy asarlar negizida didiktik ruh yetakchilik qilgadi. Adabiyot so'zining lug'aviy ma'nosi "Adab – odobni yod etish" ma'nosini anglatib, mutoladan maqsad – bolalarga go'daklik chog'idanoq go'zal tarbiya berish, ularni komil xulq va axloq egasi bo'lib shakllanish bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan manba sanaladi. Asar turkiy adabiyotni boshlab berishi bilan bir qatorda, davlat va jamiyat qurilishi masalalari, komil inson va ilm-ma'rifat targ'iboti asardagi to'rt ramziy qahramonlar orqali ifoda qilingan. Yana bir asar Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy manba – "Qobusnoma" Kaykovus (1021-98) tomonidan fors tilida yozilgan asar sanaladi. Uning 40 bobi ota va onani hurmatlash, ilmiy bilimlar, san'atni egallash, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaratiladi.

Sharq xalqlari ilm va tarbiyaning yosh avlodga go'daklik chog'idan singdirishga alohida e'tibor qaratganlar. Baxt va muvaffaqiyatning kaliti bilim, bilim olishning vosi-

tasi kitob mutoalasida deb qaralgan. Kitobxonlik masalasi bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib, mamlakatimizda o‘g‘il, qizlarga ta’lim va tarbiya berish, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga boshlang‘ich sinf davridayoq davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Bolani mutolaga rag‘batlantirish ularning yoshi, qiziqishi, sinfdagi muhitga bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘qish ko‘nikmasi o‘quvchilarda xat-savod chiqargandan so‘ng kichik hajmli matnlardan boshlab, muntazam tarzda rivojlantirib boriladi. Bola yoshiga qarab badiiy kitoblar tasnifi:

1. Atrof-muhit (atrofimizdagi olam (jonivorlar), yil fasllari, tabiat o‘zgarishlari, insonlar, yaxshi va yomon o‘rtasidagi farqlarni tushuntiruvchi) qisqa ertak, hikoya va rivoyatlarni jamlagan, yorqin rangli, suratli kitoblar. (Besh va undan katta yosh bolalar uchun).

2. Xat-hisobga o‘rgatadigan, boshlang‘ich bilimlarni o‘zida jamlagan kichik matnli ensiklopedik kitoblar. Koinot mo‘jizalari, raqamlar va ularning tartiblanishi, hafta kunlari, narsa buyum hajmi, rangi, mazasi haqidagi bilimlarini shakllantirishga qaratilgan to‘plamlar. (6, 7 yoshlilar uchun).

3. Xat, savodni tanigandan so‘ng, mustaqil mutolaa uchun sinfdan tashqari o‘qish darsliklar. “Mening birinchi ensiklopediyam”, “Jonivorlar katta kitobi”, “Gulgina” kabi o‘quvchilarga narsa, buyum haqida ma’lubot beruvchi, kichik hajmdagi she’r, hikoya, ertaklar bilan tanishtiruvchi adabiyotlar. (7 va 8 yosh bolalar uchun).

4. Kichik hajmdagi badiiy va ilmiy adabiyotlar. (fizika, kimyo, astranomiya, matematikaga oid bilimlarni sodda va ravon tilda tushintirib bera oladigan ilmiy, rangli, qiziqarli faktlarga asoslangan kitoblar. (Bu qanday ishlaydi?, Nimadan tayyorlangan?, Qay tarzda harakatlanadi?, Qanday hisoblanadi? kabi savollarga javob beruvchi ilmiy to‘plamlar, o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti durdonalari (9-12 yosh).

Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 – 2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to‘rtinchisi – aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bu borada maktablarda ham qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitob marafonlari tashkil qilinib, badiiy adabiyotlarning maktab yarmarkalari tashkil etilmoqda. Kitobxonlik yuzasidan turli viktorinalar, tanlovlar e’lon qilinmoqda. Shunday bo‘lsada, kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida yechilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud: Kitobxonlikni – bolalar kitobxonligini rivojlantirish borasida bajarilayotgan ishlar natijasini baholash tizimi shakllanmagan. Bolalarning aqliy qobiliyatini shakllantiradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan badiiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy yo‘nalishdagi o‘zbek va jahon adabiyoti asarlari bolalarning yoshiga va qabul qilish darajasiga mos ravishda saralab olinib, tasniflanmagan.

So‘z mulkining sultoni, Alisher Navoiy yoshlikda olingan bilimni toshga o‘yilgan naqshga qiyoslaydi. Kitobxonlikning shakllanishi ham aynan maktabgacha va boshlang‘ich

sinflarda shakllanishini inobatga olgan holda bolalar kitoblarini ularning yoshlariga mos va o‘qishli qilib chop etilishiga katta e’tibor qaratilishi lozim. Bolalar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq, tizimli mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Kitobxonlik rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, bolalar kitobxonligining milliy mexanizmini yaratish zarur.

Bunda maktabgacha ta’lim muassasasi, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari, maktab kutubxonachilari bilan ota-ona hamkorligini yo‘lga qo‘yish zarur.

Ma’naviyat soatlarida “Ochiq kutubxona” haftaligini tashkil qilib, ota-onalarga farzandlariga o‘qishli kitob tanlash malakasini shakllantirishga yordam berish.

Sinflarda badiiy kitob burchaklarini tashkil qilish.

Maktablarda “Faol kichkintoy kitobxon”, “Kitobxon sinf” musobaqalarini muntazam tashkil qilib, o‘quvchilarda kitobxonlikka ishtiyoqni keng targ‘ib etish. G‘oliblarni taqdirlash orqali boshqa o‘quvchilarda kitob o‘qishga rag‘bat tuyg‘usini uyg‘otish.

O‘zbek xalq ertaklarini o‘qish vaqtida ertaklar asosida ishlangan multfilmlarni dars davomida tomosha qilish. Mazkur metod badiiy adabiyot va uning ekran talqinini o‘zaro solishtirib xulosa qilish imkonini beradi.

Darsda o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun “Sinfdan tashqari o‘qish” kitobidan o‘tilgan mavzuga mos matnlarni o‘qib kelish topshirig‘ini berish. Vazifani bajargan o‘quvchilarni tengdoshlari davrasida doimiy rag‘batlantirib borish.

Maktab ta’lim dasturida belgilangan fanlarni o‘qitish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Sinfdan tashqari mutolaga oiladagilar mas’ul. Darsdan tashqari bilimlarni mustahkamlashda ota va ona farzandini kitobga qiziqishni to‘g‘ri uyg‘otishi muhim. Bu uning vertual dunyo ta’siriga tushib qolishidan, internet oqimi orqali kirib kelayotgan turli zararli axborot va ma’lumotlardan saqlashga yordam beradi. Tafakkur, aql va zehn kitob evaziga shakllanadi. Bilimsiz rivojlanish va taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun ilmiy-ommapob va badiiy kitoblar o‘qish targ‘ibotini bolalar orasida keng yo‘lga qo‘yishimiz kerak.

Uchinchi, to‘rtinchi sinflarda bolaning so‘z boyligining oshishida badiiy adabiyot muhim rol o‘ynaydi. Shu yoshda bolalarda o‘qish qobiliyani shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘quvchiga hikoya va ertaklar o‘qitish orqali bolalarning dunyoqarashi shakllanadi. She’r yod olganda xotira mustahkamlanadi. Zehn va aql topishmoq va matematik topshiriqli kitoblar orqali ortiriladi. Ba’zi bolalarda so‘zlarning talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar mutola orqali bartaraf etiladi. Tez aytishlar nutqida muammosi bor bolalarga juda foydali hisoblanadi. Bularning bari o‘qish, yod olish orqali amalga oshiriladi.

Kichik yoshdagi bolalar o‘smirlarga nisbatan ko‘proq rag‘batga moyil bo‘ladi. Matnlarni ravon o‘qiganda o‘qituvchi o‘quvchilarni muntazam rag‘batlantirib borishi zarur. Ta’lim tazimi rivojlangan davlatlarda (Angliya, Yaponiya, Germaniya va Finlandiyada) bola o‘qituvchi tomonidan tez-tez rag‘batlantirib turiladi. Bunda o‘qituvchi turli metodlardan foydalanadi.

Ovozli, vizual adabiyotlar mutoalasini yo‘lga qo‘yish. Masalan, Abdulla Avloniyning kichik hikoyatlari ovozli o‘qib eshittirilishi, yoki uning qahramonlari ekranlashtirilishi orqali bola adabiyotning hayot bilan va hayotning adabiyot bilan bog‘liqligini tushunib, idrok eta boshlaydi. Yana bir misol o‘zbek bolalarining deyarli barchasi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari va uning bosh qahramoni Hoshimjonni yaxshi bilishadi. Asarning ommalashishiga yagona sabab – ekranlashtirilganligi. Asar asosida film suratga olinishi, uni tomosha qilish orqali o‘quvchilarda uning matnli ko‘rinishini ham o‘qishga qiziqish uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Bolalar asarlari asosida filmlar su-

ratga olinishini yo‘lga qo‘yish, ular o‘rtasida kitobxonlikning shakllanishiga ham turtki bo‘ladi. Bunga jahon adabiyotidan ham ko‘plab misollar keltirish mumkin. Angliyalik yozuvchi Djoan Rouling Garri Potter haqidagi asari aynan ekranlashtirilganidan keyin kitobxonlar o‘rtasida ommalashib ketgan.

Bugun ko‘pchilik bolalar uchun ijod qiladigan yozuvchi, shoir va adiblarni deyarli bilishmaydi. Adiblar, ular yozgan asarlar, kitoblarning mazmun, mohiyati haqida ma’lumot berishda internet tarmoqlaridan keng foydalanish. Bolalar adiblari internet platformasini yaratish. Ularning asarlarini matn va audio ko‘rinishida tarmoqlarga yuklash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini platforma faoliyati bilan yaqindan tanishtirish.

Maktablarda Kitobxonlik haftaliga doirasida “Farzandimga kitob sovg‘a qilaman” aksiyasini Respublika bo‘ylab o‘tkazish. Kitob festivallari, mutolaa bayramlarida Respublika bolalar nashrlari kunlarini tashkil etish, joylarda ular bilan adabiy uchrashuvlar o‘tkazish. Maktablarda bolalar shoir va yozuvchilarining asarlariga bag‘ishlangan kunlar va adabiy kechalarni tashkil qilish. Yilning maxsus bir sanasini Bolalar kitoblari kuni sifatida keng nishonlash. Savdo rastalarida, maktablarda ko‘chma yarmarkalar orqali kitob savdosini yo‘lga qo‘yish. Kitob reklamasini moliyaviy mablag‘larsiz yo‘lga qo‘yish. Ota va onalarda farzandiga kitob sovg‘a qilish va kitob o‘qib berish ko‘nikmasini shakllantirish – kitobxonlikni ommalashishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2021-yil 3-fevralda”gi PF-6155-sonli Farmoni //https://lex.uz/docs/5260791.
2. “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. //https://lex.uz/docs/(Qonun hujjatlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/781/1619-son;Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y.,09/22/153/0266-son)
3. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asari https://ziyouz.uz.
4. Kaykovus “Qobusnoma”. –T.: “Istiqlol” nashriyoti, 1994-yil.
5. Methods for teaching reading to children. //https://www. readandspell.com

Sayyoraxon RUZMETOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika univrsiteti tayanch doktoranti

KASBIY FANLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANI QO'LLASHGA DOIR ZAMONAVIY QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda kasbiy fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyani qo'llash tendensiyalari, zamonaviy omillar va uning samarasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Kasbiy fanlar, raqamli texnologiya, tahlil, metod, yosh davrlari, ta'lim, pedagogika.

В данной статье рассматриваются тенденции использования цифровых технологий в преподавании профессиональных дисциплин сегодня, современные факторы и их эффективность.

Ключевые слова. Профессиональные науки, цифровые технологии, анализ, метод, возрастные периоды, образование, педагогика.

This article examines the trends in the use of digital technologies in teaching professional disciplines today, modern factors and their effectiveness.

Key words. Professional sciences, digital technologies, analysis, method, age periods, education, pedagogy.

Bugungi kunda "raqamlashtirish" istilohi ta'limga bag'ishlangan keng ko'lamli tadbirlarning kun tartibidan joy olgan. Buning ajablanarli joyi yo'q. Mamlakatimizda qabul qilingan "Raqamli iqtisodiyot" dasturiga ko'ra, barcha sohalarda raqamlashtirish keng tus olmoqda. Bunga ko'ra, bizga bir necha xil tizim emas, bitta, qulay va foydali tizim darkor. Shu ma'noda, bir xil hisobot shakllarini "rasm" va qog'ozda takrorlash mutlaqo befoyda mashqdir. Afsuski, hozirda hisobotning elektron va qog'oz shakllarini birlashtirish ancha beparvolik bilan amalga oshirilmoqda.

Fan olamida mashhur Genri Jenkinsning fikricha, raqamli savodxonlik apparat kabi kompyuter bilan ishlash qobiliyatini (ya'ni, odam raqamli texnologiya bilan qanday munosabatda bo'lishini tushunishingiz kerak), qurilma xususiyatlarini tushunish va raqamli ma'lumotni tarqatishni (masalan, dasturiy ta'minot bilan ishlash qobiliyati), tarmoq hamjamiyatining tuzilishini va ijtimoiy tarmoqlarning xususiyatlarini tushunish g'oyasi yetakchilik qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiya internet muhitining madaniy kontekstini tushunish, onlayn hamjamiyatlarda muloqot qilish qobiliyati, kontent yaratish va tarqatish qobiliyati va o'z-o'zini rivojlantirish uchun ko'nikmalarini shakllantiradi. Raqamli savodxonlikning turli konsepsiyalari mualliflari fikriga ko'ra, raqamli haqiqat qanday ishlashini tushunishgina odamni "axborot shovqini"ni boshqarishga o'rgatishi va raqamli texnologiyalar bilan o'zaro aloqani stress emas, rivojlanish manbaiga aylantirishi mumkin.

Ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini yangi materialni o'zlashtirish bosqichida ham, individual natijalarni kuzatish bosqichida ham individuallashtirish imkonini beradi. Buning uchun imkoniyatlar "Mobil elektron maktab" – o'quv jarayonini o'quv-uslubiy ta'minlash tizimi bo'lib, bu ijtimoiy tarmoq o'qituvchilar,

talabalar va ota-onalar uchun, ta’lim mazmuni, baholash tizimlari va fikr-mulohazalarni ifodalashda qulaylik tug‘diradi.

Raqamli texnologiyalar aralash ta’limni rivojlantirish vositalarini taqdim etadi, shu bilan sinf tizimining cheklovlarini yengib o‘tadi o‘quv dasturi va uning rivojlanishi uchun bir vaqtning o‘zida talay yengillik yuzaga keladi. Bugungi kunga kelib, ta’limning eng jadal rivojlanayotgan sohasi internet bo‘lib, bu tizim keng joriy etib kelinmoqda. O‘qituvchi internet resurslaridan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlariga yangi dolzarb ma’lumotlarni kirita oladi, uning ko‘rinishini oshiradi va talabalarning bilim olishga qiziqishini oshiradi. Barcha jabhada bo‘lgani kabi kasbiy fanlarni o‘qitishda ham keng qo‘llanilib, o‘z o‘rnida fanni o‘qitishning mazmuni va usullarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Raqamlash dasturidan foydalanish talabaning axborot madaniyatini oshiradi; kengroq ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi; o‘quv materialini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish samaradorligini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari bot-bot tilga olinadi.

Kasbiy kompetensiyalar – bu kasbiy majburiyatlarni bajarish qobiliyati yoki muayyan kasbiy vazifani bajarish, ya’ni ishni sifatli bajarish va kerakli natijaga erishishi tushuniladi. Faoliyat kompetensiyasi mehnat vazifalarini bajarishga yordam beradigan to‘liq bilim va tajribaga ega ekanlikni ko‘rsatadi. Kompetensiyalarni boshqarish – bu xodimning o‘ziga xos vazifasi bo‘yicha ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni aniqlash, shuningdek, ushbu ko‘nikmalarni tashkilotning biznes strategiyasiga eng mos keladigan tarzda ishlab chiqish va optimallashtirish amaliyotidir. Kasbiy fanlar, xoh aniq xoh gumanitar fanlar bo‘lsin, professional kompetensiyalar ish beruvchiga qobiliyatimiz va qadr-qimmatimizni ko‘rsatadi. Har safar yangi ish qidirayotganimizda yoki yangi lavozimga tayinlanayotganimizda, biz o‘z kompetensiyalarimizni baholashga duch kelamiz. Shunga asoslanib, bizning qobiliyatlarimiz va pozitsiyamiz haqida xulosa chiqariladi. Shu sababli, o‘z kasbiy qobiliyatlarimizni doimiy ravishda rivojlantirish va boshqarish juda muhim masaladir.

